O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

KOMPYUTERLI LOYIHALASH

fanidan o‘quv uslubiy majmua

Bilim sohasi:	700000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	720000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Bakalavr yo‘nalishi:	60712300 – Mexanika muhandisligi

NAVOIY – 2025-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____N.A. Abduazizov
“____” _____ 2025-yil

KOMPYUTERLI LOYIHALASH
fanidan

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

I.P.Egamberdiyev. «Kompyuterli loyihalash» fanidan O‘quv-uslubiy majmua. – Navoiy: NavDKTU. – 2025.

Tuzuvchilar:
“Sanoat ishlab chiqarishlarini mahalliylashtitish” kafedrasi mudiri, professor, t.f.d. _____ I.P.Egamberdiyev

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua texnika oliy o‘quv yurtlari 60712300 – “Mexanika muhandisligi” ta’lim yo‘nalishining talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga o‘quv-uslubiy majmuadan ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar hamda “Kompyuterli loyihalash” faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

O‘quv-uslubiy majmua «Mashinasozlik texnologiyasi» kafedrasi majlisida (2025-yil “___” ____ № __-son bayonnoma) muhokama etildi va fakultetning o‘quv-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri _____ I.P.Egamberdiyev

O‘quv-uslubiy majmua Energo-mexanika fakultetining o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi (20__ yil “__” ____ № __-son bayonnoma) va instituning Ilmiy-uslubiy kengashiga tasdiqlashga topshirildi.

Fakultet kengashi raisi: _____ A.I.Qarshibayev

O‘quv-uslubiy majmua Navoiy davlat konchilik instituti Ilmiy-uslubiy kengashining 20__ yil “_____” _____ №_____-sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Ilmiy-uslubiy kengash kotibi: _____ M.J. Normatova

Kelishildi:
O‘quv-uslubiy bo’lim boshlig’i _____ I.A. Karimov

MUNDARIJA

1.	**TITUL VAROG'I**	
2.	**MUNDARIJA**	
3.	**MA'RUZALAR MATNI**	
4.	**LABORATORIYA ISHLARI**	
5.	**AMALIY ISHLAR**	
6.	**MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI**	
7.	**GLOSSARIY**	
8.	**ILOVALAR**	
9.	**FAN DASTURI**	
10.	**ISHCHI FAN DASTURI**	
11.	**TARQATMA MATERIALLAR**	
12.	**TESTLAR**	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

« KOMPYUTERLI LOYIHALASH »

o’quv fanidan

ma’ruzalar matni

Navoiy-2025

KIRISH

Bugungi kunda nafaqat fan-texnika, balki butun jamiyat taraqqiyotini informasion texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, chunki informasion texnologiyalar qo'llanmaydigan biror-bir sohani topish juda qiyin. Injenerlik sohasida keng qo'llaniladigan informasion texnologiyalar orasida «Kompyuterli loyihalash tizimlari» alohida o'rin tutadi.

Birinchidan, avtomatlashtirilgan loyihalash fani su'niy fan bo'lib, uning tarkibiy qismlarini juda ko'p boshqa informasion texnologiyalar tashkil etadi: avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik ta'minoti – hisoblash tarmoqlari, telekommunikatsion texnologiyalar, personal kompyuterlar va avtomatlashtirilgan ishchi stantsiyalar tashkil etadi; matematik ta'minotida – hisoblash matematikasi, statistika, matematik dasturlash, diskret matematika, sun'iy intellekt usullaridan keng foydalaniladi; dasturlar ta'minoti esa UNIX, WINDOWS-NT, S, S++, JAVA va boshqa dasturlash tillariga, zamonaviy SASE texnologiyalarga, ob'ektga orientirlangan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga va kompyuter vositalarida ma'lumotlar almashish tizimlariga asoslangan murakkab tizimdir.

Ikkinchidan, loyihalashni avtomatlashtirish asoslarini bilish va loyihalashni avtomatlashtirish vositalarida ishlay olish har bir muxandis xodim uchun odatiy narsa bo'lib, bugungi kunda konstruktor yoki texnologning odatdagi kulman oldida ishlashi, logarfmik leneykalar yordamida hisoblashlarni bajarishi, pechat qilish mashinalarida hujjatlar tayyorlashi anoxronizm hisoblanadi.

Kompyuterli loyihalash tizimlaridan foydalanmaydi gan yoki ulardan kam darajada foydalanadigan ishlab chiqarish korxonalari loyihalashga ketadigan katta material va vaqt sarfi xarajatlari, hamda olinadigan loyiha sifatining pasatligi natijasida raqobatga dosh barolmaydi.

Hozirgi vaqtda loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun juda ko'p, har xil darajada maxsuslashtirilgan va amaliy orientirlangan uslubiy-dastur komplekslari yaratilgan. Natijada, «Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish fani muxandislar tayyorlashning zaruriy qismi bo'lib, Kompyuterli loyihalash CAD/CAM/CAEni bilmaydigan va undan foydalana olmaydigan muxandislar to'la qonli mutaxassislar hisoblanmay qoldi.

MA’RUZA №1

Kirish. Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining qurilish asoslari.

Ma’ruza rejasi:

1. Texnik tizim
2. Texnik tizimning «hayot» sikli
3. Ilmiy-tadqiqot jarayoni
4. Loyihalash jarayoni
5. Ishlab chiqarish jarayoni
6. Loyihalash tizimsi modeli

Texnik tizimning «hayot» sikli va loyihalash jarayonining undagi o’rni. Fanining maqsadi va vazifalari

Tayanch so’zlar va iboralar:

Tizim, texnik tizim, loyihalash, avtomatlashtirilgan loyihalash, ilmiy tadqiqot, texnik taklif, ishchi hujjatlar, yangi texnik tizimni yaratish

Muhandislik yo’nalishlari bo’yicha ta’lim oladigan bo’lajak bakalavrlarning asosiy maqsadi mavjud texnik tizimlarni o’rganish, vaqti kelganda talabga asosan yangi texnik tizimlarni yaratishni bilishdan iborat bo’lganligi sababli, avvalo, tizim va texnik tizim tushunchalariga to’xtalib o’tamiz.

Tizim deb ma’lum tartibda joylashgan, o’zaro aloqalarda bo’lgan chekli miqdordagi elementlar to’plamiga aytiladi.

Agar to’plamdagi mavjud elementlarni $E_i(e_1,e_1,...,e_m)$ va ular o’rtasidagi aloqalarni $A_g(a_1,a_2,...,a_n)$ deb belgilasak, to’plamlar nazariyasiga asosan tizimning umumlashgan matematik modeli quyidagicha yoziladi:

$$S = \{E_i, A_g\}; \quad i = 1/m; \quad g = 1/n; \qquad (1.1)$$

bu erda m - tizimdagi mavjud elementlar,

n - elementlar orasidagi mavjud aloqalar (munosabatlar) soni.

Texnik tizimlar ma’lum maqsadlar uchun insoniyat tomonidan yaratiladi. Texnik tizimlarning asosini texnik vositalar va qurilmalar tashkil qiladi.

Texnik tizim yaratilishidan tortib to utilizatsiya qilinishigacha bo’lgan hayot siklini utadi. Texnik tizimning hayot sikli deb, talab asosida yaratiladigan yangi texnik tizim to’g’risidagi dastlabki g’oyadan boshlab, uni ekspluatatsiya qilish natijasida eskirib, belgilangan funksional vazifalarni bajara olmaydigan darajaga etguncha bo’lgan davrga aytiladi. Bu davr o’z ichiga ilmiy-tadqiqot, loyihalash, ishlab chiqarish (yasash) va ekspluatatsiya (ishlatish) jarayonlarini oladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari jarayoni yaratiladigan yangi texnik tizim to’g’risidagi birlamchi g’oyadan boshlab, g’oyani yuzaga oshirish maqsadida izlanish-tekshirish ishlarini olib borish va maqsadga mos texnik taklifni olishgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi (T_1 vaqt). Texnik taklif bu yaratiladigan yangi texnik tizimning dastlabki tasviridir.



1.1-rasm. Texnik tizimning «hayot» sikli

Loyihalash jarayoni ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida olingan texnik taklifni ishlab chiqarish ishlari jarayonida foydalansa bo'ladigan ishchi hujjatlariga aylantirishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi (T_2 vaqt).

Loyihalash jarayonining chiqish koordinatasidagi ishchi (konstruktorlik va texnologik) hujjatlar yangi texnik tizimni *ishlab chiqarishning (yaratishning)* birlamchi materiallari hisoblanadi, va ular asosida maqsadga mos yangi texnik tizimlar yaratiladi (T_3 vaqt).

Demak, yangi TS $T_1+T_2+T_3$ vaqt davomida yaratildi va undan foydalansa bo'ladi. Rasmda yaratilgan texnik tizimdan foydalanish vaqti T_4 da ifodalangan.

Ishlatish natijasida, ma'lum vaqt o'tgandan so'ng texnik tizim fizik va ma'naviy eskiradi, undan ko'riladigan foyda keskin kamayib, texnik tizim maqsadga mos bulmay qoladi. Demak, uni yoki takomillashtirish kerak yoki tubdan o'zgartirib, yangi talablarga mos keladigan boshqa texnik tizim bilan almashtirishga to'g'ri keladi. Davrning bunday qayta takrorlanishlari rasmda shtrix chiziqlarda tasvirlangan.

Shunday qilib texnik tizim «hayot» siklining vaqti quyidagi yig'indida ifodalanadi:

$$T = T_1 + T_2 + T_3 + T_4 \qquad (1.2)$$

Agar bundagi $T_1 + T_2 + T_3$ yig'indini texnik tizimning yaratilish davri T_{ya} bilan belgilasak (ya'ni $T_1 + T_2 + T_3 = T_{ya}$);

$$T = T_{ya} + T_4 \qquad (1.3)$$

va bundan T_4 aniqlasak:

$$T_4 = T - T_{ya} \quad \text{yoki} \quad T_4 = T - (T_1+T_2+T_3) \qquad (1.4)$$

hosil qilamiz. Bunday yozishdan sabab yaratilgan texnik tizimdan foyda faqat T_4 davrida (ekspluatatsiya qilish davrida) olinadi.

Nisbiy ifodalarga o’tish uchun 4 chi tenglikda chap va o’ng tomonlarini texnik tizimning «hayot» sikli T ga bo’lamiz:

$$T_4/T = 1 - T_{ya}/T; \quad \text{yoki} \quad T_4/T = 1 - (T_1+T_2+T_3)/T; \qquad (1.5)$$

T_4/T o’lchamsiz nisbatni yaratilgan texnik tizimdan «hayot» sikli davomidagi olinadigan samaradorlik koeffitsienti K_s bilan belgilasak, tadbiq qilishga yaroqli bo’lgan quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$K_s = 1 - T_{ya}/T \text{ yoki } K_s = 1 - (T_1+T_2+T_3)/T \qquad (1.6)$$

($0<T_{ya}<T$ uchun, ($0<K_s<T'$ tengsizligi o’rinli bo’ladi. So’nggi formuladan ko’rinib turibdiki, yaratiladigan texnik tizimning «hayot» sikli davridan olinadigan samaradorlikni oshirish uchun uni yaratish vaqtini, ya’ni $T_{ya}=T_1+T_2+T_3$ yig’indini keskin kamaytirish kerak. Ideal holat uchun maksimal samaradorlik koeffisienti 1 ga teng bo’ladi.

Texnika taraqqiyotining dastlabki vaqtlarida samaradorlik koeffisientini oshirish masalalari ishlab chiqarish jarayoni vaqti T_3 ni kamaytirish orqali amalga oshirilgan. Bunda ishlab chiqarish davrini qisqartirish va qo’l mehnatini engillashtirish uchun dastlab mexanizatsiyalashtirilgan so’ngra avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish vositalari: universal metall kesish stanoklar; yarim avtomat va avtomat stanoklar; avtomatik liniyalar; avtomatlashtirilgan metall kesuvchi stanoklar va hozirgi zamon moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlarining paydo bo’lishi va ishlab chiqarishda qo’llanishi aynan yuqorida keltirilgan formuladagi T_3 vaqtini qisqartirish talablari asosida vujudga kelgan.

Keyinchalik elektron hisoblash mashinalari va informasion texnologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi natajasida, murakkab texnik tizimni yaratishda, ularning «hayot» siklidagi T_1 (ilmiy-tadqiqot ishlari) va T_2 (loyihalash ishlari) vaqtlarini kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish muammolari yo’lga qo’yildi va echila boshladi. Ilmiy tadqiqot jarayonlarini va loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish tizimlari yuzaga kela boshladi va hozirgi paytda ular keskin rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Oliy o’quv yurtlari talabalariga ular haqidagi fanlar ham o’tila boshladi.



1.2-rasm. Loyihalash tizimi modeli

Tizimli yondashish tamoyillariga asosan har qanday jarayonda, aynan loyihalash jarayonida ham umuman olganda uchta operator - odamlar, texnik vositalar, tashqi muhit ishtirok etishi mumkin. Ularning ta’sirlari natijasida,

loyihalash jarayonida ilmiy tadqiqot jarayonidan olingan texnik takliflar ishlab chiqarish jarayoniga kerakli bo'lgan ishchi hujjatlarga o'zgartirib berildi (2-rasm).

2-rasmdan foydalanib, agar jarayonda birorta operator ishtirok etsa tegishli katakcha «+» ishorasini qo'yib, ishtirok etmasa «-» ishorasini qo'yib, quyidagi variantlar matritsasini tuzsa bo'ladi.

Matritsani tuzishda bizlar tashqi muhitni jarayonlarda doimo ishtirok etadi deb hisobladik. Ikkita operator qatnashishi yoki qatnashmasligi sababli $2^2=4$ variant kelib chiqdi, variantlarga tegishli mumkin bo'lgan jarayon jadvalning oxirgi ustunida keltirilgan. 3-rasmdan foydalanib o'quvchilarning o'zlari «avtomatlashtirilgan», «avtomatik» tushunchalarni va ular o'rtasidagi o'xshashik va farqlarni tushunib oladi deb o'ylaymiz.

Var./on	TM	Od	TV	Jarayon turlari
1	+	+	+	Avtomatlashtirilgan
2	+	-	+	Avtomatik
3	+	+	-	Qo'l mehnati
4	+	-	-	Tabiiy

1.3-rasm. Loyihalash jarayonlari turlarini aniqlash masalasiga doir

Yuqoridagi keltirilgan mulohazalarga ko'ra mazkur fanning maqsadi, talablarni loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish muammolarining, keyinchalik yo'nalishlariga mos «Kompyuterli loyihalash tizimlari» fanini o'zlashtirishda kerak bo'ladigan matematik, fizik va ba'zi bir umumtexnik asoslari bilan tanishtirishdan iborat.

Bu fanni o'rganuvchi talabalar «Informatika va hisoblash texnikasi» fanini o'zlashtirgan bo'lishlari shart.

Savollar

1. Texnik tizim "hayot" sikli sxemasini ifodalab bering.
2. Ilmiy tadqiqot jarayoni qanday jarayon.
3. Texnik taklif nima.
4. Loyihalash jarayoni qanday jarayon.
5. Ishchi hujjatlar o'z ichiga qanday hujjatlarni oladi.
6. Loyihalash tizimsi modelini ifodalab bering.
7. Avtomatlashtirilgan loyihalash deb qanday loyihalashga aytiladi.

MA’RUZA №2
AVTOMATLASHTIRILGAN LOYIHALASH TIZIMINING TA’MINOTI TURLARI.

Ma’ruza rejasi:

1. Avtomatlashtirilgan loyihalashning matematik ta’minoti.
2. Avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik ta’minoti.
3. Avtomatlashtirilgan loyihalashning dastur ta’minoti.
4. Avtomatlashtirilgan loyihalashning informasion ta’minoti.
5. Avtomatlashtirilgan loyihalashning lingvistik ta’minoti.
6. Avtomatlashtirilgan loyihalashning metodik ta’minoti.
7. Avtomatlashtirilgan loyihalashning tashkiliy ta’minoti.

Tayanch so’zlar va ifodalar:
Ta’minot, matematik ta’minot, texnik ta’minot, dastur ta’minot, informasion ta’minot, lingvistik ta’minot, metodik ta’minoti, tashkiliy ta’minoti

Loyihalash jarayonini avtomatlashtirish uchun quyidagi ta’minot turlari albatta bo’lishi shart (10-rasm).



2.1 rasm. Avtomatlashtirilgan loyihalashning ta’minot turlari

10-rasmda keltirilgan ta’minot turlariga qisqacha ta’riflar berib o’tamiz.
Matematik ta’minoti - loyiha ob’ektining matematik modellari, loyihalash operasiyalari va proseduralarini amalga oshirish usullari va algoritmlari to’plami. Matematik ta’minot elementlariga funksional modellarni tuzish printsiplari, algebraik va differensial tenglamalarni yechishning sonli usullari, ekstremal masalalarni qo‘yish, ekstrimumni qidirishlar kiradi. Matematik modellar va algoritmlar asosida avtomatlashtirilgan loyihalashning dastur ta’minoti ishlab chiqiladi.
Matematik ta’minotni ishlab chiqish loyihalash jarayonini avtomatlashtirishning eng murakkab bosqichi hisoblanadi va avtomatlashtirilgan loyihalashning unumdorligi va samaradorligi ko‘p jihatdan belgilab beradi.
Loyihalsh jarayonini avtomatlashtirishning matematik ta’minotini vazifasi va amalga oshirish usullari bo‘yicha ikki qismga bo‘linadi:

1) matematik usullar va ular asosidagi loyiha ob’yektlarining matematik modellari;

2) loyihalash jarayonini avtomatlashtirish texnologiyasini formalashtirish.

Loyiha ob’yektlarining matematik modellari amalga oshirishning usullari va vositalarini o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va loyiha ob’yektlarining xususiyatlaridan bog‘liq bo’ladi.

Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirshni formalashtirish loyihalashni avtomatlashtirish texnologiyasi mantiqini butunligicha formalashtirilishni, avtomatlashtirish vositalari, loyihalovchilarning avtomatlashtirish vositalari bilan muloqotlarini va avtomatlashtirish vositalari asosida bir-biri bilan o’zaro muloqotlarini yagona pozisiyada formalashtirishni talab etadi.

Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirshning matematik ta’minoti loyihala ob’yekti, loyihalash jarayoni va vositalarini o‘zaro bog‘liqlikda iaodalashi kerak bo’lib, bunad ikkita yo‘nalishni ajratish mumkin:

– avtomatlashtirilgan loyihalashda optimal loyihaviy yechimlarni olish usullariining rivojlantirish;

– avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonini o‘zini takomillashtirish va tipiklashtirish.

Loyihalashning namunaviy jarayonini modellashning matematik apparatini markazlashtirilgan holda ishlab chiqish va bunday modellarni amalga oshiruvchi bazaviy dasturaviy-metodik komplekslarni chiqarish avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonlari texnologiyasini takomillashtirish va tipiklashtirishda istiqbolli yo‘nalishdir.

Kompyuterli loyihalash tizimining texnik ta’minot – loyihalash jarayonini avtomatlashtirish uchun zarur, o’zaro aloqada va o’zaro ta’sirda bo’lgan texnik vositalar kompleksi.

Kompyuterli loyihalash tizimining texnik ta’minoti ma’lumotlarni kiritish va chiqarish, uzatish va qabul qilish, kodlash va dasturlash, tayyorlash va hujjatlashtirish, loyihaviy echimlar arxivini tashkil qilish kabi periferiya qurilmalari: funksional klaviaturalar; grafikli va alfavit-raqamli displeylar; grafik informatsiyani kodlovchilar; skanerlar; printerlar; plotterlar; har xil formatli yuqori aniqlikdagi rulonli va elektron peroli planshetli grafquruvchilar; axborot saqlovchi magnitli, lazerli «Vinchester» turidagi disklar; informatsiyani mikrofilm va mikrofishlarga chiqaruvchi qurilmalar; kompyuter bilan yuqori darajada bog‘lanish qurilmalarini o‘z ichiga oladi.

Dastur ta’minoti - loyihalashni avtomatlashtirish uchun ma’lum mashina tilida tayyorlangan va tuzilgan dasturlar to’plami.

Dastur ta’minoti umumtizimiy va amaliylarga bo‘linadi.

Umumtizimiy dastur ta’minoti loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirshning texnik vositalar funksiyalarini tashkil qilish, hisoblash jarayonini rejalashtirish va boshqarish, mavjud resurslarni taqsimlash uchun mo‘ljallangan bo’lib, kompyuterning operatsion tizimi ko‘rinishida bo‘ladi. Zamonaviy kompyuterlarning foydalanuvchiga berayotgan imkoniyati texnik qurilmalarga nisbatan ko‘proq operatsion tizimlar bilan aniqlanmoqda. Lekin operatsion

tizimning imkoniyati qanchalik yuqori bo‘lsa, unga shunchalik ko‘p resurslar talab qilinadi.

Umum tizimiy dastur ta’minotining ahamiyatli komponenti *bazaviy dastur ta’minoti*. Geometrik va grafik informatsiyalarga ishlov berish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish va undan foydalanish uchun mo‘ljallangan, avtomatlashtirilgan ishchi joyi mashina grafikasining bazaviy bazaviy dastur ta’minoti bunga misol bo‘la oladi. Ular grafik hujjatlashtirishning amaliy dasturlar paketi, translyatsiya qilish, vizuallashtirish, chizmalar namunaviy elementlarini bayonini saqlash hamda amaliy dasturlar paketini yaratish uchun modullar kutubxonasi, kutubxonadan bayonlarini tanlab olish va ularning tasvirini olish to‘plamlaridan iborat.

Aamaliy (maxsus) dastur ta’minoti bevosita loyihalash proseduralarini bajarish uchun mo‘ljallangan bo’lib, odatda amaliy dasturlar paketi ko‘rinishida bo‘ladi. Bu dasturlarning har biri loyihalash jarayonining ma’lum bosqichini yoku turli bosqichlar ichidagi bir turdagi masalalarni bajarishni ta’minlaydi.

Informasion ta’minoti - loyihalashni avtomatlashtirish uchun lozim bo’lgan, ma’lum shaklda berilgan loyihaviy yechimlarni bevosita ishlab chiqish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar kompleksi.

Ushbu ma’lumotlar materiallar, komplektlovchi (butlovchi) buyumlar, namunaviy loyihaviy yechimlar, elementlar parametrlari haqidagi ma’lumot (spravka) hamda oraliq va natijaviy loyihaviy yechimlar, loyiha ob’yektlari strukturasi va parametrlari ko‘rinishidagi ma’lumotlar bo‘ladi va ular avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi informasion fondini tashkil qiladi.

Kompyuterli loyihalash tizimi informasion fondi tarkibiga quyidagilar kiradi:

– dastur modullari informasion fondni yaratish bosqichida hosil qilinib, belgilangan o‘lchamlarga ega bo‘ladi, belgi (simvol) ko‘rinishida saqlanadi va keyinchalik kam o‘zgaradi,

– boshlang‘ich va natijaviy modullar; ular bir ko‘rinishdan ikkinchisiga o‘zgarish jarayonida dastur modullarini bajarishda zarur. Loyihalash jarayonida bu ma’lumotlar tez-tez o‘zgarib turadi,

– me’yoriy ma’lumotnoma hujjatlari o‘z ichiga materiallar, sxemalarning elementlari, unifikatsiyalashgan uzellar, konstruktsiyalar haqidagi so‘rov (spravochnim) ma’lumotlarni oladi. Odatda bu ma’lumotlar yaxshi strukturalangan va faktografik ma’lumotlar, standartlar, amal qilinadigan materiallar va yo‘riqlar, namunaviy loyihaviy yechimlar, qat’iy belgilangan (reglamentlangan) hujjatlarni oladi.

– dialogni tashkil qilish maqsadida informatsiyani displey ekranida tasvirlash imkonini beradigan va kadr shaklini belgilaydigan o‘zaro bog‘langan ma’lumotlar. Odatda bu ma’lumotlar o‘zgarmaydi; qat’iy belgilangan o‘lchamga ega bo‘ladi;

– joriy loyihaviy informatsiyalar, loyiha holati va bajarilishining borishini aks ettiradi. Odatda bu informatsiyalar bo‘sh strukturalangan, loyihalash jarayonida tez-tez o‘zgarib va matnli hujjatlar shaklida ifodalanadi.

Loyihalashga kerakli axborotlar ma’lumotlar bazasida saqlanadi va ulardan foydalanish maxsus boshqarish tizimlari «*Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari*» yordamida bajariladi. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

foydalanuvchi qobig‘i bo’lib, foydalanuvchining so‘rovlarini tezlik bilan qoniqtirishga yo‘nalgan intepretator-tizimdir. Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishda informasion fondni boshqarish usullarini tanlash, printsiplarni ta’riflash va informasion fond ma’lumotlarni strukturalash vositalarini aniqlash, ma’lumotlar massivlarini boshqarish usullarini tanlashning ahamiyati katta.

Eng to‘liq variantda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo‘lishi kerak:

- *foydalanuvchi muhiti* – klaviatura yordamida ma’lumotlarni bevosita boshqarish imkonini beradi;
- interpretator sifatida realizatsiya qilingan, ma’lumotlarga ishlov berish amaliy tuzilishini dasturlash uchun *algoritm tili*; interpretator dasturlarni tez tuzish va sozlash imkonini beradi;
- *kompilyator* – tayyor bo‘lgan dasturga mustaqil EXE-fayl shaklida tayyor kommertsiya mahsuloti ko‘rinishini beradi;
- *utilit-dasturlar* – o‘zgarmas, oddiy operasiyalarni tez dasturlashga xizmat qiladi (hisobotlar, ekranlar, menyu va boshqa ilovalar generatorlari).

Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari uchun ma’lumotlarni manipulyatsiya qiluvchi tillar yaratilgan, ular relyatsion algebraning hamma operasiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Ular orasida keng tarqalganlari – SQL (Structured Query Language – *so‘rovlarning strukturlangan tili*) va QBE (Quere-By-Example – *namuna bo‘yicha so‘rovlar*). Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari dasturlash tilining mavjud bo‘lishi muayyan masala va hatto muayyan foydalanuvchiga mo‘ljallangan ma’lumotlarga ishlov berish murakkab tizimlarini yaratish imkonini beradi. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari orasida eng keng tarqalgani Paradox (Borland firmasining dastur mahsuloti) o’zining soddaligi va shaffofligi bilan ajralib turadi va ma’lumotlarni boshqarishning funksional tugal tizimi imkoniyatlariniberadi.

Shunday qilib avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi informasion ta’minot – informasion fond va uni boshqarish vositalarining majmuidir.

Lingvistik ta’minot – avtomatlashtirilgan loyihalash proseduralari va loyihalash echimlarini bayon qilish uchun mo‘ljallangan tillari majmui. Lingvistik ta’minotning asosiy qismi - kompyuter va odam orasidagi munosabat tillaridir. Loyihalashning muammoli-yo‘naltirilgan algoritmik tillariga *Visual Basic, Visual C++, Delphi, Java, Visual Fox Pro* va sh.k. keltirish mumkin.

Ma’’lum masalalarni yechish topshirig‘i asosan fizika va funksional mazmundagi original atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalaning fizik va funksional bayonidan kompyuter uchun dasturlarga o‘tish translyator yordamida avtomatik ravishda amalga oshriladi. Boshqa hollarda masalan, muhandislik turidagi masalalarni yechishda, loyihalash tizimi o‘zida hisobiy matematik masalalarni yechish uchun yuqori darajali algoritmik til vositalarini va geometrik ob’yektlarni modellashning maxsus til vositalarini birlashtiradi. Yuqori darajali algoritmik til translyatori zarur bo‘lgan maxsus dasturlar bilan to‘ldiriladi. Ular quyidagi vositalarni o‘z ichiga olishi kerak: MYT terminal simvollarining to‘plami; MYT dan interpretasiya qiluvchi; sintaksistik tahlil vositalari; direktivalarni paketlash

vositalari; MYT bazaviy funksiyalarining kutubxonalari; Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bilan bog‘lanish interfeysi.

Metodik (uslubiy) ta’minot - avtomatlashtirilgan loyihalashda qo’llanuvchi vositalar turkumi va ularni tanlash, ekspluatatsiya qilish usullari to’g’risidagi hujjatlar to’plami. Ba’zida, metodik ta’minot sifatida matematik va lingvistik ta’minotlar ham qo’shib olinadi.

Tashkiliy ta’minot - loyihalash tashkiloti, uning strukturasi, tashkilot va avtomatlashtirilgan loyihalash vositalar kompleksi o’rtasidagi munosabat, instruktsiyalar, buyruqlar va boshqalar majmui.

Loyihalashni to’liq avtomatlashtirish uchun yuqorida keltirilgan barcha ta’minotlar va ular orasidagi aloqalar albatta mavjud bo’lishi shart. Ko’pincha loyihalash jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasi umumiy loyihalash algoritmidagi avtomatlashtirilgan proseduralar nisbati N_{av} bilan baholanadi. Agar N_{av} 25% ni tashkil qilsa, loyihalash jarayoni past avtomatlashtirilgan, $25\%<N_{av}<50\%$ oralig’ida bo’lsa loyihalash jarayoni o’rtacha avtomatlashtirilgan, $N_{av}>50\%$ ni tashkil qilsa, bunday loyihalash jarayoni yuqori darajada avtomatlashtirilgan loyihalash jarayoni deb ataladi.

Ko’rgazmali materiallar





Savollar

1. Avtomatlashtirilgan loyihalashning matematik ta’minoti
2. Avtomatlashtirilgan loyihalashning texnik ta’minoti
3. Avtomatlashtirilgan loyihalashning dastur ta’minoti
4. Avtomatlashtirilgan loyihalashning informasion ta’minoti
5. Avtomatlashtirilgan loyihalashning lingvistik ta’minoti
6. Avtomatlashtirilgan loyihalashning metodik ta’minoti
7. Avtomatlashtirilgan loyihalashning tashkiliy ta’minoti

MA’RUZA №3
CAD TIZIMLARI. AVTOMATLASHTIRILGAN LOYIHALASH TIZIMLARI KLASSIFIKASIYASI.

Ma’ruza rejasi:

1. Murakkab texnik tizimlarni dekompozitsiyalash
2. Yangi texnik tizimni loythalash algoritmi
3. Texnik tizimni tavsiflash aspektlari
4. Loyihalash jarayoni strukturasi dekompozitsiyasi

Loyihalash obekti va jarayonini ierarxik sathlar, aspektlar va etaplar bo’yicha dekompozitsiyalanishi

Tayanch so’zlar va ifodalar:

Loyihalash, loyiha, texnik taklif, ishchi hujjatlar, ierarxik sath, dekompozitsiyalash, loyihalash aspekti, loyihalash stadiyasi, loyihalash etapi, loyihalash prosedurasi, loyihalash operasiyasi

Loyihalash deganda ilmiy-tadqiqot, hisob-kitob va konstruktorlik ishlari kompleksini bajarish natijasida ilmiy-tadqiqot ishlari jarayonida olingan texnik taklifni ishlab chiqarish jarayoni uchun yaroqli bo’lgan ishchi hujjatlarga o’zgartirib berish jarayoni tushuniladi. Loyihalash jarayoni natijasida yuzaga kelgan ishchi hujjatlar yaratiladigan texnik tizimning yakuniy tavsifi hisoblanadi, va u loyiha deb ataladi. Yakuniy tavsif bir yoki bir nechta oraliq tavsiflardan tashkil topgan bo’lishi mumkin. Bunday tavsiflar loyihaviy echimlar deyiladi.

Murakkab texnik tizimni loyihalashda, loyihalash ishlarini osonlashtirish uchun dastavval tizim strukturaviy qismlarga ajratib chiqiladi. Texnik tizimni strukturaviy qismlarga ajratib chiqish ierarxik sathlarga bo’lish deb ataladi. Ierarxik sathlarga ajratishda tizim podtizimlarga, ular esa o’z navbatida elementlarga ajratiladi (4-rasm).

4-rasmga asosan, eng yuqoridagi birinchi sathda loyihalanishi lozim bo’lgan yaxlit murakkab tizim S joylashgan bo’lib, u o’zaro aloqada yoki ta’sirlarda bo’lgan bir nechta podtizimlar P ga ajratilgan (2 sath). O’z navbatida bu sathdagi har bir tizim uchinchi sathda joylashgan elementlarga ajratilgan. Har bir yuqoridagi sathda joylashgan blok o’zidan pastgi sathda joylashgan bloklarga nisbatan tizim deb qaralishi mumkin, tizimning pastgi sathida joylashgan bloklari esa elementlar deb ataladi.

Qoida bo’yicha elementlarga ajratish ularning funksional belgilari bo’yicha bajariladi va bloklarni elementlarga ajratish ularni funksional vazifalari bo’yicha tavsiflab bo’lmaydigan darajaga qadar olib boriladi. Oxirgi sathdagi strukturaviy qismga ajralmaydigan elementlar bazaviy elemenlar deb ataladi. Loyihalanadigan ob’ektni strukturaviy qismlariga ajratish ularni ierarxik sathlari bo’yicha dekompozitsiyalash deb ataladi. Har bir blokning bajaradigan funksiyasi ma’lum

bo’lganligi sababli dekompozitsiyalash natijasida, ularni alohida loyihalash imkoniyati to’g’iladi.



3.1-rasm. Texnik tizimni dekompozitsiyalash masalasiga doir

Bu esa murakkab texnik tizimni loyihalashni bir qancha osonlashtiradi. Misol uchun mashinasozlikda baza elementlar sifatida detallar (vint, bolt, shponka, val, tishli g’ildirak, va h.k.) olinadi, va ular ierarxik sathning eng pastida joylashadi. Undan yuqoridagi sathda yig’ma birliklar joylashgan bo’lib, ular detallarga nisbatan tizim hisoblanadi. (stanokning reduktori, ichki yonuv dvigatelining karbyuratori, reaktiv dvigatel yonuv kamerasining elektropnevmoklapani va h.k.). O’z navbatida yig’ma birliklar agregatlarning elementlari hisablanadi, va agregatlar yig’ma birliklariga nisbatan yuqoridagi sathda joylashadi (stanoklar, gidravlik presslar, ichki yonuv dvigatellari va h.k.). Ba’zida bundan yuqoriroq sathlar ham mavjud bo’lishi mumkin. Mashinasozlikda ularning nomini kompleks deb ataladi. Misol uchun stanok potok liniyaga nisbatan element, ichki yonuv dvigateli uchish apparatlari va avtomobillarga nisbatan element hisoblanadi. Aytilganlarni inobatga olgan holda 5-rasmda yangi texnik tizimni loyihalash algoritmining umumlashtirilgan sxemasi keltirilgan.

Yuqorida biz murakkab texnik tizimning ierarxik sathlar, ya’ni strukturaviy tavsiflanishining mukammallik darajalari bo’yicha dekompozitsiyasini ko’rib chiqdik. Har qanday texnik tizim ma’lum bir xususiyatlarga ega bo’ladi. Shu xususiyatlarini loyihalash davrida ifodalash xarakteriga qarab ham texnik tizimni dekompozitsiyalash mumkin. texnik tizimni xususiyatlari bo’yicha dekompozitsiyalash uni tavsiflashning bir nechta aspektiga olib keladi. Ular orasidagi eng yiriklari funksional, konstruktorlik va texnologik aspektlaridir. Bu aspektlarga mos vazifalarni echish, mos ravishda texnik tizimni funksional, konstruktorlik va texnologik loyihalash deb ataladi.

Texnik tizimni funksional aspektda tavsiflashda uning funksional vazifasini

bajarishining asosiy printsiplari, ya’ni undagi fizik, hamda informasion jarayonlarning kechishlari namoyon qilinadi.



3.2-rasm. Yangi texnik tizimni loyihalash algoritmi sxemasi

Shunga mos ravishda texnik tizim funksional, strukturaviy, printsipial va kinematik sxemalarda ifodalanadi.

Funksional aspekt natijalaridan foydalanib *konstruktorlik aspektida* texnik tizimning geometrik shakli va uning fazoda joylashishi aniqlanadi.

Texnologik aspekt konstruktorlik aspekti natijalarini amalga oshirish uchun kerakli bo’lgan texnik tizimni yaratishning usul va vositalarini tavsiflab beradi.

Xuddi shunday tarzda loyihalash jarayoni strukturasini ham tahlil qilish mumkin. Vaqt bo’yicha rivojlanib boruvchi loyihalash jarayoni stadiyalarga, etaplarga, loyihalash proseduralariga va operasiyalarga ajraladi. Murakkab texnik tizimni loyihalashda quyidagi stadiyalardan o’tiladi: eskizli loyihalash, texnik loyihalash, ishchi loyihalash, sinash va joriy qilish.

Eskizli loyihalash stadiyasida, yaratiladigan texnik tizimni funksional maqsadga muvofiqligi, asosiy printsiplarining mukammalligi, uni ishlab chiqarish mumkinligi tekshirib ko’riladi va uning eskiz loyihasi yaratiladi.

Texnik loyihalash stadiyasida loyihaning barcha qismlari har tomonlama

qayta ishlab chiqiladi, texnik echimlar konkretlashtiriladi va detallashtiriladi.

Ishchi loyihalash stadiyasida texnik tizimni ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan barcha hujjatlar tayyorlanadi. Keyinchalik bu hujjatlar asosida texnik tizimning na'munaviy donasi yoki partiyasi ishlab chiqariladi va ular batafsil sinab ko'riladi. Sinash natijalari keyinchalik loyihaviy hujjatlarda korrektirovka qilinadi va tanlangan korxonada ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Loyihalash etapi loyihalash jarayonining bir qismi bo'lib, unda yuqorida ko'rilgan ierarxik sathlarga va aspektlarga mos keluvchi barcha kerakli tavsiflar va ularning echimlari tayyorlangan bo'ladi. Misol uchun komplekslarni loyihalash etapida shu kompleksni ishlab chiqarishga lozim bo'lgan barcha hujjatlar tayyorlangan bo'lishi kerak.

O'z navbatida loyihalash etapi loyihalash proseduralariga ajraladi. Loyihalash prosedurasi loyihalash etapining bir qismi bo'lib, u ma'lum bir loyihaviy echimni olish bilan amalga oshiriladi. Loyihalash jarayonining eng kichik qismi loyihalash operasiyasi deb ataladi, va u loyihalash prosedurasining tashkil etuvchisi hisoblanadi (6-rasm).



3.3-rasm. Loyihalash jarayoni strukturasiga doir

Loyihalash prosedurasiga misol sifatida buyum chizmasini tayyorlash, kuchaytirgich parametrlarini hisoblash, elektrodvigatel' yasashga kerak bo'ladigan namunaviy konstruktsiyani tanlash va h.k. keltirish mumkin. Loyihalash operasiyasiga misol sifatida esa namunaviy grafik tasvirlarni chizish (tishli uzatma, chizma ramkasi va h.k.), kuchaytirgich statik holatini ifodalovchi algebraik tenglamani echish, berilgan variantdagi elektrodvigatelning samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va h.k. keltirish mumkin.

Shunday qilib, loyihalash ob'ektlari sath va aspekt tushunchalari bo'yicha, loyihalash jarayonlari esa etap tushunchasi bo'yicha strukturaviy qismlarga ajratiladi, ya'ni dekompozitsiyalanadi.

MA’RUZA №4
Konstruktorlik chizmalarini avtomatik loyihalash tizimlari.

Loyiha ob’ektlari va jarayonlarini tavsiflash masalalari

1. “Tushish” yo’nalishidagi loyihalash
2. “Chiqish” yo’nalishida loyihalash
3. Interatsion usulda loyihalash
4. Loyiha obekti parametrlari
5. Loyiha obektining matematik model
6. Loyihalanadigan ob’ektga talablar.

Agar loyihalash jarayonida yuqori ierarxik sathdagi masalalar echimi pastki ierarxik sathdagi masalalar echimidan oldin bajarilsa, bunday loyihalash “tushish” yo’nalishidagi loyihalash deb ataladi. Aksincha, pastki sathdagi masalalar yuqori sathdagi masalardan oldin bajarilsa "chiqish" yo’nalishidagi loyihalash deyiladi. Bunday loyihalash turlari o’z afzallik va kamchiliklariga ega. "Tushish" yo’nalishidagi loyihalashda tizim o’zining elementlari hali aniq bo’lmagan sharoitlarda ishlab chiqiladi va ularning imkoniyat va xususiyatlari taxminiy xarakterga ega bo’ladi.

"Chiqish" yo’nalishidagi loyihalashda esa aksincha, elementlar tizimdan oldin loyihalandi va tizimni loyihalashda elementlar taxminiy xarakterga ega bo’lmaydi.

Ikkala usulda ham to’liq dastlabki informatsiyaning yo’qligi sababli potentsial mumkin bo’lgan optimal texnik natijalardan chetga chiqishlar ro’y beradi. Shu sababli, amalda loyihalashda ikkala usulning ketma-ketligi, takrorlanishidan foydalaniladi (interatsion usul). Misol uchun unifikatsiyalashtirilgan va andozalashtirilgan elementlar mavjud bo’lgan hollarda "chiqish" yo’nalishida loyihalash o’rinli bo’ladi. Shuning uchun loyihalash jarayonida unifikatsiyalashtirish va andozalashtirish ishlariga katta ahamiyat beriladi.

Endi loyihalash ob’ektlarining tavsiflash turlari va ular parametrlarining tasnifi masalalarini ko’rib chiqaylik.

Umuman olganda, loyihlash ob’ektining yakuniy tavsifi sifatida shu ob’ektni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo’lgan, konstruktorlik hujjatlar yagona tizimsi talablariga to’liq javob beradigan sxemalar, konstruktsiyalar va texnologik xujjatlarning to’la komplekti qo’llanadi. Yakuniy tavsif, ya’ni yakuniy loyihaviy echim, oraliq loyihaviy echimlardan tashkil topadi va ular ham albatta konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimsi talablariga mos tuziladi. Albatta ular yakuniy tavsiflarga bog’liq talablardir. Lekin loyihalash jarayoni ichiga nazar solsak har bir oraliq prosedura va echimlar o’zining spetsifik formalarida va tillarida bajariladi. Avtomatlashtirilgan loyihalash operasiyalari va proseduralarini bajarishda bunday tavsiflar asosida loyihalash ob’ektining matematik modellari yotadi. Sababi avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonining asosiy texnik vositasi elektron hisoblash mashinalari - faqatgina formallashtirilgan

matematik modellar asosida lozim operasiyalarni bajarishi mumkin. Matematik model deganda matematik ob'ektlar to'plami va ular o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi. Matematik modellar vositasida loyihalash obe'ektining asosiy xususiyatlari tavsiflanadi.

Tizimli yondashuvda matematik model turkumida ob'ekt xususiyatlari quyidagilarda ifodalanadi: tizim xususiyatlari, tizim elementlarining xususiyatlari va tashqi muhit xususiyatlari. Bu xususiyatlarning raqamli ifodalari parametrlar deb ataladi. Tizim, tizim elementlari va tashqi muhit xususiyatlarining sonli miqdorlarini mos ravishda ob'ektning chiqish, ichki va tashqi parametrlari deb ataymiz. Misol uchun porshenli kompressor uchun quyidagilarni keltirsa bo'ladi:

Chiqish parametrlari - kopressor unumdorligi, dvigatel' quvvati, maksimal bosim miqdori, sikllar soni, yonilg'i sarfi;

Ichki parametrlari - klapanlardagi havoga qarshilik koeffitsientlari, ishqalanish koeffitsienti, porshen sathining geometrik o'lchamlari.

Tashqi parametrlar - tashqi muhit temperaturasi, bosimi, chiqish tizimsining qarshiligi.

Chiqish, ichki va tashqi parametrlar sonlarini m,n,l lar bilan, bu parametrlar vektorlarini mos ravishda $Y=(y_1,y_2,\ldots,y_m)$, $X=(x_1,x_2,...,x_n)$, $Q=(q_1,q_2,\ldots,q_n)$ bilan belgilab, ular o'rtasidagi munosabatni quyidagicha ifodalasa bo'ladi. (7-rasm)



3.4-rasm. Loyiha ob'ekt modeliga doir

Rasmda ko'rsatilganidek tizim xususiyati uning tashqi va ichki parametrlariga bog'liq va bu bog'liqni quyidagicha yozsa bo'ladi:

$$U = F(X,Q) \qquad (3.1)$$

Keltirilgan munosabat loyihalash ob'ektining matematik modeliga misoli bo'la oladi. Bunday model yordamida ob'ektning chiqish parametrini X va Q vektorlar parametrlari orqali osongina aniqlasa bo'ladi. Lekin bunday modellarni faqat oddiy ob'ektlar uchun oson chiqarsa bo'ladi. Ko'pincha loyihalash ob'ektida sodir bo'ladigan jarayonlar quyidagi umumlashgan munosabat bilan ifodalanadi.

$$L\,v(z) = Q(z) \qquad (3.2)$$

Bunda L - jarayonga mos operator (integral, differensial...,); Z - mustaqil (ixtiyoriy) o'zgaruvchi parametr vektori (bu parametr umuman olganda o'z ichiga vaqtni va fazoviy koordinatlarni oladi); v(z) - mustaqil o'zgaruvchanlarga nisbatan berilgan funksiya. v - fazoviy o'zgaruvchilar vektori.

Ular loyihalash ob'ektini fizik va informasion holatini ifodalaydi.

Misol uchun Nyuton qonuninidagi ($mdv/dt = F$) tezlik v va kuch F fazoviy o'zgaruvchilar hisoblanadi.

Amalda texnik topshiriqlarda loyihalanadigan ob’ektga nisbatan ma’lum texnik talablar berilgan bo’ladi. Loyihalash jarayonida mana shu talablar har doim inobatga olib boriladi. Loyihalanadigan ob’ektga bo’lgan bir nechta talablar natijasini vektor formada birlashtirib TT = (TT_1,TT_2,…,TT_{g1}...,TT_{ch}) ni hosil qilish mumkin. Loyihalashda bunday talablardan asosiysi bo’lgan, loyihalanadigan ob’ekt xususiyatini ifodalovchi chiqish parametrlari TT_g ma’lum shartlar asosida taqqoslab borilishi kerak

$$Y_g < TT_g \qquad (3.3)$$

yoki

$$Y_g > TT_g \qquad (3.4)$$

ba’zida bu me’zon (chegara) ikki tomonli tengsizliklarda bo’lishi ham mumkun

$$TT_g < U_g < TT_g \qquad (3.5).$$

8,9,10 tengsizliklarning qo’llanilishi mumkin bo’lgan hollarga misollar:

8 ga elektron qurilmada quvvat tarqalishi, truboprovoddagi bosimning yo’qotilishi, dvigateldagi yonilg’i sarfi;

9 ga foydali ish koeffitsienti, dvigatel quvvati, kuchaytgirgich koeffitsienti;

10 ga optik tizimning fokus oralig’i, kuchaytgichning rezonans chastotasi.

Ko’rgazmali materiallar



1-гайка нажимная;2-крышка;3-патрубок;4-кольцо резиновое

МС 50







Savollar

1. «Tushish” yo’nalishidagi loyihalash
2. "Chiqish" yo’nalishida loyihalash
3. Interatsion usulda loyihalash
4. Unifikatsiyalashtirish
5. Andozalashtirish
6. Loyiha obekti parametrlari
7. Loyiha obekti modeli
8. Loyihalanadigan ob’ektga talablar.

5-MAVZU. Gometrik modellash tizimlari (Karkasli modellash, Yuzali modellash, Qattiq tanali modellash).

Reja:

1. AutoCAD dasturi haqida umumiy tushunchalar.
2. Dasturning ishlatilish sohalari va imkoniyatlari.
3. Chizma o'lchamlarda ishlash.

Tayanch so'zlar va ifodalar: CAD, chizma, 2D loyihalash, qatlam, boglanish, dastur, AutoCAD.

CAD tizimsi, chizma parametrlari, CAD tizimi chaqirish funiksiyalari, o‘lcham birliklari, chizma o‘lchamlari, qatlam, tur, bog‘lash, chizmaning bazaviy funksiyalari, yordamchi funksiyalar, ilovalar, makrodasturlash, chizma fayllarining o‘zaro muvofiqligi

Loyihalash jarayonini ishlab chiquvchining g‘oyasi rivojlanib borishi bo‘yicha shakllarni asta-sekin detallashtirib borish sifatida qarash mumkin. Kompyuterli loyihalash tizimlarining dastur ta'minoti bu jarayonni yengillashtiruvchi oddiy vositalardan biridir. CAD dasturlari ikki guruhga bo‘linishi mumkin. Chizmalarni avmomatlashtirilgan ishlab chiqish tizimlari loyihalovchiga o‘zining g‘oyalarini ikki o‘lchamli fazoda amalga oshirishda yordam beradi. Geometrik modelash tizimlari esa shakllar bilan uch o‘lchamli fazoda ishlash imkonini beradi.

Chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimsi dastur mahsuloti bo‘lib, ishlab chiquvchiga interaktiv rejimda har xil chizmalarni yaratish va o‘zgartirish imkonini beradi. Bundan tashqari bu tizim ma'lumotlar bazasini tayyor chizmalar va ulardagi o‘zgartirishlarni saqlash bilan yangilab-to‘ldirib borish imkonini ham beradi. Shunday qilib chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimlaridan foydalanish matnli prosessorlardan foydalanishga o‘xshash bo‘lib, faqat chiqishda matnli emas chizma hujjati olinadi. Matnli proessordagi kabi chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimsida ham mavjud chizmalar asosida ularni o‘zgartirish natijasida yangi chizmalarni tez tayyorlash mumkin. Mutlaqo yangi chizma hujjatlarini tayyorlashda chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimlari yaqqol afzalliklarga ega emas, lekin mavjud chizmalarni o‘zgartirish va ular asosida yangi chizma hujjatlarini ishlab chiqishda yaqqol qulaylik va afzalliklarga ega.

Har bir tizimning chizmalar ustida ishlashda chaqirish funiksiyalari o‘zgacha bo‘lishi bo‘lishi mumkin, zaruriyati bo‘lganda mos tizimlarining qo‘llanmalariga murojat qilish mumkin, lekin ko‘pgina chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimlarida turdosh funksiyalar qo‘llanadi. Bu yerda asosan shular haqida to‘xtalamiz.

Chizma parametrlarini sozlash

Chizmalarni avtomatlashirgan ishlab chiqish tizimlarida ishlashni chizma parametrlarini o‘rnatishdan boshlash kerak, bunday parametrlarga o‘lcham birligi, chizma o‘lchamlari, to‘r va qatlam parametrlari kabilar kiradi. Chizmani tez va

aniq qurish uchun bunday parametrlarning barchasi to‘g‘ri qiymatga ega bo‘lishi kerak. Chizmani tur va qatlamsiz qurish mumkin, lekin unga ko‘p vaqt talab etiladi va tayyor chizmani o‘zgartirish juda qiyin bo‘ladi.

O‘lcham birliklari. Foydalanuvchi chizma formatini, masofa va burchak o‘lchamlari birligini aniq tanlashi kerak. O‘lcham birliklari (masofa) ilmiy, o‘nlik, kasr, injenerlik va qurilish formatlarida ifodalanishi mumkin. Burchaklarning o‘lcham birliklari bu graduslar, minutlar, sekundlar, gradlar, radianlar va geodezik birliklar. Odatda tizim o‘lcham birliklarni tanlash uchun dialog darchasini taklif qiladi, unda kerakli qiymatlarni ko‘rsatish kifoya. Masalan, AvtoSAD tizimida



7.1-rasm. AtoCAD tizimida o‘lcham birliklarini o‘rnatish muloqat darchasi

Chizma o‘lchamlari. Qog‘ozda chizma chizishda varoqdan chetga chiqish mumkin emas. Xuddi shunday grafik qurilma bilan ishlashda ham chizma ma'lum chegaralarga ega bo‘lishi kerak, chunki tayyorlangan chizma qachondir qog‘ozda chiqarilishi kerak. Demak foydalanuvchi chizma o‘lchamlarini oldindan o‘rnatishi kerak. Bu operasiyani AvtoCAD da bajarilish ketma-ketligi quyida keltirilgan.

Commond: limites

Reset - Model Space limites

ON/OFF/ <Lower left corner> <0.00.0.00>:10.10

Upper right corner <12.00.9.00>:300.200

Chizma chegarasini o‘rnatishda quyidagilarni inobatga olish kerak:

- chizman haqiqiy o‘lchamlari;
- o‘lchamlar, ilova, materiallar ruyxati va boshqa zaruriy ma'lumotlarni kiritish uchun joy;
- har xil ko‘rinishlar orasidagi masofalar;
- ramka va mavzular uchun joy (zarur holatlarda).

Chizishdan oldin zarur bo‘ladigan maydonni, chizma o‘lchamlarini baholash uchun uning eskizini qurish tavsiya etiladi. Masalan, biror ob'ektning oldidan ko‘rinish o‘lchamlari 6x5 birlikka, yonidan ko‘rinish o‘lchamlari 4x5 birlikka va yuqoridan ko‘rinish o‘lchamlari 6x4 birlik o‘lchamlariga ega bo‘lsa, chegaralar shunday o‘rnatilishi kerakki, bunda barcha chizmalar va ularga ta'luqli ma'lumotlar joylashishi kerak. Aytaylik oldidan va yonidan ko‘rinishlar orasidagi masofa 4

birlikka, oldidan va yuqoridan ko‘rinishlar orasidagi masofa 3 birlikka teng bo‘lishini xohlaysiz. Chizmaning chegarasigacha bo‘lgan masofa chapdan 4 birlikka, o‘ngdan 4 birlikka, yuqoridan 2 birlikka va pastdan 2 birlikka ega bo‘lsin (26-rasm). Ko‘rsatilgan qiymatlar shunday tanlanadiki tayyor chizma ***gormonichno*** ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak.

O‘zimiz uchun ko‘rinishlar o‘lchami va ular orasidagi masofalarni va chizma chegarasigacha va chizma chegarasida qog‘oz chegarasigacha bo‘lgan masofalarni o‘rnatib, chizma o‘lchamlarini quyidagicha hisoblash mumkin.

Gorizontal bo‘yicha o‘lcham =1+4+6+4+4+4+1=24

Vertikal bo‘yicha o‘lcham =1+2+5+3+4+2+1=18

Shunday qilib chizma o‘lchami 18x24 birlikni tashkil etadi. Bu yerda chizma chegarasidan qog‘oz chegarasigacha bo‘lgan masofani bir birlikka teng deb qabul qildik.



7.2-rasm. Chizma o’lcfmlarini berish

26-rasmdagi chizma 1:1 masshtabda bajarilgan. Biroq chizmaning qattiq nusxasini olish jarayonida qog‘ozning o‘lchamidan bog‘liq ravishda masshtabni kattalashtirish yoki kichiklashtirish mumkin. Umuman olganda, qog‘oz o‘lchamini chizma chegarasi, shrift o‘lchami, chizma masshtabi chiziqlar qalinligi masshtabi va boshqa parametrlar belgilaydi. Qog‘ozlarning standart o‘lchamlari va ularga mos chizma chegaralari har xil masshtablarda (metrik birliklar tizimsida) formatlar AO, A1, A2, A3, A4, A5 bilan beriladi.

Размер бумаги	Размер листа	Границы чертежа (M1:1)	Границы чертежа (M1:5)	Границы чертежа (M5:1)
A4	210×297	210, 297	1050, 1485	42, 59,4
A3	297×420	297, 420	1485, 2100	59,4, 84
A2	420×594	420, 594	2100, 2970	84, 118,8
A1	594×841	594, 841	2970, 4205	118,8, 168,2
A0	841×1189	841, 1189	4205, 5945	168,2, 237,8

Qatlam. Murakkab chizmalarni chizishda chizmani qatlamlarga bo‘lish katta qulayliklar beradi. Buning uchun qatlamlararo qayta ulanib chizmalarni ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘lishi kerak. Bu narsa har xil qatlam elementlarini bir-biriga nisbatan joylashishi haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi. Qatlamlarga bo‘lish ularni bir-biri ustiga qo‘yish imkonini beradi, va bajariladigan grafik operasiyalar chizmalarni murakkabligini pasaytirish imkonini beradi. Olingan momentda ishlayotgan qatlam aktiv, qolgan qatlamlar passiv holatda bo‘ladi. Har qanday fon kabi passiv qatlam, grafik operasiyalar (tanlash, uchirish va h.k) ni sezmaydigan bo‘ladi. Qatlamli chizmalarni tayyorlashning qulayligi, har bir qatlamdagi konstruksiyaning alohida detallarini mustaqil qurish imkonini beradi. Agar yig‘ma chizmaning har bir detalini alohida qatlamda chizilsa kerakli qatlamni aktiv qilib alohida detallarning tayyor chizmalarini olish imkoni mavjud bo‘ladi. 3 rasmda AvtoCAD tizimsida qatlamlarni boshqarish dialog darchasi **27-rasm**da ko‘rsatilgan.



7.3-rasm. AtoCAD sistemasida qatlamlarni boshqarish darchasi

Tur va bog‘lash. Chizmalarni chizishda yordamchi chiziqlardan foydalanish keng qo‘llaniladi. Bunday yordamchi chiziqlar chizma chiziqlarini qurishni osonlashtirib, ularni aniqroq bo‘lishini ta'minlaydi.

Chizmalarni avtomatlashtirilgan ishlab chiqish tizimlarida tur chiziqlari xuddi shunday yordamchi chiziqlar vazifasini o‘tab beradi. Turning gorizontal va vertikal chiziqlari bir-biridan bir xil masofada berilgan o‘lchamda chiziladi, chizma chiziqlari ularning ustidan chiziladi. Ba'zi tizimlarda turning kesishish joyidagi nuqtalar bilan ham berilgan bo‘lishi mumkin.

Tur chiziqlari ustidan to‘g‘ri chiziqlarni o‘tkazish uchun uning ikki uchidagi nuqtalar holatini berish kerak. Ularning koordinatalarini klaviaturadan kiritish yoki sichqon harakatini kuzatuvchi kursorni kerakli holatga o‘rnatib tugmachani bosish bilan ham kiritish mumkin. Buning uchun kursor “lokator” rejimida turgan bo‘lishi kerak. Ikkinchi usulda ko‘rsatilgan nuqta holati, qo‘lning qaltirashi yoki sichqon mexanizmidagi xatolik tufayli noaniq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday hollarda kursorni tur chiziqlarining eng yaqin kesishish nuqtasiga bog‘lashni qo‘shish bilan hal qilish mumkin. Sichqon tugmasini bosishda kompyuter bu kesishish nuqtasining aniq koordinatalarini qabul qiladi. Koordinatalarni berish aniqligi turning qadami orasidagi masofa bilan aniqlanadi. Bu qadam esa foydalanuvchining hohishi bo‘yicha sozlanishi mumkin. Bu funksiya “bog‘lash” (Sharrinq) deb ataladi. AutoSAD da turni qo‘shish komandasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Commond: grid

Grid spacing (X) or ON/OFF/ Snap/Aspect <0>: 0.75/To’r chiziqlari orasidagi masofa ekran birligining 0.75 iga teng qilib o‘rnatiladi/.

Chizmaning bazaviy funksiyalari

To‘g‘ri chiziq. SAD tizimlarda kesmalarni chizishning bir qancha usullari mavjud. Eng keng tarqalgan usuli ikki uchidagi nuqtalar bo‘yicha qurish hisoblanadi. Nuqtalar holati har xil usullar bilan berilgan bo‘lishi mumkin: Masalan, koordinatalarni klaviaturadan kiritish, sichqon tugmachasini lokator rejimida bosish bilan. Bundan tashqari ekranda mavjud nuqtani tanlab ikkinchi nuqtani ko‘rsatish bilan ham amalga oshirish mumkin. Kesmani ikkala uchini ham aniq ko‘rsatmagan holda ham ko‘rish mumkin. Bunday usullardan bittasi tizimdan berilgan nuqtadan mavjud egri chiziqqa o‘rinma o‘tkazishni so‘rash hisoblanadi. Bunday holda bitta nuqta aniq ko‘rsatiladi. Ikkinchi nuqtani tizim mustaqil aniqlaydi. AvtoCAD da kesmani qurish quyidagi trtibda amalga oshiriladi:

Commond: line

From point: 1.1

To point: 5. 2

To noint: return



7.4-rasm. Chiziqlarning har xil turlari

Aylana va aylana yoyi. Aylanani qurishning eng oddiy usuli markazni va radius uzunligini ko‘rsatish. Boshqa usuli aylanada yotadigan uchta nuqtani ko‘rsatish. Ko‘pgina CAD tizimlari aylanani qurishning boshqa bir nechta usullarini berishi ham mumkin. Masalan, tizim aylanani ikkita to‘g‘ri chiziqqa urinma bo‘yicha yoki to‘g‘ri chiziq va boshqa aylanaga urinma bo‘yicha qurish mumkin. Barcha hollarda ham mos ob'ektlarni tanlash kerak bo‘ladi. Aylana yoyi aylananing xususiy holati hisoblanadi va u boshlanish va tugash nuqtalarini berish bilan aniqlanadi. Auto CAD da aylana quyidagicha qo‘riladi.

Commond: sircle

3P/2P/ TTR/ <Center point>: 5. 5

Diameter/ < Radius > <current>: 3

Aylana yoyi berilgan uchta nuqta bo‘yicha quyidagicha quriladi.

Commond: arc

Center/<Start point >: 7. 4

Center/ End/ <Second point>: 6. 5

End point: 6. 3

Splayn. Ixtiyoriy egri chiziqlarni qurishda splaynlardan foydalaniladi, ular qo‘lda chizishdagi lekalalardan foydalanishga o‘xshaydi. Foydalanuvchi egri chiziqdagi nuqtalarni ko‘rsatadi, tizim bu nuqtalardan o‘tadigan interpolyasion egri chiziqlarni quradi. Olinadigan egri chiziq odatda uchinchi tartibdagi tenglamalardan iborat bo‘ladi. Ba'zi hollarda egri chiziqlar ularni aniqlovchi, lekin ularda yotishi kerak bo‘lmagan beruvchi nuqtalar bo‘yicha ham qurilishi mumkin. Beruvchi nuqtalar haqida alohida to‘xtalish talab etiladi.

Uchirish. Uchirish funksiyasi qog‘ozda chizishdagi uchirgich kabi ishlaydi. Buning uchun grafik elementlar nuqta, to‘g‘ri chiziq, egri chiziqlarni tanlash kerak, tanlangan elementlar ekrandan yuqoladi. Tanlash 3 bobda keltirilgan.

Aylanaliklar va faskalar ochish. Aylanaliklar *(filleting, rounding)* kesishuvchi ikki kesmalar orasida aylana yoyini qurishdan iborat bo‘lib, qurilgan yoy ikkala kesmaga ham urinma bo‘lishi kerak.

Aylanaliklarni qurishda qavariq burchaklar uchun (*filleting*) va botiq burchaklar uchun (*rounding*) foydalaniladi.

Faskalar ochish (*chamfering*) taxminan qavariq burchak aylanaliklarini ochishga o‘xshash, faqat yoy o‘rniga bu yerda to‘g‘ri chiziq kesmasi quriladi.

1. Aylanalik radiusi yoki faska o‘lchami ko‘rsatiladi.

2. Ikkita kesishuvchi kesma tanlanadi.Aylanalik yoki faska kesishish nuqtasi oldida quriladi.

3. Kesmaning aylanalik yoki faska qurilgandan keyin keraksiz qismlari uchirib tashlanadi. Ba'zi tizimlarda avtomatik bajariladi, boshqalarida qo‘lda uchirishga to‘g‘ri keladi.

AvtoCAD da aylanalik quyidagicha bajariladi:

Commond: fillet

(TRIM mode) Current fillet radius - 10.00

Polyline/Radius/Trim/<Select first object>: r

Enter fillet radius<current>: 3
(TRIM mode) Current fillet radius- = 3.00
Commond: tillet
Polylind/Radius/Trim/<Select first object>:/Birinchi kesma tanlanadi./
Select second line: /ikkinchi nuqta tanlandi./



7.5-rasm. Aylanaliklar va faska

Shtrixlash. Shtrixlash deb ma'lum bir yopiq ko‘p burchakni shablon bilan to‘ldirishga aytiladi. Shtrixlash mashinasozlik chizmalarida kesimlarni belgilash uchun foydalaniladi. Arxitekturada har xil materiallarni ajratib ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Ko‘pgina CAD tizimlari taklif qiladigan turdosh shablonlar 30-rasmda ko‘rsatilgan.



7.6-rasm. Shtrixlash na'munalari

Shtrixlash yopiq konturni ko‘rsatishdan boshlanadi. Bu operasiya har xil amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi tizimlarda ko‘pburchakni tashkil etuvchi barcha kesmalarni ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Boshqa sistemlarda bitta kesmani ko‘rsatish kifoya. Qolganlarini tizimning o‘zi topadi. Agar ko‘pburchakning ichida shtrixlanmaydigan uchastkalar mavjud bo‘lsa, ularni ham ko‘rsatish talab etiladi. Shtrixlash CAD tizimlarining mahsuldorligini oshirishni ta'minlaydigan funksiyalaridan biri hisoblanadi. 31-rasmda kesimi shtrixlangan elementli chizma ko‘rsatilgan.

Annotatsiyalash funksiyalari

O‘lchamlar quyish. O‘lchamlarni quyish imkoniyati CAD tizimlarining eng ajoyib xususiyatlaridan hisoblanadi. Qo‘lda o‘lchamlarni bunday tezlik bilan quyish umuman mumkin emas. CAD tizimlarida o‘lchamlarni quyish quyidagicha amalga oshiriladi. Gorizontal yoki vertikal o‘lchamni ko‘rsatish uchun ikkita grafik elementni, odatda nuqtani va o‘lcham chizig‘ining holatini ko‘rsatish kifoya. Nuqtalar orasidagi masofa chizma bo‘yicha avtomatik aniqlanadi. Strelkalar, o‘lcham chiziqlari, chiqazish chiziqlari va o‘lcham qiymatlari tizim tomonidan mustaqil quyiladi. Agar ob'ektlar gorizontal yoki vertikal emas qandaydir

boshqacha joylashgan bo‘lsa, tizim qanday o‘lchamni (gorizontal, vertikal, real) quyish kerakligini aniqlashtirishni so‘raydi.

Radiuslar va diametrlarning o‘lchamlari aylana yoki yoyni tanlash va o‘lcham chiziqlarining holatini ko‘rsatish bilan quyiladi. Burchak o‘lchamlari ham xuddi shunday quyiladi: ikkita kesmani



7.7-rasm. O‘lchamlari quyilgan, shtrixovkalangan va ilovalar berilgan chizma

duch keladi. Olingan bitta chizmada o‘lchamlarni quyishning ko‘plab usullari mavjud. Umuman aytganda loyihalovchi chizmada tasvirlangan tanlash va o‘lcham matnini holatini ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Har bir tizimda tanlash tartibi haqida o‘zining maxsus ko‘rsatmalari bo‘lishi mumkin, shuning uchun foydalanuvchi qo‘llanmasiga murojat qilishga to‘g‘ri keladi. O‘lchamlari quyilgan chizma 32-rasmda ko‘rsatilgan.

Bu yerda, agar chizma ob'ektning barcha o‘lchamlari va holati haqidagi barcha ma'lumotlarni o‘zida aks ettirsa interaktiv rejimda o‘lchamlarni quyishning nima kerakligi bor degan savol to‘g‘ilishi mumkin, biroq amalda ishlab chiquvchilar quyidagi muammolarga
detallarni ishlab chiqarish usullarini, nazorat qilish va yig‘ishni inobatga olishi kerak. Shuning uchun o‘lchamlarni quyib chiqishda u asosan o‘zining tajribasiga asoslanib tanlashni amalga oshiradi. Loyihalovchining tajribasini kompyuterda aks ettirish juda qiyin. Bundan tashqari birorta to‘liq va keraksiz o‘lchamlarni quyib tashlashga olib kelmaydigan o‘lchamlarni quyish sxemasini topish oson emas. Hozirgi vaqtda bu masalaning yechimini topish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ilovalar. Chizmaga ilovalar quyish uchun, ya'ni matnli qator qo‘shish uchun bu qatorning joylashishini va orientatsiyasini hamda belgilar shrifti va o‘lchamni berish kerak. Oxrigi uchta parametr “umolchanie” bo‘yicha ba'zi qiymatlarga ega, ular foydalanuvchi tomonidan hyech qanday konkret qiymatlar ko‘rsatilmaganda foydalaniladi. Ilovalarni AvtoCAD da MTEXT komandasi yordamida amalga oshiriladi:

Commond: text
Justify/Style/<start point>: 2.1
Heigtt<0.20>: 0.25
Rotation angel<0>
Text: MTEXT

Yodamchi funksiyalar

Nusxa ko‘chirish. Nusxa ko‘chirish funksiyasi xuddi matn prosessoridagi kabi “virezat” va “vstavit’” operasiyasidek ishlaydi. Grafik elementlar to‘plami ajratib ko‘rsatilib, buferda saqlanib shu hujjatning yoki ixtiyoriy boshqa hujjatning ixtiyoriy joyida quyilishi mumkin. Grafik elementlarni tanlash ularni kerakli o‘lchamdagi to‘g‘ri burchakka olish bilan amalga oshiriladi. To‘g‘ri burchak ekranda ko‘rish darchasini berish kabi chiziladi. To‘g‘ri burchak chegaralari bilan kesishuchi grafik elementlar foydalanuvchining xohishi bo‘yicha nusxa kuchirilayotgan to‘plamga kiritilishi mumkin. Tanlangan ob'ekt quyilishi kerak bo‘lgan nuqtaga kursor bilan o‘rnatiladi. Nusxa ko‘chirish detal chizmasida takrorlanuvchi ob'ektlar bo‘lganda katta qulaylik yaratadi. Nusxa ko‘chirish detal chizmalarini ishlab chiqishda ham foydali, chunki qurilma chizmasini bir qismini to‘liq ko‘chirib olib,
so‘ngra olingan chizmani aniqlashtirish mumkin. Nusxa ko‘chirishning xususiy holati oynaviy ifodalash hisoblanadi. Oynaviy ifodalash funksiyasi bir yoki bir

nechta simmetriya o‘qiga ega bo‘lgan ob'ektlarni qurishda foydali. Ko‘pgina CAD tizimlarida takrorlanuvchi ob'ektlarni tartibli joylashtirish imkonini beradigan qo‘shimcha funksiyalar ham mavjud. Masalan, ba'zi tizimlar bitta bolt kallagini chizganingizdan so‘ng uni aylana bo‘yicha ma'lum qadam bilan joylashtirib chizib berishi mumkin. AvtoCAD da nusxa ko‘chirish funksiyasi quyidagicha chaqiriladi:

Commond: copy

Select object:/ Grafik elemetlar to‘plami tanlandi./

<Base point or displacement:>/Multiple:/Birinchi nuqta ko‘rsatdi./

<Second pointjf displacement:>/Siljitish vektorining ikkinchi nuqtasi ko‘rsatiladi./

Darcha. Ba'zida murakkab chizmalar bilan ishlashda uning ma'lum bir qismini kattalashtirish talab etiladi. Ko‘p holatlarda kerakli grafik element boshqa birikmalar bilan qo‘shilib ketgan bo‘lsa uni tanlash qiyin bo‘ladi. Bu masalani chizmaning bizni qiziqtirayotgan elementi joylashgan qismini kattalashtirish bilan hal qilish mumkin. Kichik darchani xuddi shunday o‘lchamdagi ko‘rish darchasida ifodalashdan foydalanish grafik elementlarning parametrlarini qiymatlarini o‘zgartirmasdan kattalashtirish imkonini beradi. Darcha xuddi nusxa ko‘chirishdagi kabi uning diogonalidagi ikkita oxirgi nuqtalarni ko‘rsatish bilan aniqlandi. AvtoCAD da darcha quyidagi komanda bilan o‘zgartiriladi:

Commond: zoom

All/Center/ Dynamic/Extents/Left/Previous/Vmax/Window/<Scale(X/Xp)>: w

First corner:/Diagonalning birinchi nutasi ko‘rsatiladi./

Second corner:/Diogonalning ikkinchi nuqtasi ko‘satiladi./

Belgilar. Ko‘p foydalaniladigan figuralar belgilar shaklida saqlanib, keyin chizmaning ixtiyoriy joyida quyish uchun kerakli momentda xotiradan chiqarilishi mumkin. Masalan, boltlar va gaykalar hamda yuza g‘adir-budirligi va joizlik chegarasini belgilashlar kabi standart komponentlar shakllari belgi ko‘rinishida saqlansa mashinasozlik chizmalarini yaratish ancha soddalashadi, chunki ular ixtiyoriy momentda chiqarilishi va qurilishi mumkin. Belgilar bilan ishlash funksiyalari xuddi nusxa ko‘chirish funksiyasi kabi amalga oshiriladi. AvtoCAD da belgilar quyidagicha chiziladi:

Command: block

Block name (or?): /saqlangan belgi nomi. /

Elektr sxemalar hamda arxitektura va mashinasozlik chizmalarida ko‘p foydalaniladigan tipaviy belgilar 33-rasmda ko‘rsatilgan.



7.8-rasm. Chizmalarida ko‘p foydalaniladigan tipaviy belgilar

Makrodasturlash. Makroslarni dasturlash yoki makrodasturlash grafik komandalar to‘plamini bitta nomga birlashtirishdan iborat. Agar grafik komandalar dasturda birlashtirilsa u makrodastur (makro program) deb ataladi. Unga odatdagi kompyuter tillaridan ba'zi shartli va arifmetik operatorlar qo‘shilishi mumkin. Grafik komandalarning kirish parametrlari o‘zgaruvchilar sifatida aniqlanishi mumkin, bu esa makrodasturga har xil qiymatlar berish va har xil chizmalar olish imkonini beradi. Bunday turdagi makrodastur parametrik dastur (parametrik program) deb ataladi, chunki u quradigan chizma mos parametrlarga beriladigan qiymatlardan bog‘liq bo‘ladi. Parametrik dasturga yaxshi misol sifatida vint chizmalarini avtomatik qurish dasturini ko‘rsatish mumkin. Bunda foydalanuvchi yuk xarakteristikalarini kiritadi, dastur bu xarakteristikalar bo‘yicha vint o‘lchamlarini hisoblaydi va hisoblangan o‘lchamlar bo‘yicha vint chizmasini quradi. Bunday parametrik dasturga vint o‘lchamini hisoblashni ta'minlaydigan arifmetik operatorlar hamda vint chizmasini quradigan grafik komandalar kiradi. Makrodasturlash juda muhim, chunki kommersion CAD tizimlarini konkret ilovalarga moslash imkoniyatini beradi. Kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan parametrik dasturlar xilma-xilligi amalda unda mavjud bo‘lgan CAD tizimlaridan foydalanish CAMaradorligini belgilab beruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

O‘lchash. O‘lchash funksiyasi tayyor yoki qurilayotgan chizma bo‘yicha hisoblashlarni bajarish imkonini beradi. Tizim ixtiyoriy soha maydonini, ikki kesma orasidagi minimal masofani aniqlash imkonini beradi. Bu funksiya chizmani qurish va loyihalash bir vaqtda bajarilayotganda juda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, loyihalovchi olingan konstruksiyani issiqlik uzatish maydoni talablariga muvofiqligini tekshirib ko‘rish mumkin. AvtoCAD da o‘lchash quyidagicha amalga oshiriladi:

Command: dist

First point: /Birinchi nuqta tanlanadi./

Second point: /Ikkinchi nuqta tanlanadi./

Distance = <Hisoblangan masofa>
Angel in XY plane = <XY tekisligidagi burchak>
Angel from XY plane = <XY tekisligiga burchak>
Delta X = < X Bo‘yicha farq>. Delta Y = < Y Bo‘yicha farq>. Delta Z = < Z Bo‘yicha farq.>

Qo‘shimcha funksiyalar. Yuqorida ko‘rib utilgan funksiyalardan tashqari ma'lumotlar bazasida chizmalarni yangilash, ma'lumotlar bazasidan chizmalarni olish va materiallar ruyxatini tuzish kabi yordamchi funksiyalar ham mavjud.

Chizma fayllarining o‘zaro muvofiqligi

CAD tizimlarining asosiy afzalliklaridan biri chizmalarni ma'lumotlar bazasida saqlash imkoniyatidir. Ma'lumotlar bazasidagi chizmani har xil bo‘limlarning xodimlari olishi mumkin. Agar barcha xodimlar bir xil CAD tizimsida ishlashsa bunday afzallikdan oson foydalanishlari mumkin, chunki boshqa xodimlar bajargan fayllarni o‘qishda hyech qanday muammo bo‘lmaydi. Biroq kompaniyaning har xil bo‘limlari bir-birini o‘qiy olmaydigan har xil tizimlarda ishlashsa bunday afzallik osongina yo‘qqa chiqadi. Har xil ishlab chiqaruvchilarning tizimlari haqida aytganda muammo yanada jiddiyroq ko‘rinish olishi mumkin. Bunday holatlarda o‘zaro munosabatning yagona usuli chizmani qog‘ozda qurish va uni mexanik tasvirlash bo‘lib qoladi. Bunday muammolarga duch kelmaslik uchun barsha CAD tizimlarini ishlab chiqaruvchilardan fayllarni standart formatlarda saqlashni talab qilish kerak bo‘ladi. Hozirgi vaqtda eng ommabop standart format Initial Graphics Exhange Specification (IGES) hisoblanadi. Amalda barcha kommersion CAD tizimlar IGES formatida ishlashni ta'minlaydi. Natijada, bitta tizimda yaratilgan fayllar boshqa tizimga o‘tkazilishi mumkin. Biroq ba'zi belglar uchun konkret o‘tkazish muammosi hal qilinmagan. IGES dan tashqari AvtoCAD ning chizmalar formati DXF ham mavjud, u AvtoCAD ning ommabopligi tufayli “standart de-fakto” ga aylanib bormoqda.

Ko’rgazmali materiallar





Savollar

1. Chizma parametrlarini sozlash qanday parametrlar sozlanadi.
2. Chizmaning bazaviy funksiyalariga qanday funksiyalar kiradi va ularning vazifasi nimadan iborat.
3. Annotatsiyalash funksiyalari qanday funksiyalar kiradi va ularning vazifasi nimadan iborat.
4. Yodamchi funksiyalar qanday funksiyalar kiradi va ularning vazifasi nimadan iborat.
5. Chizma fayllarining o‘zaro muvofiqligi deganda nima tushiniladi.

MA’RUZA №6
CAM TIZIMLARI. LOYIHALASH JARAYONLARINI OPTIMALLASH MASALALARI VA OPTIMALLASHTIRISH USULLARI.
Ma’ruza rejasi:

1. Optimal echim qabul qilishda modellashtirishning o’rni.
2. Optimal echim qabul qilish bosqichlari.
3. Optimmallash masalasining umumiy ko’rinishds quyilishi.

Tayanch so’zlar va ifodalar:

Matematik model, algoritm, funksional model, parametr optimallash mezoni, maqsadli funksiya “chegara", "chegaraviy funksiya

Hozirgi zamon TS, agar ularga ekspluatatsiya qilinishi nuqtai-nazaridan qaraydagan bo’lsak, asosan murakkab turkumli dinamik tizimlarni tashkil qiladi. Ularni analiz yoki sintez qilish hozirgi paytda kompyuter yordamida samarali bajarilmoqda. O’z navbatida kompyuterning qo’llanilishi texnik tizimni loyihalash jarayoniga bir qancha o’zgartirishlar kiritishni talab qiladi.

Ma’lumki, har qanday texnik tizim yoki texnologik jarayon struktura jihatidan ko’p variantli tizimlar bo’lib, ularni loyihalashda asosiy vazifa shu ko’p varianli tizimlarning eng samaralisini tanlashdan yoki yaratishdan iboratdir. Ya’ni berilgan sharoitlarda loyihalanadigan tizimning optimal variantini tanlashdan iboratdar. Loyihalash jarayonida optimal echim qabul qilishni kompyuter yordamida bajarishning asosiy bosqichlari 13-rasmda keltirilgan.



4.1-rasm. Optimal echim qabul qilish bosqichlari

Rasmdan ko’rinib turibdiki, har qanday masalaning optimal echimini kompyuter yordamida aniqlash uchun birinchi navbatda ko’rilayotgan masalaning mashinaga mos modelini ishlab chiqish lozim bo’ladi.

Model nima? Murakkab texnik tizimni analiz yoki sintez qilishda ularning o’zidan emas, balki ularning xususiyatlarini ma’lum aniqlikda aks ettiruvchi boshqa qulayroq ob’ektlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday hollarda asosiy tizim original, uning xususiyatlarini aks ettiruvchi ob’ekt esa model deb ataladi. Keng ma’noda model biror ob’ekt yoki jarayonning obrazi yoki

namunasi demakdir. Originaldan modelga o’tish jarayonida bajariladigan ishlar modellashtirish deyiladi.

Texnika sohasida fizik hamda matematik modellashtirish printsiplaridan kengroq foydalaniladi.

kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan loyihalashda ob’ekt yoki jarayonlarning matematik modellaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Matematik modellashtirish ob’ekt va jarayonlarning xilma-xilligiga qaramasdan ularni ko’pincha bir xil turdagi algebraik, differensial yoki integro-differensial tenglamalar bilan tavsiflashga asoslangan. Misol tariqasida elementar fizikadan olingan quyidagi munosabatlarni olaylik:

1. Qattiq jismning harakat tenglamasi mdv/dt=F (bunda m-massa, v-tezlik, F-kuch) differensial tenglamada ifodalanadi;

2. Shu jismning aylanma harakati Jdw/dt=M (bunda J-inertsiya momenti, w-burchak, M-moment) differensial tenglamada ifodalanadi;

Z. Idishdagi suyuqlik sathining o’zgarishi Sdh/dt=Q (bunda S-yuza, h-sath, Q-sarf) differensial tenglamada ifodalanadi;

4. Invduktiv elementli o’zgaruvchan tok zanjiri Ldi/dt=U (bunda L-induktivlik, i-tok kuchi, U-kuchlanish) differensial tenglamada ifodalanadi.

Agar yuqoridagi F, M, Q va U larni X bilan, v, w, h va i larni U bilan, m^{-1}, j^{-1}, s^{-1} va i^{-1} larni K bilan belgilasak, yuqoridagi barcha hollar uchun quyidagi umumlashtirilgan xususiyatga ega bo’lgan matematik modelini hosil qilamiz:

$$dU / dt = KX \qquad (4.1)$$

Demak, ko’rib chiqilgan 4 xil ob’ektning barchasi o’zgarmas koeffitsientli 1-tartibli differensial tenglama ko’rinishidagi modelda ifodalanilar ekan.

Funksional model (12) ning tahlili maqsadga erishish uchun oldindan qo’yilgan optimallash mezonlari

$$J = K (U, F) \max (\min) \qquad (4.2)$$

Parametr va resurslarga qo’yilgan chegara va cheklashlar orqali bajariladi

$$U \varepsilon \Delta_y; \; X \varepsilon \Delta_x;$$
$$Q \varepsilon \Delta_q; \; t \varepsilon \Delta_t; \qquad (4.3)$$

bunda Δ_y, Δ_x, Δ_q, Δ_t parametrlarning ro’xsat etilgan oblastlari.

13 ko’rinishdagi optimallik mezonlari ko’pincha maqsadli funksiyalar deb ham ataladi.

Yuqorida aytib o’tilgan "parametr", "maqsadli funksiya", "chegara" va "chegaraviy funksiya" atamalarning ma’nosini tushunib olish uchun misol tariqasida turar joy devorlarining harorat izolyatsiyasi masalasini ko’rib chiqamiz.

Aytaylik bizga izolyatsiya materialining qalinligi haqidagi loyihaviy echim qabul qilish kerak bo’lsin.

Maqsad oz pul sarflab harorat izolyatsiyasini kuchaytirish bo’lganligi

sababli loyihalovchi umumiy xarajatning minimum bo'lishiga intiladi. Bu masalada ikki xil xarajat mavjud: isitish yonilg'isi va izolyatsiya materiali xarajatlari. Demak, umumiy xarajat maqsadli funksiya (optimallash mezoni) bo'ladi, va uni S bilan belgilaymiz.

Agar izolyatsiya materialining turlari bittagina bo'lsa loyihaviy echimni qabul qilishda ob'ektning bitta parametri, ya'ni izolyatsiya materialining qalinligi X, o'zgartirish mumkin bo'lgan ichki parametr bo'lib qoladi. Demak, loyihalovchining oldiga X ning qiymati qanday bo'lganda umumiy xarajat S minimal bo'ladi degan masala qo'yiladi. Buning uchun S ni albatta X bilan funksional bog'lab olish kerak bo'ladi.

Mantiqan qaraganda masaladagi izolyatsiya materiali xarajati X ga to'g'ri proportsional, yonilg'i xarajatiga esa - teskari proportsional bo'ladi, ya'ni:

$$S=K_1 \frac{1}{x} + K_2 X \qquad (4.5)$$

bunda K_1 va K2 yonilg'i va izolyatsiya materiali xarajatlari koeffitsienti.

Izolyatsiya materiali qalinligi X ga amalda chegara qo'yilgan bo'ladi. 13-rasmda ko'rsatilganidek $X \leq L$ bo'lishi mumkin, bunda L ikki devor orasidagi kenglik. Hozirgi zamon ko'p etajli turar joylarda bu oraliq, L=90 mm ga teng. Yana bir chegara qalinligi 25 mm dan kam bo'lgan izolyatsiya materiallari mavjud emas. Amalda moddiy etishmovchilik sababli, dastlabki xarajatning umumiy summasiga ham chegara qo'yiladi. Ko'rib chiqilgan barcha chegaralar oblast turidagi chegaralar bo'lib ularni quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

$$25 \text{ mm} \leq X \leq 90 \text{ mm}; \quad K_2 X \leq M \qquad (4.6)$$

bunda M - mavjud bo'lgan maksimal pullar summasi.

Optimallashning keltirilgan xususiy masalasiga muvofiq, amalda optimallash masalalari umumiy holda quyidagicha qo'yiladi:

$$X_1, X_2, X_3, \ldots, X_n \qquad (4.6)$$

loyihalash parametrlarining shunday qiymatlari topilsinki bu qiymatlarda maqsadli funksiya

$$I^1=I(X_1, X_2, X_3, \ldots, X_n) \qquad (15)$$

maksimal yoki minimal (ekstremal) qiymatlarga ega bo'lsin va bunda:
funksional chegaralar (tengliklar)

$$\left.\begin{aligned}
&\varphi_1 = \varphi_1(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) = 0 \\
&\varphi_2 = \varphi_2(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) = 0 \\
&\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\
&\varphi_m = \varphi_m(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) = 0
\end{aligned}\right\} \qquad (4.7)$$

hamda oblastli chegaralar (tengsizliklar)

$$\left.\begin{aligned}
&l_1 = l_1(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) \le L_1 \\
&l_2 = l_2(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) \le L_2 \\
&\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\
&l_p = l_p(x_1, x_2, x_3, \ldots, x_n) \le L_p
\end{aligned}\right\} \qquad (4.8)$$

albatta bajarilsin.

Bunday optimallash masalalarini echishning ko’pgina usullari mavjud bo’lib ulardan eng keng tarqalganlari: differensiallash usuli, Lagranjning ko’paytuvchilar usuli, variatsion hisoblash usuli va h.k. Optimallash masalalarini echish usullaridan keng tarqalganlaridan beshtasining qo’llanishini misollarda ko’rib chiqamiz.

Optimallash masalalarini echish usullari. Optimallashtirishning differensiallash va Latranj ko’paytuvchilari usuli

1. Shartsiz optimallashtirish masalalari.
2. Optimallashtirishning differensiallash usuli.
3. Optimallashtirishning Latranj ko’paytuvchilari usuli.

Optimallashtirishning differensiallash usuli

Oddiy loyihalash proseduralariga ko’pincha (16) turdagi funksional chegaralar qo’yilmagan bo’ladi. Bunday hollarda, ba’zida vaqtincha oblastli chegaralarni ham (17-turdagi) hisobga olmasa bo’ladi.

Bunday turdagi masalalarni shartsiz optimallashtirish masalalari deb ataladi. Maqsadli funksiya (15) ni differensiallanuvchi funksiya deb qarab, ekstremal nuqtani undan hosila olish orqali(har bir xususiy hosilani nolga tenglashtirib) aniqlasa bo’ladi, ya’ni:

$$\left.\begin{aligned} \frac{\partial I}{\partial X_1} &= 0; \\ \frac{\partial I}{\partial X_2} &= 0; \\ \frac{\partial I}{\partial X_3} &= 0; \end{aligned}\right\} \qquad (4.9)$$

Oddiy misol sifatida oldingi mavzuda qo'yilgan masalani davom ettiraylik:

$$I = C = K_1 * \frac{1}{x} + K_2 X; \quad \frac{\partial c}{\partial x} = -K * \frac{1}{x^2} + K_2 = 0; \quad X_{onm} = \sqrt{\frac{K_2}{K_1}}; \qquad (4.10)$$

Bu optimal qiymat oblastli chegarani hisobga olmasdan topildi.

Tekshirib ko'rilganda, agar topilgan X_{opt}, L ning o'zgarish chegarasi ichida yotsa (ya'ni 25) masala to'liq echilgan bo'ladi. Agar X_{opt}>90 chiqsa X_{opt}=90 mm olinadi, X_{opt}<25 chiqsa X_{opt}=25 mm olinadi, ya'ni optimal nuqta sifatida chegaraviy qiymatlar olinadi. Buning asosiy sababi chegaradan chiqa olmasligimizdadir.

Masalada funksional chegara qo'yilgan bo'lsa, masaladagi parametrlar sonini kamaytirish uchun ularni maqsadli funksiyaga uni differensiallamasdan oldin kiritib olgan ma'qul.

Misol uchun, ma'lum qalinlikdagi tunukadan yasalgan, hajmi 10 m^3 bo'lgan, tunuka sarfi eng kam bo'lgan tsilindrik idishning o'lchamlari topilishi kerak bo'lsin. Masalaning qo'yilishiga asosan, maqsadli funksiya sifatida sarflanadigan tunuka yuzning $S = 2\pi R^2 + 2\pi RL$ (bunda K, L tsilindr radiusi va balandligi), funksional chegara sifatida esa uning hajmi V= π R^2L=10 m^3 ni olamiz. Funksional chegaradan L ni V orqali topib $\left(L = \frac{V}{\pi R^2}\right)$, bu parametrlarni maqsadli funksiyaga qo'ysak, quyidagilar kelib chiqadi:

$$S = 2\pi R^2 + \frac{2V}{R}; \quad \frac{\partial S}{\partial R} = 4\pi R - \frac{2V}{R^2} = 0 \text{ yoki } R = \sqrt[3]{\frac{V}{2\pi}} = \sqrt[3]{\frac{10}{2\pi}} = 1{,}167\text{m}$$

va

$$L = \frac{V}{\pi R^2} \text{ dan } L = \sqrt[3]{\frac{40}{\pi}} = 2{,}334 \text{ m} \qquad (4.11)$$

Echim natijasining qiziqarli joyi shundaki, har qanday berilgan hajm uchun, tunuka sarfi minimalligi L/R=2 yoki L/D=1 nisbatda, ya'ni tsilindr balandligi L=2R nisbatida bajarilar ekan.

Optimallashtirishning Latranj ko'paytuvchilar usuli

Bu usulning mazmuni quyidagicha ta’riflanadi:

15-maqsadli funksiyani differensiallaymiz va nolga tenglashtiramiz

$$dj = \frac{\partial I}{\partial x_1} dx_1 + \frac{\partial I}{\partial x_2} dx_2 + \frac{\partial I}{\partial x_3} dx_3 + \ldots + \frac{\partial I}{\partial x_n} dx_n = 0 \qquad (4.12)$$

yoki qisqacha

$$dI = \sum_{i=1}^{n} \frac{\partial I}{\partial x_i} dx_i = 0 \qquad (4.13)$$

16-funksional chegaralarni ham differensiallab, nolga tenglashtiramiz.

$$\left.\begin{aligned} dv_1 &= \sum_{i=1}^{n} \frac{\partial U_i}{\partial x_3} dx_i = 0 \\ dv_2 &= \sum_{i-1}^{n} \frac{\partial U_2}{\partial x_i} dx_i = 0 \\ dv_m &= \sum_{i=1}^{n} \frac{\partial U_m}{\partial x_i} dx_i = 0 \end{aligned}\right\} \qquad (4.14)$$

Oxirgi har bir m tenglamaning o’ng va chap tomonlarini hozircha noma’lum bo’lgan parametrga (Lagranj ko’paytuvchisiga) ko’paytiramiz.

Bu ko’paytuvchilar har bir tenglama uchun har xil qiymatga ega bo’ladi, natija quyidagicha ifodalanadi.

$$\left.\begin{aligned} \lambda_1 dv_1 &= \sum_{i=1}^{n} \lambda_1 \frac{\partial U_i}{\partial x_i} dx_i = 0 \\ \lambda_2 \mathrm{dv}_2 &= \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots \\ \lambda_m dv_m &= \sum_{i=1}^{n} \lambda_m \frac{\partial U_m}{\partial x_i} dx_i = 0 \end{aligned}\right\} \qquad (4.15)$$

Endi (19) va (21) larni qo’shsak:

$$dI + du_1 + du_2 + du_3 + \ldots\ldots du_m = 0;$$

Yoki

$$\sum_{i=1}^{n}(\frac{\partial I}{\partial x_i}+\lambda_1\frac{\partial u_1}{\partial x_1}+\lambda_2\frac{\partial u_2}{\partial x_2}+.....+\lambda_m\frac{\partial u_m}{\partial x_m})dx; \qquad (22)$$

22-tenglik bajarilishi uchun

$$\frac{\partial I}{\partial x_i}+\lambda_1\frac{\partial u_1}{\partial x_i}+\lambda_2\frac{\partial u_2}{\partial x_2}+.....+\lambda_m\frac{\partial u_m}{\partial x_m}=0; i=1,2,....,n; \quad (23)$$

Esga solib o'taylik, funksional chegaralarga mos yana m ta tenglama mavjud.

$$u_i=0; i=1,2,...,m \qquad (24)$$

Shunday qilib, m+n noma'lumli m+n tenglama (23,24) tizimsi hosil bo'ladi va ular izlanayotgan optimal echimlarni aniqligiga imkoniyat yaratadi. Misol sifatida oldingi ko'rilgan tsilindrik idishning optimal o'lchamlarini aniqlash masalasini ushbu usulda takroran echib ko'raylik. Maqsadli funksiya va uning differensiallari:

$$S=2\pi R^2+2\pi RL; \frac{dS}{\partial R}=4\pi R+2\pi L; \frac{\partial S}{\partial L}=2\pi R$$

Funksional chegara va uning differensiallari:

$$u=V-\pi R^2L=0; \frac{\partial u}{\partial L}=-2\pi RL; \frac{\partial u}{\partial L}=2\pi R$$

demak (23), (24) larga asosan

$$\frac{\partial S}{\partial k}+\lambda\frac{\partial u}{\partial k}=0$$
$$\frac{\partial S}{\partial L}+\lambda\frac{\partial u}{\partial L}=0$$

$$4\pi R^2+2\pi R+\lambda(-2\pi RL)=0$$
$$2\pi RL+\lambda(-\pi R^2)=0$$
$$V-\pi R^2L=0$$

Oxirgi tenglamalar tizimsidan quyidagilarni topamiz:

$$\lambda=\frac{2}{R}; L=2R; R=\sqrt[3]{\frac{V}{2\pi}};$$

oldingi usulda echilganda ham shunday natija kelib chiqqan edi.

Ko’p parametrli masalalarni echishda kompyuterdan foydalanishga to’g’ri keladi. Buning uchun esa hozirgi kunda amaliy dasturlar to’plami mavjud.

Optimallash masalalarini echish usullari. Optimallashtirishning sonli usullari va chiziqli programmalashtirish usuli

1. Optimallashtirishning navbatma-navbat bir me’yorda izlash usuli.
2. Optimallashtirishning "tez tushish" usuli.
3. Optimatlashtirishning chiziqli programmalashtirish usuli.

Bu usullarga "navbatma-navbat bir me’yorda izlash" va "tez tushish" usullari kiradi. Ikkala usul ham shartsiz optimallashtirish usullaridan bo’lib, maqsadli funksiyaning minimal koeffitsientini aniqlab beradi. Tushunish osonroq bo’lishi uchun ikki parametrli maqsadli funksiyalar ko’riladi.

"Navbatma-navbat bir me’yorda izlash" usulida avvalo parametrlarning dastlabki qiymatlari tanlanadi. Agar parametrlar x_1, x_2 bo’lsa ularning dastlabki qiymatlarini mos ravishda x_{10}, x_{20} deb olamiz va bu koordinataga mos maqsadli funksiya miqdori J_{00} da bo’ladi.

Agar endi $x_2=x_{20}$=const qoldirib x_1 ma’lum bir qadamda o’zgartirib borsak (x_{10} dan boshlab) va hargal J larni hisoblab borsak, bir necha qqadamdan so’ng uning minimal (yoki maksimal) qiymatiga yitib borish mumkin. Bu nuqtani x_{11} bilan belgilayimiz. $J(x_{20}, x_{11})$ esa J_{10} da belgilanadi.

Keyingi qadamlarda $x_1=x_{11}$=const qoldirib x_2 parametrga x_{20} dan boshlab orttirmalar berib boramiz va yuqoridagidek, bir nechta qadamdan so’ng $x=x_{20}$ da nuqtada J minimal qiymatga erishadi va uni J_{11} da belgilaymiz. Ana shunday navbatma-navbat izlashni takrorlab borsak, natijasi J ning xaqiqiy minimumini (yoki maksimumini) ma’lum aniqlikda topishga olib keladi.

Bu usulning qo’llanilishi quyidagi misolda ko’rib chiqamiz.

Issiq suvni manbadan (suv qaynatish qozoni) ta’minlanuvchigacha olib boradigan vodopravod liniyasini loyihalash kerak bo’lsin.

Umumiy sarflanadigan xarajat quyidagilarning yig’indisidan tashkil topadi:

1.Issiq suvni truboprovod orqali haydashga sarflanadigan xarajat suvni haydashga sarflanadigan energiyaga bog’liq bo’lganligi uchun bu xarajat quyidagicha ifodalanadi:

$$C_1 = K_1, \frac{1}{D^2};$$

bunda D-truboprovod diametri, K_1 - o’zgarmas koeffitsient.

2.Suvni qizdirishga sarflanadigan xarajat:

$$C_2 = K_2 \frac{1}{\ln(\frac{D+X}{D})}$$

bunda x izolyasion material qalinligi, K_2-o'zgarmas koeffitsient

3.Trubaga va izolyasion materiallarga sarflanadigan xarajat:

$$C_3 = K_3 D; C_4 = K_4 X$$

bunda ham K_3 K_4 lar o'zgarmas koeffitsientlar.

Shunday qilib umumiy xarajat formulasi, ya'ni maqsadli funksiya quyidagicha yoziladi:

$$C = K_1 \frac{1}{D_5} + K_2 \frac{1}{\ln(D + X/D)} + K_3 D + K_4 X$$

Loyihachining oldiga shu xarajatni minimallashtiruvchi D va X larning qiymatini aniqlash masalasi qo'yilgan.

Misolni konkretlashtirish uchun o'zgarmas koeffitsient larni $K_1 = 10; K_2 = 1; K_3 = 0.5; K_4 = 1$ deb olsak

$$C = 10\frac{1}{D^5} + \frac{1}{\ln(D + X/D)} + 0.5D + X$$

konkret maqsadli funksiya kelib chiqadi.

Dastlabki parametr qiymatlarini $D_0 = X_0 = 1$ deb olib, yuqorida keltirilgan navbatma-navbat izlash usulidan foydalanib hisoblangan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki xarajat sarfining eng kam miqdori S_0= 4,5609 truba diametrining (albatta ichki diametr) D_0=1,85sm ga, izolyasion material qalinligining X_0=1,37sm ga mos kelar ekan.

Nazariy jihatdan albatta bu usulni parametrlar soni uch va undan ko'p bo'lganda ham qo'llasa bo'ladi, lekin hisoblashlar soni ko'payib ketadi va doimo optimal nuqtaga chegaralangan vaqtda yitib borish mumkin bo'lmasdan qolishi mumkin.

Navbatma-navbat izlash usulida optimallashtirish masalasini echish natijalari

A	X	S	A	X	S
1,0	1,0	12,9427	1,81	1,25	4,5742
2,0	1,0	4,7789	1,82	1,25	4,5734
3,0	1,0	6,0172	1,83	1,25	4,5730
4,0	1,0	7,4912	1,84	1,25	4,5731
1,2	1,0	7,2686	1,83	1,25	4,5730
1,4	1,0	5,4146	1,83	1,30	4,5654
1,6	1,0	4,8234	1,83	1,35	4,5620

1,8	1,0	4,6925	1,83	1,40	4,5623
2,0	1,0	4,7789	1,83	1,31	4,5644
2,2	1,0	4,9629	1,83	1,32	4,5636
2,4	1,0	5,1967	1,83	1,33	4,5629
2,6	1,0	5,4571	1,83	1,34	4,5624
2,8	1,0	5,7326	1,83	1.35	4,5618
1,8	0,25	9,3684	1,83	1,36	4,5617
1,8	0,50	0,0088	1,83	1,37	4,5616
1,8	2,0	4,7675	1,83	1,38	4,5617
1,8	4,0	6,2839	1,83	1,39	4,5619
1,8	0,75	5,0503	1,81	1,37	4,5662
1,8	1,00	4,6925	1,82	1,37	4,5642
1,8	1,25	4,5755	1,83	1,37	4,5627
1,8	1,50	4,5790	1,84	1,37	4,5611
1,8	1,75	4,6516	1,85	1,37	4,5609
1,8	1,25	4,5755	1,86	1,37	4,5618

Optimallashtirishning "tez tushish" sonli usulida maqsadli funksiyaning xususiy differensiallaridan foydalaniladi. Aytaylik $J=J(x_1,x_2)$ maqsadli funksiyaning dastlabki nuqtadan (x_{10}, x_{20}) hosilalari ( ) va ( ) aniqlangan bo'lsin. Keyingi nuqtaga eng "tez tushish" yo'nalishi bo'yicha harakatlanish uchun yo'nalishi shunday aniqlash kerakki, bunda va bo'lsin (14 -rasm).



14-rasm. Izlashdagi yo'nalishni aiiqlash masalasiga doir

Rasmdan faqat yo'nalish aniqlanadi, lekin qadam tashlash, (orttirma) qancha bo'lishi kerakligi noma'lum. Qadamni T deb belgilab olsak, Maqsadli funksiya quyidagi ko'rinishga keladi:

$$I = I\left\{\left[x_{10} + T\left(\frac{\partial I}{\partial x_1}\right)\right], \left[x_{20} + T\left(\frac{\partial I}{\partial x_2}\right)\right]\right\}$$

Bu munosabatdan yangi x_1 va x_2 larni aniqlash uchun

$$\frac{\partial I}{\partial t} = 0$$

tenglamasidan foydalaniladi. Hisoblashni x_1 va x_2 larning $\frac{\partial I}{\partial x_1}$ va $\frac{\partial I}{\partial x_2}$ larni nolga tenglashtirishga qadar yoki ma'lum aniqlikda nolga yaqinlashgunga qadar davom ettiramiz. Bu usulda ham parametrlar soni uch yoki undan ko'p bo'lgandagi masalalarni echish uchun EXM dan foydalangan ma'qul.

Optimatlashtirishning chiziqli programmalashtirish usuli

Ko'p hollarda maqsadli funksiya quyidagi turdagi o'z parametrlariga nisbatan chiziqli funksiyalarda ifodalanadi

$$I = C_1 X_1 + C = X_2 + ... + C_n X_n \to \min(\max)$$

Agar bunday hollar uchun mavjud oblastli va chegaraviy funksiyalar ham:

$$X_1 \geq a; X_2 \geq a; ... X_n \geq a$$
$$a_{11} X_1 + a_{12} X_2 + ... + a_n X_n \leq b_1$$
$$a_{m1} X_1 + a_{m2} X_2 + ... + a_{m2} X_n \leq b_m$$

chiziqli funksiyalar bo'ladigan bo'lsa, bunday masalalar matematikada chiziqli programmalashtirish masalalari deb ataladi.

Maqsadli funksiyadagi parametrlar soni ikkita yoki uchta bo'lsa masalani eng oson grafik usulda echish mumkin.

Misol sifatida quyidagini ko'raylik:

$J = 3x_1 + 5x_2$ (maqsadli funksiya)

$2x_1 + 4x_2 < 8$ (chegaraviy funksiya)

$x_1, x_2 > 0$ (cheklanishlar)

$x_1 0 x_2$ koordinatalar tekisligida avvalo chegaraviy funksiya grafigini yasaymiz (15-rasm):

Ko'rinib turibdiki, chegaraviy funksiya va cheklanishlar shartlaridan OAB burchagi kelib chiqadi, ruxsat etilgan echimlar oblasti esa shu uchburchak bilan chegaralangan bo'ladi (shtrixlangan oblast). Shu joyda aytib o'tish kerakki, umuman olganda, ruxsat etilgan echimlar oblasti parametrlarda ifodalangan chegaraviy funksiyalar soniga ega bo'lib, ko'pburchaklarda tasvirlanadi va optimal echim shu ko'pburchaklarning biror uchida joylashgan bo'ladi. Ko'rilayotgan misol uchun:



15-rasm. Chiziqli programmalashtirish usuliga doir

O nuqtada $J_o = 3*0+5*0=0$

A nuqtada $J_A = 3*4+5*0=12$

B nuqtada $J_B = 3*0+5*2=10$

Demak, maqsadli funksiyani maksimallashtiruvchi optimal echim A nuqtada bo'lar ekan. Masalani grafik usulda echganda, berilgan koordinatalar tekisligida maqsadli funksiyaning grafigi chiziladi va o'ziga parallel holatda maksimallashtirish masalasida o'sish tomonga, minimallashtirish masalasida esa kamayish tomonga siljitib boriladi.

Bu siljitishlardagi maqsadli funksiya chizig'ining ruxsat etilgan oblast ko'pburchagining eng so'ngida tark etgan uchi optimal echim koordinatasi bo'ladi. Misolda J_{max} uchburchakni A nuqtada tark etadi, ya'ni echim shu nuqtada bo'ladi $(X_{2OPT}=4, X_{2OPT}=0)$.

Agar parametrlar soni uchta bo'lsa masalani fazodagi grafik tasvirlarda echishga to'g'ri keladi va optimallashtirishning bu usulini qo'llanish qiyinchiliklarga olib keladi. Amalda ko'p parametrli masalalarni chiziqli programmalashtirish usulida echishda iteratsion-hisoblash usullari qo'llaniladi. Bunday usullardan biri bo'lgan simpleks usuli [3] da tavsiflangan.

Chiziqli programmalashtirish masalalarini echishning ham maxsus amaliy dasturlar to'plami mavjud. Dasturlar to'plami yordamida bunday masalalarni kompyuterda echish maqsadga muvofiqdir.

Optimallash masalalarini echish usullari. Optimallashtirishning variatsion hisoblash usuli

1. Optimallashtirishning variatsion hisoblash usuli.
2. Chegaraviy munosabatlar va funksionallar.
3. Eyler sharti.

Yuqorida ko'rilgan masalalarning barchasida maqsadli va chegaraviy munosabatlar aniqlanishi kerak bo'lgan parametrga nisbatan funksiyalar sifatida berilgan edi.

TS ni loyihalashda, ba'zi hollarda maqsadli munosabatlar va chegaraviy munosabatlar funksiyalar emas funksionallar sifatida ifodalanadi. Bunday

masalalarning optimal echimlarini aniqlash uchun variatsion hisoblash usulidan foydalangan maqsadga muvofiq.

Aytaylik, x, u dy/dx o'zgaruvchilarga ega bo'lgan ikki marta differensiallanuvchi F funksiya va uning x_1 x_2 orasidagi aniq integrali

$$I = \int_{X_1}^{X_2} F\left(x, y, \frac{dy}{dx}\right) dx \qquad (25)$$

berilgan bo'lsin va shu integralni optimallashtiruvchi y=u(x) funksiyani topish kerak bo'lsin.

Variatsion hisoblashda izlanayotgan funksiya quyidagi Eyler shartiga mos bo'lishi kerak

$$\frac{\partial F}{\partial y} - \frac{\partial}{\partial x}\frac{\partial F}{\partial y} = 0 \text{ bunda } y^1 = \frac{\partial y}{\partial x} \qquad (26)$$

Chegara qo'yilishi keyinroq ko'riladi. Eyler shartini qo'llanilishini yaxshi tushunib olish uchun avvalo quyidagi osonroq masalani ko'raylik (16-rasm)



16-rasm. Variatsion hisoblash usulini tushunishga doir

A va B nuqalarni tutashtiruvchi y=y(x) shunday funksiya aniqlansinki, shu funksiya grafigi bo'yicha harakatlangan AB chizig'i uzunligi minimal bo'lsin. Konkretroq bo'lishi uchun A nuqta koordinatalari (x=0; y=0), B nuqta koordinatalari (x=1; y=1) bo'lsin. Rasmga asosan minimallashtirish kerak bo'lgan integral quyidagicha ifodalanadi

$$I = \int_A^B ds - \int_A^B \sqrt{dx^2 + dy^2} = \int_A^B \sqrt{1 + (y^1)^2}\, dx$$

Demak, F funksiya quyidagicha bo'ladi.

$$F = \sqrt{1 + (y^1)^2}$$

Bundan

$$\frac{\partial F}{\partial y}=0;\quad \frac{\partial F}{\partial y^1}=\frac{y^1}{\sqrt{1+(y^1)^2}};\quad \frac{d}{dx}\frac{dF}{dy}=\frac{d}{dx}\left(\frac{y^1}{\sqrt{1+(y^1)^2}}\right)$$

Aniqlanganlarni Eyler shartiga qo'yamiz.

Differensiali nolga teng bo'lgan funksiya o'zgarmas miqdor bo'ladi, va bu miqdorni S bilan belgilasak

$$\frac{y^1}{\sqrt{1+(y^1)^2}}=C$$

ni hosil qilamiz. Bu tenglamani y^1 ga nisbatan echsak

$$y^1=\frac{C}{\sqrt{1-C^2}};\rightarrow \frac{dy}{dx}=\frac{C}{\sqrt{1-C^2}};$$

va oxirgini integrallab echsak

$$y=\frac{C}{\sqrt{1-C^2}}=x+K$$

kelib chiqadi.

Bu izlanayotgan to'g'ri chiziq tenglamasi A va B nuqtalarning berilgan koordinatalarini hisobga olsak K=0; $C/\sqrt{1-C}^2$=1 kelib chiqadi. Demak echim: Optimal funksiya y=x bo'ladi.

Agar chegaraviy munosabatlar ham qo'yilgan bo'lsa Eyler sharti boshqacharoq bo'ladi. Aytaylik quyidagi berilgan integralni minimallashtiruvchi

$$\left.\begin{aligned} I&=\int_a^b F(x,y,y^1)dx\longrightarrow \min\\ g&=\int_a^b G\left(x,y,y^1\right)dx=K \end{aligned}\right\} \qquad (27)$$

chegaraviy munosabatlarni qanoatlantiruvchi y=y(x) funksiya aniqlanishi kerak bo'lsin. Bunda K - o'zgarmas son. Bu holda

$$\int_a^b\left[F\left(x,y,y^1\right)-G\left(x,y,y^1\right)\right]dx;$$

integralni minimalashtirish uchun Eyler sharti quyidagicha bo'ladi

$$\frac{\partial F}{\partial y}-\lambda\frac{\partial G}{\partial y}-\frac{d}{dx}\frac{\partial F}{dy^1}+\lambda\frac{d}{dx}\frac{\partial G}{dy^1}=0 \qquad (28)$$

Misol tariqasida quyidagini ko'raylik (17rasm)



17-rasm. Variatsion hisoblash usuli misoliga doir

A, B nuqtalarni tutashtiruvchi uzunligi minimal va grafigi ostidagi yuza S=π/R. ga teng bo'lgan y=y(x) funksiya aniqlansin. Nuqtalar koordinatalari rasmda keltirilgan oldingi misolda aniqlanganidek

$$I=\int_a^b\sqrt{1+(y^1)^2}dx\to\min;$$

$$g=\int_a^b ydx-\frac{\pi}{R}$$

Demak bu misol uchun,

$$F=\sqrt{1+(y^1)^2} \quad \text{va G=y}$$

Eyler shartiga asosan

$$\frac{d}{dx}\frac{y^1}{\sqrt{1+(y^1)^2}}+0=0$$

Oxirgi differensial tenglamani echsak

$(\lambda=C_1-1)$ da $\qquad y=\sqrt{\partial x-x^2}$

va hosil bo'lgan tenglamaning ikkala tomonini ham kvadratga ko'tarib, quyidagi radiusi 1 ga teng va markazi (1;0) nuqtada bo'lgan aylana tenglamasini olamiz

va izlangan egri chiziq shu bo’ladi.

Shunday qilib optimal loyihalash jarayonlarida keng qo’llanilishi mumkin bo’lgan differensiallash, Lagranj ko’paytuvchilari, sonli, chiziqli programmalashtirish va variatsion hisoblash usullari qisqacha ko’rib chiqildi.

Ko’rilgan usullar bo’yicha masalalarni echish amaliy va tajribaviy darslarning mazmunini tashkil qiladi.

Ko’rgazmali materiallar







Savollar

1. Optimallashtirishning variatsion hisoblash usuli mazmunini bayon qiling.
2. Chegaraviy munosabatlar va funksionallar mazmunini bayon qiling.
   Eyler sharti mazmunini bayon qiling.

MA’RUZA №7
CAE TIZIMLARI. LOYIHALASH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING ASOSLARI.

Reja:

1. **Texnik tizim elementlari.**
2. **Aralash graf misoli.**
3. **Geometrik graf misoli.**

Tayanch so’z va iboralar:
Grafa, element, aralash, loyihalash, geometrik, material, CAE tizimlari, avtomatlashtirish.

Texnik tizimlarning konstruktsiyasini loyihalashda texnik tizim elementlarini nuqtalarda, elementlararo aloqalarini chiziqlarda ifodalab tuzilgan modellardan foydalanish loyihalash ishlarini ancha engillashadi. Eng asosiysi kompyuterdan foydalanish uchun imkoniyat yaratiladi.

Matematikada o’zaro aloqada bo’lgan, ikkita to’plamlardan tashkil topgan ob’ektlarga graflar deyiladi. Grafning nuqtalar to’plamini X bilan belgilaydi va ular uchlar to’plami deb ataladi

$$X = \{x_1\ x_2,\ldots ,x_n\},\ /x/ = n \qquad (5.1)$$

Ikkita qo’shni uchlarni birlashtiruvchi chiziqlar to’plamini U bilan belgilaydi va ular tomonlar yoki yoylar deb ataladi

$$U = \{u_1, u_2 ,\ldots u_n\},\ /x/ = n \qquad (5.2)$$

Demak, graf deb ikkita to’plamdan tashkil topgan quyidagi ob’ektga aytilar ekan

$$G = (X, U) \qquad (5.3)$$

Umuman olganda U lar to’plami quyidagicha bo’lishi mumkin

$$U = U \vee U \quad (\vee \text{ - «yoki» so’zi belgisi}) \qquad (5.4)$$

bunda U - orientirlanmagan chiziqlar qism to’plami, yoki tomonlar qism to’plami. x_i va x_j uchlarni birlashtiruvchi bunday tomonlar quyidagi shaklda ifodalanadi

$$U_K = (x_i, x_j) \text{ yoki } U_K=(x_j, x_i) \qquad (5.5)$$

2 - orientirlangan (yo’nalishga ega bo’lgan) chiziqlar qism to’plami yoki yoylar qism to’plami x_i uchdan x_j uchga yo’naltirilgan yoy quyidagicha yoziladi

$$U_K=<x_ix_j> \qquad (5.6)$$

U ma’lum bir uchdan chiqib, yana shu uchga qaytib kiruvchi chiziqlar qism to’plami, yoki sirtmoqlar qism to’plami. Ularning yozilishi:

$$U_i=(x_k, x_k) \text{ yoki } U_j=<x_k, x_k> \quad (5.7)$$

Turkumida tomonlar ham, yoylar ham, sirtmoqlar ham mavjud graflar aralash graflar deb ataladi (18-rasm).



5.1-rasm. Aralash graf misoliga doir



5.2-rasm. Geometrik tasvirdagi graf misoli

$$R = \begin{array}{c|cccc} & u_1 & u_2 & u_3 & u_4 \\ x_1 & 1 & 1 & 1 & 1 \\ x_2 & 1 & 0 & 1 & 1 \\ x_3 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ x_4 & 1 & 1 & 0 & 0 \end{array} \quad (5.8)$$

Matritsa kataklaridan ko’rinib turibdiki $r_{1j}=r_{j11}$, shuning uchun ularni kompyuterga kiritishda dioganal bo’yicha bo’lingan yarmini ishlatsa ham bo’ladi. Quyidagi qoidaga asosan tuzilgan to’g’ri burchak shaklidagi jadvalni intsidentlik matritsasi deb ataladi.

1, agar x_k uchi u_1 tomonga intsidentli bo’lsa.

0, uch bilan tomon intsidentli bo’lmasa

19-rasmdagi grafning intsidentlik matritsasi quyidagicha bo’ladi.

$$J = \begin{array}{c|cccccc} & u_1 & u_2 & u_3 & u_4 & u_5 & u_6 \\ x_1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 0 & 1 \\ x_2 & 1 & 0 & 1 & 1 & 1 & 0 \\ x_3 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ x_4 & 1 & 1 & 0 & 0 & 1 & 1 \end{array} \qquad (31)$$

Matritsa qatorlari uchlarga ustunlari esa tomonlarga mos bo’ladi. Grafda sirtmoqlar mavjud bo’lsa mos ustunga 1 belgisi qo’yiladi.

R va J matritsalar berilgan graflarni to’liq ifodalab beradi va shu sababli loyihalashni kompyuter yordamda bajarishga ko’pincha shunday formadagi graf modellaridan foydalaniladi.

Grafdagi qo’shni tomonlarning ketma-ketligi

$$\ldots,(x_i\, x_j),\ (x_j\, x_k),\ (x_k\, x_i),\ldots$$

marshrut deb ataladi. Marshrutdagi tomonlar soni S uning uzunligi deyiladi.

Takrorlangan tomonlari yo’q marshrut zanjir, boshlanishi va oxiri bir uchga joylashgan berk konturli zanjir esa sikl deb ataladi.



5.3-rasm. Neyler (a) va Eyler (b) graflari

Uchlari takrorlanmagan zanjir va sikllar oddiy sep va sikllar deb ataladi.

Grafning sikllar matritsasi quyidagicha yoziladi. (20,a rasmdagi graf uchun)

$$M_c = \begin{array}{c|cccccc} & x_1 & x_2 & x_3 & x_4 & x & x_6 \\ 1 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 & 0 \\ 2 & 0 & 1 & 1 & 0 & 1 & 0 \\ 3 & 0 & 0 & 1 & 0 & 1 & 1 \end{array} \qquad (5.9)$$

Agar grafda tomonlari takrorlanmaydigan sikl mavjud bo'lsa, bunday graflar Eyler graflari deb ataladi. (20,b-rasm) neEyler grafi bunday xossaga ega bo'lmaydi.(20,a-rasm).

Grafdagi har bir uchga intsidentli tomonlar soni shu uchning lokal darajasi deb ataladi va $p(x_1)$ da belgilanadi.

Misol uchun 20,a-rasmdagi graf uchun $r(x_1)=2$; $r(x_2)=3$; $r(x_5)=4$; va h.k.

Eyler grafida barcha uchlarning lokal darajalar albatta juft son bo'lishi shart. Bu shart bajarilmasa, graf neEyler grafi bo'ladi (20,a-rasm). Barcha uchlari bo'yicha faqat bir marotaba o'tish mumkin bo'lgan sikl, Gamilton sikli deb ataladi. Shunday xossaga ega graf esa Gamilton grafi deb ataladi. Barcha uchlari o'rtasidagi tomonlari albatta mavjud graflar to'la graflar deb ataladi va K_n bilan belgilanadi. To'la graflarda albatta Gamilton sikli mavjud bo'ladi. 20-rasmdagi ikkali graf ham to'la graflar bo'lganligi uchun ularda Gamilton sikli mavjud

($G_{gs}=(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6)$).

Siklga ega bo'lmagan graflar daraxt deb ataladi va T harfida belgilanadi. Har qanday daraxt n-1 tomonga ega bo'ladi. Boshlang'ich bu grafda

/x/=5, /u/=13, u=u u u; $u=\{u_1, u_6, u_{13}\}$
$u=\{u_3, u_4, u_5, u_6, u_7, u_8, u_9, u_{11}\}$; $u=\{u_2, u_{10}, u_{13}\}$;

Barcha tomonlari orientirlangan graflar orgraflar, orientirlanmagan graflar esa neograflar deb ataladi.

Avvalo faqat neograflarni ko'rib chiqamiz va qulayroq bo'lishi uchun ularni umulashgan nom bilan graflar deb nomlaymiz.

Birorta ikki uchini tutashtiruvchi m ta tomonlari bor graflarga multigraflar deyiladi. Maksimal m esa grafning multisoni deb ataladi. 21-rasmda multisoni m=5 ga teng multigraf misoli ko'rsatilgan.



5.3-rasm. Multigraf misoliga doir

Agar grafning biror u_k tomoni x_i va x_j uchlarini tutashtirgan bo'lsa u_k tomoni x_i va x_j uchlariga intsidentli deb ataladi, yoki x_i va x_j tomoni u_k tomoniga intsidentli deyiladi.

Grafning har qanday ikki uchi (x_i va x_j) birorta tomon bilan tutashgan bo'lsa

bunday uchlar qo’shni uchlar deyiladi. Agar grafning birorta ikki tomoni (u_k u_i), bir uchga intsidentli bo’lsa bunday ikki tomon ham o’zaro qo’shni bo’ladi. Misol uchun 18-rasmda u_1 tomon va x_i va x_j uchlarga intsedentli, x_i va x_j uchlar o’zaro qo’shni hisoblanadi.

Har qanday grafni G=(X,U) geometrik yoki matritsa formalarida ifodalash mumkin. Yuqorida ko’rilgan 18,21-rasmlar graflarning geometrik formada ifodalanishiga misol bo’la oladi.

Loyihalashni avtomatlashtirishda asosan graflarning matritsa formadagi ifodalaridan foydalaniladi.

Quyidagi qoidaga asosan tuzilgan kvadrat jadvallarni qo’shnichilik matritsasi deyiladi.

r_{ij}=1, agar x_i va x_j, uchlari o’zaro qo’shni bo’lsa.

r_{ij}=0, agar ular o’zaro qo’shni bo’lmasa.

mul’tigraflar uchun

r_{ij}=m, agar x_i va x_j, uchlari m ta tomonlar bilan qo’shni bo’lsa,

r_{ij}=0, agar ular o’zaro qo’shni bo’lmasa.

Misol uchun 19-rasmdagi geometrik formada tasvirlangan grafning qo’shnichilik matritsasini tuzaylik: uchni ildiz, undan chiqqan tomonlar esa shoxlar (tarmoqlar) deb ataladi. 22-rasmda daraxt-grafning geometrik tasviri misoli keltirilgan



5.4-rasm. Daraxt-grafining misoliga doir:
/u/=4-1=3; x_1 – ildiz, u_1, u_2, u_3 – shoxlar.

Grafdagi ikki uchlarni tutashtiruvchi eng kam tomonlarning soni (eng qisqa zanjir uzunligi) masofa deb ataladi va d_{ij} da belgilanadi.

Graf uchun masofa funksiyasini masofa matritsasida ifodalash qulaydir ($D=d_{ij}$) va bu matritsa elementlari (kataklari) qo’yidagi qoidaga asosan aniqlanadi:

21-rasmdagi graf uchun masofa matritsasi quyidagicha bo’ladi:

$$D = \begin{array}{c|cccccc} & x_1 & x_2 & x_3 & x_4 & x_5 & x_6 \\ x_1 & 0 & 1 & 2 & 2 & 2 & 1 \\ x_2 & 1 & 0 & 1 & 1 & 2 & 1 \\ x_3 & 2 & 1 & 0 & 1 & 2 & 2 \\ x_4 & 2 & 1 & 1 & 0 & 1 & 1 \\ x_5 & 2 & 2 & 2 & 1 & 0 & 1 \\ x_6 & 1 & 1 & 2 & 1 & 1 & 0 \end{array} \qquad (33)$$

graf uchlar yoylar sirtmoqlar aralash graflar jadvalni intsidentlik matritsasi marshrut marshrut uzunligi zanjir sikl Eyler graflari neEyler grafi

Ko’rgazmali materiallar









Savollar

1. Graflar nazariyasining asosiy tushunchalarini mazmunini bayon qiling
2. Aralash graflar mazmunini bayon qiling
3. Geometrik tasvirdagi graflar mazmunini bayon qiling
4. Neeyler va Eyler graflari mazmunini bayon qiling
5. Grafning sikllar matritsasini tuzing
6. Qqo’shnichilik matritsasi mazmunini bayon qiling
7. Masofa matritsasi mazmunini bayon qiling

Intsidentlik matritsasi mazmunini bayon qiling

MA’RUZA №8
KOMПAC 3D DASTURIY TA’MINOTI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ma’ruza rejasi:

1. Karkasli modellash tizimlari.
2. Yuzaviy modellash tizimlari.
3. Qattiq jismli modellash tizimlari.
4. Qattiq jismli modellashda modellash funksiyalari.
5. Ob'ektga orienirlangan modellash.
6. Parametrik modellash.

Tayanch so’zlar va ifodalar:

Geometrik modellash, karkasli modellash, yuzaviy modellash, qattiq jismli modellash, modellash funksiyalari, primitivlar, Bulev operasiyalari, ob'ektga orienirlangan modellash, parametrik modellash

Bulev operasiyalari. Primitivlar ruyxatida ixtiyoriy hajmiy jismlarni topish mumkin bo‘lganida ajoyib bo‘lar edi. Biroq geometrik modellash tizimlarini qo‘llanish sohasining xilma-xilligi barcha o‘ylangan shakllarni oldindan saqlash imkonini bermaydi. Foydalanuvchiga primitivlarni kombinatsiyalash uchun vositalar berish masalani oddiyroq hal qilishga olib keladi. Qattiq jismli modellashda kombinatsiyalash usuli sifatida to‘plam nazariyasining Bulev operasiyalari qo‘llaniladi. Boshqacha aytganda har bir primitiv hajmiy jism nuqtalar to‘plamidan iborat deb hisoblanadi. To‘plamga Bulev operasiyalari qo‘llaniladi, natijada o‘zgartirishlardan so‘ng olingan nuqtalardan tashkil topgan hajmiy jism olinadi.

Ko‘pgina qattiq jismli modellash tizimlari quyidagi Bulev operasiyalarini bajara oladi: birlashtirish, kesish va farq. Bulev operasiyalarini qo‘llashgacha primitivlarning nisbiy holati va orientatsiyasini aniqlash kerak bo‘ladi. Bulev operasiyalariga misollar sifatida quyidagi 38,39 va 40- rasmlarda aynan primitivlar tasvirlangan bo‘lsa ham ularni nafaqat primitivlarga qo‘llanishi mumkin.



9.1-rasm. Primitivlarni birlashtirish



9.2-rasm. Primitivlarni kesishishi



9.3-rasm. Primitivlar farqi

Bulev operasiyalariga o‘xshash amalga oshiriladigan, ya'ni bir modellash funksiyasi bu hajmiy jismni tekislik bilan qirqish. Bu funksiya qo‘llanilganidan so‘ng ikki qismdan iborat jism olinadi. Xuddi shunday natijaga qirqilishi kerak bo‘lgan hajmiy jismga ayirish operasiyasini qo‘llash bilan, va qirralaridan biri kesuvchi tekislik hisoblangan kubni qo‘llash bilan ham erishish mumkin. Aynan shuning uchun ham qirqishni Bulev operasiyalariga kiritish mumkin.

Bulev operasiyalarini qo‘llash natijasida hajmiy bo‘lmagan jism olinib qolmasligiga alohida e'tibor berish kerak 41-rasm.



9.4-rasm. Nokorrekt bulev operasiyasi

Ba'zi tizimlar nokorrekt natija olingani haqida ogohlantirish beradi, boshqalari esa xatoni ko‘rsatish bilan ishni yakunlaydi. Kam obrazli modellash tizimlari bunday o‘ziga xos holatlarga ham ishlov berishi mumkin, chunki ular nafaqat hajmiy jismlar bilan, balki yuzalar bilan ham va karkaslar bilan ham ishlashi mumkin.

Zametanie. Zametanie (*sweeping*) funksiyasi yopiq tekis figurani translyasiya qilish yoki aylantirish bilan hajmiy jism hosil qiladi. Birinchi holatda shakllantirish jarayoni *translyasiya qilishda zametanie* (*translational sweeping*), ikkinchi holatda *aylanuvchi figurani qurish* (swinging, rotational sweeping) deb

ataladi. Agar tekis figura yopiq bo‘lmasa, zametanie natijasida hajmiy jism emas yuza olinadi. Zametanienig bunday varianti yuzaviy modellash tizimlarida mavjud.

Translyasiyada va aylantirishdagi zametanie mos ravishda 42 va 43-rasmlarda ko‘rsatilgan. 10-rasmda 360^0 aylantirish ko‘rsatilagn bo‘lsada, ko‘pgina qattiq jismli modellash tizimlari figurani ixtiyoriy burchakka burish imkonini beradi.



9.5-rasm. Translyasiyada zametanie



9.6- rasm. Aylantirishda zametanie

Skinning. Skinning (*skinning*) funksiyasi jismning berilgan ko‘ndalang kesimlariga yuza o‘tkazish bilan yopiq hajm hosil qiladi. 44-rasm. Ko‘ndalang kesim chegaralari bilan tashkil qilingan figura karkasiga mato yoki vinil tortish kabi tasavvur qilish mumkin. Agar tortilgan yuzaga oxirgi qirralar (ikki chetki kesimlar) qo‘shilmasa yopiq hajm emas, balki yuza olinadi. Skinning funksiyasi shunday ko‘rinishda yuzaviy modellash tizimlarida beriladi.



9.7- rasm. Skinning usulida hajmiy jismni yaratish

Aylanalik yoki ravon birikish. Aylanalik (*rounding*) yoki ravon birikish (*blending*) o‘tkir qirralardan yoki qavurg‘alardan tashkil topgan mavjud modellarni silliq egri chiziqli yuzalar bilan almashtirib modifikasiyalash uchun foydalaniladi. Bunda agar almashtirilgan egri chiziqlarning normal vektorlarini davom ettirsak almashtirilgan qavurg‘a yoki qirralarda tutashadi. O‘tkir to‘g‘ri qavurg‘ani silindrik yuza bilan almashtirish 44-rasmda ko‘rsatilgan. O‘tkir qirrani sferik yuza bilan almashtirish 45-rasmda ko‘rsatilgan. Bu yerda ham normal vektorlarning uzliksizligi ta'minlanadi. Aylanalikning xususiy holati materialni olib tashlash bilan emas qo‘shish bilan olinadigan turi 44,b rasmda ko‘rsatilgan. Bunday prosedura “vikrujkoy” (filleting) deb ataladi.



9.8-rasm. Qavurg‘allarni aylanalik bilan almashtirish



9.9-rasm. Qirralarni aylanalik bilan almashtirish

Ko‘tarish. Hajmiy jismning barcha qirralarini yoki bir qismini berilgan yo‘nalishda jismni bir vaqtda uzaytirish bilan harakatlantirish ko‘tarish (lifting) deb ataladi (46,a rasm). Kerak bo‘lsa qirraning bir qismini ko‘tarish mumkin (46,b rasm), ko‘tariladigan qirrani oldindan ajratib ko‘rsatish kerak. Buning uchun qirrani kerakli qismlarga bo‘ladigan qavurg‘a qo‘shish yetarli. Bunda tizimning ichida ba'zi amallar amalga oshiriladi va uning natijasi granni bulish bo‘ladi. Bunda odatda yuzalarning bog‘liqligi haqidagi ma'lumotlar yangilanadi. Tizimning ichida bunday amallar Eyler operatorlari yordamida bajariladi. Ko‘tarish funksiyasi bilan ishlashda ko‘tarishning yo‘nalishi va uzunligi to‘g‘ri ko‘rsatilishi kerak va jismning qo‘shilgan qismi oldin berilgan qismi bilan kesishmasligi kerak. Agar kesishishda berilgan jismga qo‘shiladigan qismni birlashtirish bajarilsa ko‘tarish funksiyasini amalga oshirishda bu kesishish muammo keltirib chiqarmaydi. Biroq

ko‘tarish funksiyasi avvalam bor kichik mahalliy o‘zgartirishlar uchun ishlab chiqilgan, 47-rasmda ko‘rsatilgan holat nokorrekt hajmiy jismni beradi.



9.10- rasm. Ko‘tarish o‘zini qirqib tushirish



9.11- rasm. Ko‘tarish natijasida (CAMoperesechenie)

Ob'ektga orienirlangan modellash. Ob'ektga orientirlangan modellash (*feature-based modeling*) konstruktorga shakllarning odatdagi elementlaridan (*feature)* foydalanib hajmiy jismlar yaratish imkonini beradi. Yaratilgan jism o‘zida bu elementlar haqidagi axborotlarga qo‘shimcha ravishda odatdagi geometrik elementlar (uch, qavurg‘a, qirra va h.k.) haqidagi axborotlarni ham o‘zida aks ettiradi. Masalan, konstruktor “shunday joyda ko‘rsatilgan o‘lchamdagi teshik qilinsin” yoki “shunday joyda shunday o‘lchamdagi faska qilinsin” turidagi komandalarni berishi mumkin, va olingan figura konkret joyda konkret o‘lchamdagi teshik (yoki faska) mavjudligi haqidagi ma'lumotni ham o‘z ichiga oladi. Shakllar elementlarning konkret dasturidagi mavjud to‘plami bu dasturning qo‘llanish spektridan bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘gina ob'ektga orientirlangan modellash tizimlarida detallarni tayyorlashda foydalaniladigan elementlar: faska, teshik, aylanalik, pazlar, chuqurliklar va h.k. mavjud bo‘ladi. Bunday elementlar ishlab chiqariladigan deb ataladi, chunki ularning har biri konkret ishlab chiqarish jarayoni natijasida olinishi mumkin. Masalan, teshik parmalash, chuqurliklar frezalash bilan yaratiladi. Natijada, ishlab chiqarish elementlarining mavjudligi, o‘lchami va joylashishi haqidagi ma'lumotlar asosida texnolog jarayon rejasini avtomatik shakllantirishga o‘rinib ko‘rish mumkin bo‘ladi. Texnologik jarayonni avtomatik rejalashtirish amaliy darajada ishlab chiqiladigan bo‘lsa hozirgi vaqtda bir-biridan alohida mavjud bo‘lgan CAD va CAM ni o‘zaro bog‘lash imkoniyati mavjud bo‘ladi. Shunday qilib hozirgi vaqtda 20-rasmda ko‘rsatilgani kabi ob'ektlarni oddiy bulev operasiyalari bilan emas balki ob'ektga orientirlangan modellash komandalari “uyiq” (viemka) va “teshik” (otverstie) dan foydalanib modellash yaxshiroq. Bunday komandalar yordamida yaratilgan modellar texnologik jarayonlarni rejalashtirishni agar to‘liq avtomatlashtirilmasa, osonlashtiradi. Ishlab chiqarish elementlarini modellashda foydalanish 21-rasmda illyustratsiyalangan.









9.12 rasm. “uyiq” va ”teshik” komandalari bilan yaratilgan model



9.13 rasm. Ishlab chiqarish elemetlari:
a- faska; b-teshik; v-uyiq; g-aylanalik.

Ob'ektga orientirlangan modellashning kamchiliklaridan biri shundaki, zarur bo‘ladigan barcha ilovalar uchun hamma elementlarni taklif qila olmaydi. Har bir masala uchun o‘zining elemenlar to‘plami talab etilishi mumkin. Bunday kamchiliklarga barham berish uchun ko‘pgina ob'ektga orientirlangan modellash tizimlari ma'lum tillar taklif qiladi. Bu tillarda foydalanuvchi zarur holatlarda o‘zining xususiy elementlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Elementni aniqlagandan so‘ng uni o‘lchamlarini ko‘rsatuvchi parametrlarini berish kerak bo‘ladi. Elementlar primitivlar kabi har xil o‘lchamda bo‘lishi mumkin. O‘lchamlar elementni yaratish vaqtida parametrlar bilan beriladi. Har xil o‘lchamdagi elementlarni mos parametrlariga har xil qiymatlar berish bilan yaratish parametrik modellashning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Parametrik modellash. Parametrik modellash shaklni konstruktor tomonidan gemetrik chegaralar va ba'zi o‘lcham parametrlarini berish bilan aniqlashdir. Geometrik chegaralar geometrik elementlarning munosabatini ifodalaydi. Chegaralar ikkita qirraning parallelligi, ikkita qavurg‘alarning komplanarligi, egri chiziqli qavurg‘aning qo‘shni to‘g‘ri chiziqqa urinmaligi va h.k. O‘lcham ma'lumotlariga shaklning nafaqat berilgan o‘lchamlari, balki o‘chamlar orasidagi munosabatlar ham kirishi mumkin. Munosabatlar konstruktor tomonidan matematik tenglamalar ko‘rinishida yoziladi. Shunday qilib parametrik modellash geometrik chegaralarni ifodalovchi va berilgan o‘lchamlar va ular orasidagi munosabatlarni ifodalovchi tenglamalarni yechish yo‘li bilan shaklni qurishdir. Parametrik modellashda shaklni qurish quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi:

1. Yasssi figuraning qupol eskizi quriladi.
2. Interaktiv rejimda geometrik chegaralar va o‘lchamlarga talablar kiritiladi.

3. Cheklashlar va o‘lchamlarga bo‘lgan talablarga javob beradigan yassi figuralar quriladi.

4. 2 va 3 qadam chegaralar yoki o‘lchamlarni o‘zgartirish bilan kerakli model olinmaguncha takrorlanadi (22-rasm).

5. Yassi figurani zametanie yoki aylantirish bilan hajmiy jism yaratiladi. Qalinlik va burilish burchagi ham o‘lcham parametrlari bo‘lishi mumkin, bu esa yaratilgan uch o‘lchamli shakllarni zarurati bo‘lganda o‘zgartish imkonini beradi.



9.14 rasm. Chegaralar orqali shaklni o‘zgartirish

Shunga e'tibor berish kerakki, parametrik modellashda shakl bevosita geometrik chegaralar va o‘lcham munosabatlaridan foydalanish orqali o‘zgartiriladi. Shuning uchun konstruktor detallar haqida uylamasdan funksional aspektlarini inobatga olgan holda har xil alternativ loyihalarni ishlab chiqishi mumkin.

Parametrik modellashning turlari geometrik cheklashlarni ifodalovchi tenglamalarni yechish usullari bo‘yicha farqlanishi mumkin. Bir turdagi tizimlar tenglamalarni ketma-ket yechadi, ikkinchi turdagi boshqa tizimlar bir vaqtda yechadi. Birinchi holatda jism shakli cheklashlarni kiritish tartibidan bog‘liq. Ikkinchi holatda xuddi shunday shakl cheklashlarini kiritish ketma-ketligidan bog‘liq bo‘lmagan holatda olinadi, biroq ularning konfliktli holatlarida muammolar to‘g‘ilishi mumkin.

Ko’rgazmali materiallar



Рис. 2 . Оправка для установки маслоотражательных колпачков клапанов







Savollar

1. Karkasli modellash mohiyatini tushuntirib bering.
2. Yuzaviy modellash mohiyatini tushuntirib bering.
3. Qattiq jismli modellash mohiyatini tushuntirib bering.
4. Qattiq jismli modellashda modellash funksiyalarini aytib bering.
5. Ob'ektga orienirlangan modellash mohiyatini tushuntirib bering.

Parametrik modellash mohiyatini tushuntirib bering.

MA’RUZA № 9

SOLIDWORKS DASTURIY TA’MINOTI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR.

Ma’ruza rejasi:

1. Loyihalashni avtomatlashtirish texnik vositalar kompleksiga quyiladigan talablar
2. Loyihalashni avtomatlashtirish kompyuterlarining asosiy texnik parametrlari
3. Loyihalashni avtomatlashtirish kompyuterlarining apparat vositalari

3.1. Loyihalashni avtomatlashtirish kompyuterlarining markaziy qurilmalari

3.2. Loyihalashni avtomatlashtirish kompyuterlarining periferiyali qurilmalari

4. Mashina grafikasi

4.1. Videoadapterlar

4.2. Mashina grafikasining elektromexanik qurilmalari

5. Insonning kompyuter bilan operativ aloqasi qurilmalari

Tayanch so‘zlar va iboralar:

Unumdorlik, tezkorlik, ma’lumotlarni kiritish, kompyuterlarning asosiy texnik parametrlari, videoadapterlar, markaziy qurilmalar, periferiya qurilmalari, prosessor, razryadlik, chastota, operativ xotira, videoxotira, sig‘im, mashina grafikasining elektromexanik qurilmalari, kodlash, displey

Loyihalashni avtomatlashtirish uchun **texnik vositalar kompleksiga quyidagi talablar** quyiladi:

- barcha loyihaviy masalalarni yechish uchun yetarlicha *unumdorligi*;
- loyihalovchi bilan kompyuter o’rtasidagi *operativ muloqotini ta’minlash* imkoniyati;
- loyihalovchi so‘roviga tizim reaktsiyasi vaqtining yitarlicha *tezkorligi*;
- texnik vositalar kompleksini o‘zlashtirish, ekspluatatsiya qilish va unga xizmat ko‘rsatish *qulayligi va osonligini*;
- texnik vositalar kompleksini *rekonfiguratsiya va rivojlantirish uchun ochiqligi*;
- loyihalanayotgan ob’yekt haqida kiruvchi va chiquvchi *grafik informatsiyalardan keng foydalanish* imkoniyati;
- loyihalashning *har xil bosqichlari orasida informasion aloqani ta’minlash* imkoniyati.

Hozirgi paytda texnik vositalar tez rivojlanayotganligi sababli, apparat vositalari yechadigan avtomatlashtirilgan loyihalash masalalarining hajmi ortishi tendentsiyasi mavjud. Loyihalashni avtomatlashtirishda texnik vositalar quyidagi masalalarni yechadi:

- loyiha ob’yekti haqidagi birlamchi *ma’lumotlarni kiritish*;

- kiritilgan *ma'lumotlarni nazorat qilish va muharrirlash* maqsadida aks ettirish;

- *ma'lumotlarni qayta shakllantish* (ma'lumotlar shaklini o'zgartirish, qayta kodlash, translyatsiya qilish, arifmetik va mantiqiy operasiyalarni bajarish, ma'lumotlar strukturasini o'zgartirish va sh.k.);

- turli *ma'lumotlarni saqlash*;

- masalani yechish jarayonida loyihalovchining tizim bilan *operativ muloqotini ta'minlash*.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun loyihalashni avtomatlashtirishning texnik vositalari kompleksi o'z ichiga prosessorlar, operativ xotira, tashqi xotira, informatsiyani kiritish-chiqarish, insonning kompyuter bilan operativ muloqotini ta'minlash, kompyuterning masofadagi terminallar va boshqa mashinalar bilan aloqasini ta'minlash qurilmalarni hamda loyihalash natijalarini chiqarish jihozlari dastgohlar, texnologik komplekslar va avtomatlarni boshqaruvchi signallarga o'zgartiradigan va bevosita aloqasini o'rnatishni ta'minlaydigan qurilmalarni oladi.

Loyihalashni avtomatlashtirishni texnik vositalari kompleksi asosini turli kompyuterlar tashkil qiladi. Loyihalashni avtomatlashtirish texnik vositalari kompleksi tarkibida u yoki bu kompyuterdan foydalanish imkoniyati kompyuterning texnik xarakteristikalari, sotib olish va ekspluatatsiya qilish narxi bilan aniqlanadi.

Kompyuterlarning asosiy texnik parametrlariga unumdorlik, operativ xotira sig'imi, informatsiyani kiritish-chiqarish tizimining o'tkazuvchanlik qobiliyati, ishini bajarish ishonchliligi kiradi.

Unumdorlik (takt chastota) – kompyuterning vaqt birligi ichida (bir sekundda) bajaradigan operasiyalar soni bilan o'lchanadi. Kompyuter unumdorligi ishlanayotgan informatsiyalar xususiyatlaridan (ishlov berilayotgan so'zlar razryadligi, sonlarning taqdim qilinayotgan shakli – suzuvchi yoki muayyan belgilangan nuqtali, bajarilayotgan dasturlarning umumiy oqimida turli operasiyalarning qaytalanish chastotasi va boshqalar) ham bog'liq bo'ladi.

Operativ xotira sig'imi kompyuterning katta hajmdagi informatsiyalarga ishlov bera olis, murakkab dasturlarni bajara olish imkoniyatini aniqlaydi. *Operativ xotira sig'imi* bitlarda, baytlarda, kilobaytlarda, megabaytlarda (1 Kbayt =1024 bayt, 1 Mbayt = 1024 Kbayt, 1 Gbayt = 1024 Mbayt) va sh.k.larda ifodalanadi.

Kiritish-chiqarish tizimining o'tkazuvchanlik qobiliyati kompyuterning turli periferiya qurilmalari yoki boshqa kompyuterlar bilan informatsiya almashishish imkoniyatini aniqlaydi. U vaqt birligi ichida (bir sekundda) kiritish-chiqarish tizimi orqali uzatilgan informatsiya birligining maksimal miqdori (baytlar, kilobaytlar, megabaytlar) bilan o'lchanadi.

Kompyuter ishlashining ishonchliligi ehtimollik tavsifiga ega bo'lgan bir qator ko'rsatkichlar bilan baholanadi: berilgan vaqt oralig'ida (τ) da kompyuterning to'xtamasdan (buzilmasdan) ishlashi ehtimoli $P(\tau)$; to'xtaguncha (buzilguncha) ishlashi – buzilmasdan ishlashining o'rtacha vaqti T_b; kompyuter ish qobiliyatini qayta tiklash o'rtacha vaqti T_v; tayyorlik koeffitsienti $K_g=T_b/(T_b+T_v)$ va h.k.

Loyihalashni avtomatlashtirish kompyuterlarining apparat vositalari

Kompyuter texnik parametrlariga uning deyarli hamma apparat vositalari ta’sir qiladi. Kompyuterning apparat vositalari ikki guruhga: markaziy va periferiyali qurilmalarga bo‘linadi.

Markaziy qurilmalar - ma’lumotlarga bevosita ishlov berishni ta’minlaydi va ularga markaziy prosessor, operativ xotira va kiritish-chiqarish prosessori kiradi.

Markaziy prosessor bajarilayotgan dastur, hisoblash jarayonini boshqarish va prosessor bilan birga ishlayotgan qurilmalarga muvofiq ravishda informatsiyani qayta o‘zgartirishga mo‘ljallangan. Kompyuterning texnik parametrlari ko’p jihatdan unda foydalanilagan prosessor turi bilan belgilanadi.

Prosessor – kompyuterning eng katta mikrosxemasi bo’lib, o‘nlab million tranzistorlardan tarkib topadi va ular yordamida har xil mantiqiy sxemalar yig‘iladi. Prosessorlar - markaziy, ixtisoslashgan, kiritish-chiqarish, ma’lumotlarni uzatish va kommunikatsion prosessorlarga bo’linad. Prosessorning asosiy ichki sxemalarini – arifmetik-mantiqiy qurilma, ichki xotira (registrlar) va kesh-xotira (o‘ta operativ xotira) barcha operasiyalarni boshqarish sxemalari va tashqi shinalarni boshqarish sxemalari («tashqi dunyo» bilan aloqa sxemalari) tashkil etadi. Prosessorlarning texnik tavsifi ishlab chiqarish texnologiyasi, tranzistorlar soni, tarmoq kuchlanishi, takt chastotasi, umumiy razryadliligi bilan ifodalanadi. Rivojlanish davomida prosessorlarning bir necha avlodlari almashdi, bu avlodlar o’zlarining texnik tavsifilari bilan bir-biridan farq qiladi, hozirgi kunda sakkizinchi avlod prosessorlari keng qo’llanmoqda.

Prosessor razryadliligi kompyuter unumdorligini belgilaydi. Tashqi shinalar orqali prosessorga ma’lumotlar va komandalar kiritiladi, komandalarga muvofiq arifmetik-mantiqiy qurilmada ma’lumotlarga ishlov beriladi, natija tashqi shinaga chiqariladi. Prosessor sxemalari qanchalik ko‘p razryadlarga ega bo‘lsa, u vaqt birligi ichida shunchalik ko‘p ma’lumotlarga ishlov beradi, ya’ni kompyuter unumdorligi bevosita prosessor razryadliligidan bog‘liq bo’ladi. Hozirga kompyuterlarda asosan 32 razryadli prosessorlar keng foydalaniladi, keyingi paytlarda 64 razryadli prosessorlar ham ishlab chiqilmoqda.

Prosessor chastotasi. Razryadlilikdan tashqari takt chastotaning ham ahamiyati katta (prosessor unga hisoblangan bo‘ladi). Takt chastota megagerts (MGts) va gigagerts (GGts) larda o‘lchanadi. Bir megagerts – bu bir sekundda million takt, bir gigagerts esa – milliard taktdir. Har bir taktda prosessor hisoblash operasiyasining qandaydir bo‘lagini bajaradi, shu sababli takt chastota qanchalik yuqori bo‘lsa, prosessor kelayotgan ma’lumotlarni shunchalik tez ishlaydi.

Operativ xotira ma’lumotlarni va dasturlarni saqlash, qabul qilish va chiqarish vazifalarini bajaradi.

Kiritish-chiqarish prosessorlari (kanallar) markaziy prosessor ishtirokisiz operativ xotira va periferiyali qurilmalari orasida informatsiya almashishini boshqarish, ularning ish tezliklarini muvofiqlashtirish, kiritish-chiqarishni dasturlashni unifikatsiyalash va yangi periferiyali qurilmalarini ulash imkonini ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Dasturni bajarishda prosessor operativ xotiradan navbatdagi komandani tanlab oladi va bu komanda bo‘yicha qanday amallar bajarilishi kerakligini aniqlaydi, talab qilingan amallarni bajaradi va shu vaqtning o‘zida operativ xotiradan keyingi komandani tanlab oladi, olingan natijani operativ xotiraga jo‘natadi va butun sikl boshidan takrorlanadi. Shunday qilib, prosessor va operativ xotira doimiy o‘zaro muloqotda bo‘lib istalgan dasturni bajarishadi, kerak bo‘lganda texnik tizimga kiritsh-chiqarish kanallari yordamida murojaat qiladi.

Periferiyali qurilmalariga kiritish, chiqarish, ma’lumotlarni tayyorlash va katta hajmdagi informatsiyalarni saqlash funksiyalarini bajaruvchi qurilmalar kiradi. Periferiyali qurilmalari ma’lumotlar mazmunini saqlagan holda ularning ifodalanish shaklini bir ko‘rinishdan boshqachaga o‘zgartiradi. Loyihalashni avtomatlashtirish texnik vositalari kompleksida foydalaniladigan periferiyali qurilmalarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

1) *tashqi xotira qurilmalar* - katta hajmli informatsiyalarni saqlash, har xil ma’lumotnoma tavsifidagi informatsiyani, namunaviy loyihaviy yechimlar va sh.k. o‘z ichiga olgan ma’lumotlar bazasini tashkil qilish uchun mo‘ljallangan;

2) *kiritish-chiqarish va alfavitli-raqamli informatsiyani hujjatlashtirish qurilmalari* - perfotashuvchilardan informatsiyani kiritish-chiqarishni va turli tashuvchilarda olingan loyihaviy yechimlarni hujjatlashtirishni amalga oshiradilar;

3) *Kompyuter bilan operativ aloqa qurilmalari* - muhandisga ixtiyoriy vaqtda qulay bo‘lgan usulda KL bilan muloqotda bo‘lish imkonini beradi (odatda bular – turli displeylar va nutqiy kiritish-chiqarish qurilmalari);

4) *mashina grafikasi qurilmalari* - grafik shaklda foydalangan informatsiyani kiritish-chiqarish va hujjatlashtirish uchun mo‘ljallangan;

5) *teledostup va kompyuter tarmoqlarini tashkil qiluvchi texnikaviy vositalar* - kompyuter bilan loyihalashni avtomatlashtirishning masofadagi foydalanuvchilari orasida, loyihalash tarmog‘i tashkil qilinganda loyihalashni avtomatlashtirish ning texnik vositalari kompleksiga kiruvchi barcha kompyuterlar orasida va loyihalashni avtomatlashtirish texnik vositalari kompleksi va hisoblash tarmog‘i orasida aloqani amalga oshiradi;

6) *texnologik jihoz bilan aloqa qurilmalari* - loyihalangan ob’yektlar haqidagi ma’lumotlarni oraliq tashuvchilarisiz, bevosita avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlariga, raqamli dasturda boshqariladigan dastgohlarga va boshqa shunga o‘xshash jihozlarga uzatish imkonini beradi;

7) *ma’lumotlarni tayyorlash qurilmalari* - kompyuter ishtirokisiz, avtonom ravishda turli tashuvchilarga ma’lumotlar va dasturlarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan. Ma’lumotlarni tayyorlash qurilmalari boshqa periferiya qurilmalari orasida alohida o‘rin egallaydi, chunki kompyuter bilan elektr yordamida bog‘langan va undan istalgancha uzoqlikda joylashgan bo’lishi mumkin.

Mashina grafikasi

Videoadapterlar vazifasi – monitor ekranida asliga maksimal yaqin sifatli tasvirni olishni ta’minlashdir, bu esa aks ettirilayotgan ranglar sonini ko‘paytirish; aniq va har xil tasvirlash qobiliyatini orttirish; tasvirni ekranga chiqarish tezligini tezlashtirish bilan erishiladi. Videoadapterlarning takomillashish davomida oraliq plata va standartlarning bir necha avlodi almashdi. MDA – *Monochrome Display*

Adapter (displeyning monoxrom adapteri), CGA – *Color Graphics Adapter* (rangli grafika adapteri), EGA – *Enhanced Graphics Adapter* (yaxshilangan grafika adapteri), VGA – *Video Graphics Array* videostandarti eng qulay, bugungi kungacha foydalanilayotgan bo‘lib, asta-sekin SVGA (*Super-VGA*) standartiga o‘tdi. *VGA* ning birinchi platalari 262 144 rang palitrasidan 256 rangni ekranga chiqardi. Keyinchalik *VGA* bilan birga mos keladigan juda ko‘p platalar paydo bo‘ldi, ularda mumkin bo‘lgan rang tuslari 16,8 milliongacha etdi (*True Color* rejimi).

Aniq va har xil tasvirlash qobiliyati (*razreshayushaya sposobnost’*) ekranga chiqariladigan tasvir nuqtalari – *piksellar*, gorizontal va vertikal bo‘yicha piksellar soni – 640x480, 800×600, 1024×768, 1280×1024, 1600×1200 va undan ko‘p nuqtali rejimlar qo‘llanmoqda.

Rang tasvirlash qobiliyati (*tsvetovoe razreshenie*) - tasvirning har bir nuqtasi uchun xotiraning necha biti ajratilganiga bog‘liq. Piksellar rangini kodirovkalash uchun sakkiz bit ajratilganda mumkin bo‘lgan ranglar soni 256 (ikkining sakkizinchi darajasida) ta, 16 bit 65 536 rang – *High Color* , 24 bit 16 777 216 rang - *True Color* rejimida erishiladi. Zamonaviy videoadapterlar bundan ham yuqori razryadga egalar, masalan bir nuqtaga 32 bit, lekin bunda ko‘rinadigan ranglar soni ortmaydi. Qo‘shimcha razryadlarda saqlanadigan informatsiya maxsus dasturlar tomonidan grafikani aks ettirish operasiyalarini tezlashtirish uchun yoki poligrafiya mahsulotini tayyorlashda kompyuterdan foydalanilganda rangni uzatishni yaxshilash uchun foydalaniladi.

Videoxotira - videokarta ta’minlaydigan aniq va har xil tasvirlash qobiliyati va rang chuqurligi qanchalik katta bo‘lsa videoxotiraga talab shunchalik katta bo‘ladi. Videoadapter platasiga yuqori tezlikda ishlaydigan maxsus xotira mikrosxemasi joylashtiriladi. Agar videoxotira 1 Mbayt xotiraga ega bo‘lsa, uning imkoniyati maksimal rejimda 256 rangda 1024×768 nuqta yoki 16,8 mln. rangda 640×480 nuqta bo‘ladi. Agar 2 Mbayt bo‘lsa, *True Color* rejimiga 800×600 nuqta tasvirlash qobiliyatida, 4 Mbayt bilan esa – 1280×1024 nuqtada erishiladi. Videoxotiraning namunaviy o‘lchami kompyuter vazifasiga bog‘liq. Faqat oddiy hujjatlar bilan emas balki multimediali ilovalar blan ham ishlashini ta’minlash talab etilganda videoadapter kamida 32 Mbayt xotirali bo‘lgani ma’qul.

Mashina grafikasining elektromexanik qurilmalari - *grafik informatsiyani avtomatik o‘zgartirish (kodlash va kodni ochish) ni ta’minlaydi, chunki kompyuter raqam shaklidagi informatsiya bilan ishlaydi. Bunday qurilmalar kompyuterga grafik informatsiyani kiritish va chiqarish uchun mo‘ljallangan bo’lib, ularga chizma avtomatlari va grafik informatsiyani kodlovchilar kiradi.*

Grafik informatsiyani kirituvchi qurilmalar - grafik informatsiyani raqamli shaklga o‘zgartirishni ta’vinlaydi. O‘zgartirishni jarayoni o‘qish va kodlash bosqichlardan iborat.

O‘qish – grafik elementni (nuqta, chiziq, elementar fragment) va qabul qilingan koordinatalar tizimida uning koordinatalarini aniqlash.

Kodlash – o‘qilgan informatsiyani belgilangan qoidalarga muvofiq raqamli kodga aylantirish.

Grafik informatsiyani kiritish qurilmalari avtomatik va yarim avtomatik qurilmalarga bo‘linadi.

Grafik informatsiyani avtomatik kiritish qurilmalari o‘zgartirishning kuzatuvchi yoki yoyuvchi (skanirovka qiluvchi) metodlaridan foydalanishadi. Ular faqat murakkab bo‘lmagan rasmlarni, masalan bitta argumentning birgina funksiyalari grafiklarini kodlashda qo‘llanadi, murakkab tasvirlarni kiritishda ancha qiyinchiliklar tug‘iladi.

Yarimavtomatik kiritish qurilmalari murakkab grafik tasvirlarni, masalan mashinasozlik chizmalarini tasvirlashda foydalaniladi. Ularda grafik informatsiyani o‘qishni shchup yoki vizir yordamida operator bajaradi. O‘qilgan informatsiyani elektron blok qabul qiladi va kodlaydi. Kodlangan informatsiya oraliq tashuvchiga, masalan magnitli lentaga yozilishi yoki kanal bilan tutashish bloki orqali kompyuterga uzatilishi mumkin.

Grafik informatsiyani kiritish qurilmasi ishchi maydon – planshetga ega bo‘ladi, unda hujjat hamda alfavitli-raqamli informatsiyani kiritish uchun alfavitli-raqamli va funksional klaviaturalar joylashadi.

Planshetda ishchi organ koordinatalarini tavsiflovchi kodlarni olish usuli bo‘yicha grafik informatsiyani kiritish qurilmalarini opto-mexanik, to’rli va boshqalarga bo‘lish mumkin.

Opto-mexanik qurilmalarda qo‘zg‘aluvchi koordinata tizimidan foydalanadi. Registratsiya qiluvchi organ – krestli linza ko‘rinishidagi vizir – ishchi maydon bo‘ylab ikkita karetka yordamida siljiydi. Aylanuvchi o‘yiqli disk vizir bilan bog‘langan. Fotoelektrik datchik impulslarni ishlab chiqadi, ular soni vizir siljishiga proportsional *x* va *y* koordinatalari bo‘yicha siljishga mos impulslar sonini hisoblagichlar hisoblaydi. Karetka harakati tugagach hisoblagichlarda qayd qilingan kodlar koordinatalar qiymatlariga mos keladi. Bu qurilmalarda koordinatalarni o‘lchash aniqligi 0,25...0,4 mm. Ularning kamchiligi – mexanik uzellarning murakkabligidir.

To’rli qurilmalar murakkab qo‘zg‘aluvchi mexanik uzellarga ega emas. Planshet tekisligi bir-biri bilan elektr izolyatsiyalangan o‘zaro perp endikulyar shinalar bilan diskretlanadi. Registratsiya qiluvchi organ (shchup) va to’r o‘tkazgichlari orasidagi aloqa sig‘imli, induktiv yoki kontaktli bo‘lishi mumkin. Birinchi ikki holda to’r shinalari tok impulsi bilan ketma-ket induktsiyalanadi (uyg‘onadi). Shchup ostida joylashgan shina uyg‘ongan paytda shchup datchigida elektr yurituvchi kuch uyg‘onadi. Hisoblagichda fiksatsiyalangan kod koordinata qiymatiga mos bo‘ladi. Kontakt qurilmalarda shchupni bosib to’r o‘tkazgich (sim)larini tutashtirishadi. To’rli kiritish qurilmalarda o‘lchash aniqligi to’r qadami bilan aniqlanadi va odatda 0,25... 0,5 mm bo‘ladi.

Qolgan qurilmalarga akustik va rezistivli qurilmalar kiradi. Aniqligining pastligi va chizmani sanchib teshish zarurati tufayli bunday qurilmalardan keng foydalanilmadi.

Insonning kompyuter bilan operativ aloqa qurilmalari

Avtomatlshtirilgan loyihalash tizimlari «inson-mashina» kompleksi tizimlariga kiradi. Insonning mashina bilan muloqot jarayonida informatsiyani

uzatishning ikki yo‘nalishini ajratish mumkin: mashinadan insonga; insondan mashinaga (boshqaruvchi ta’sir).

Inson informatsiyani har xil yo‘llar bilan qabul qilishi mumkin, bunda informatsiyaning eng ko‘p hajmi ko‘rish (~80%) va eshitish (~10%) kanallari orqali keladi. Inson texnik vositalarni muskul harakatlari va tovush orqali boshqaradi. Shunday qilib, muhandisning kompyuter bilan operativ muloqoti uchun avtomatlshtirilgan loyihalash tizimlarida informatsiyani vizual va tovushli aks ettiradigan vositalardan va boshqarishning qo‘lli yoki nutqli organlaridan foydalanish maqsadga muvofiqlidir. Lekin informatsiyani nutqli kiritish-chiqarishning zamonaviy qurilmalari hali ko‘p kamchiliklarga ega, shuning uchun avtomatlshtirilgan loyihalash tizimlari texnik vositalari kompleksida kam qo‘llanadi. Informatsiyani nutqli kiritish-chiqarish qurilmalarining rivojlanishi kelajakda muhandisning kompyuter bilan operativ muloqoti uchun ulardan keng foydalanish imkonini beradi. Hozirgi paytda avtomatlshtirilgan loyihalash tizimlarida informatsiyani vizual aks ettirish qurilmalari (displeylar) va texnik vositalarni qo‘lda boshqarish qurilmalari (klaviaturalar, planshetlar, nurli per, ko‘rsatkichlar, shturvallar va sh.k.) keng tarqalgan.

Displeylar. Monitorga ko‘p narsa bog‘liq: kompyuter bilan ishlash tezligi, komfort va eng ahamiyatlisi – foydalanuvchining o‘zini qanday his qilishi. Bugungi kunda asosan ham grafik, ham alfavitli-raqamli informatsiyani chiqarish imkoniga ega grafik displeylar keng qo’llanadi. Displeylarning asosiy parametrlari: aks ettirilayotgan informatsiya hajmi; ekran ishchi qismining o‘lchamlari; ekranda aks ettirilishi mumkin bo‘lgan simvollar soni; tasvir almashinishi tezligi; informatsiya aks ettirilishi sifati; ekranda ixtiyoriy informasion zonalarni ajratish usuli. Monitorning asosiy parametri – diagonal bo‘yicha ekran o‘lchami bo’lib, dyuymda o‘lchanadi. Asosan 14″, 15″, 17″, 19″, 21″ o‘lchamli monitorlar ko’p ishlab chiqilgan bulib, bugungi kunda 19″ va 21″ o‘lchamli monitorlar ishxonalarda va uy kompyuterlarida keng foydalanilmoqda.

Ko’rgazmali materiallar





Savollar

1. KL texnik vositalar kompleksiga quyiladi talablarni bayon qiling.
2. Kompyuterning asosiy texnika parametrlarini bayon qiling.
3. Kompyuterning apparat vositalari haqida aytib bering.
4. Kompyuterlarning markaziy qurilmalarini bayon qiling.
5. Prosessor, uning razryadligi va takt chastotasi haqida aytib bering.
6. Avtomatlashtirilgan loyihalash kompyuterlarining periferiyali qurilmalari bayon qiling.
7. Mashina grafikasi haqida asosiy tushunchalarni bayon qiling.
8. Videoadapterlar haqida so‘zlab bering.
9. Kompyuterda videoxotiraning ahamiyatini aytib bering.
10. Grafik informatsiyani kiritish va chiqarish qurilmalarini bayon qiling.

10-MAVZU. LOYIHALASHNI AVTOMATLASHTIRISHDA MATEMATIK MODELLAR VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH.

1. Matematik model
2. Matematik modellarda loyiha ob'ektini tavsiflash
3. Matematik modellar klassifikatsiyasi
4. Matematik modellarga quyiladigan talablar
5. Matematik modellarni olish metodikasi

Tayanch so’zlar va ifodalar:

Matematik model, parametr, loyiha ob'ektini tavsiflash, morfomantiqiy tavsif, funksional tavsif, strukturaviy model, geometrik model, nazariy model, tajribaviy model.

Avtomatlashtirilgan loyihalashning matematik taminoti loyihalanayotgan obektning matematek madeli, loyihalash proseduralarini bajarishning usullari va algoritlarini o‘z ichiga oladi.

Matematik modellar avtomatlashtirilgan loyihalash proseduralarida ob'ekt xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Agar loyihalash prosedurasi ob'ekt haqidagi foydali ma'lumotlarni olish maqsadida matematik model yaratish va uni ustida operasiyalar bajarishni o‘z ichiga olsa loyihalash matematik modelodellashtirish asosida bajariladi deyiladi.

Loyihalash jarayonini avtomatlashtirish loyihalanadigan ob’ektning matematik modelini tuzishdan boshlanadi. Ifoda qilinishi kerak bo’lgan xususiyatlari nuqtai-nazaridan loyihalanadigan ob’ektni morfomantiqiy va funksional tavsiflash mumkin (11-rasm).

Morfomantiqiy tavsif loyihalanadigan ob’ektining strukturaviy va geometrik modellarini tuzish orqali bajariladi va umuman olganda quyidagi to’plamlardan tashkil topadi:

$$S = \{E, A, S\}, \qquad (11.1)$$

bu urda E-elementlar to’plami, A-aloqalar to’plami, S-ierarxik satihlarga taqsimlangan strukturalar to’plami.

Strukturaviy model elementlarning fazoda joylashishini va o’zaro aloqalarini aks ettiradi. Strukturaviy modellar grafiklar, matritsalar, vektorlarda ifodalanadi. Shu sababdan bu modellarda loyiha ob’ektida sodir bo’ladigan fizik jarayonlar hisobga olinmaydi.



11.1-rasm. Loyihalanadigan ob’ektining matematik modellariga doir

Geometrik modellarda loyiha ob’ekti va uning qismlarini shakllari tavsiflanadi.

Loyiha obektining funksional modellari ularning chiqish va tashqi parametrlari o’rtasidagi munosabatlarni tavsiflab beradi va umuman olganda quyidagicha yoziladi:

$$U = F(t,s,x,q) \qquad (12)$$

bunda U - chiqish parametrining vektor funksiyasi,

X - ichki parametrlarning vektor funksiyasi,

Q - tashqi parametlarning vektor funksiyasi,

Ғ - operator vektor funksiyasi.

Umuman olganda U, X, Q lar vaqt t va fazoviy koordinata S=(x,u,z) larning funksiyalaridir.

Tuzish usullari asosida funksional modellar nazariy va eksprimental (tajribaviy) modellarga ajratiladi. Nazariy modellar asosida fundamental fizik qonunlar yotadi.

Agar modellashtirilayotgan jarayonning fizik tomonlari noma’lum yoki etarli o’rganilmagan bo’lsa, tajribaviy modellar tuzishga o’tiladi. Bu modellar ko’pincha regression analiz munosabatlarida ifodalanadi.

Avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonida qo‘llanadigan matematik model turlari quyidagi belgilar bo‘yicha klassifikatsiyalanadi.

Klassifikatsiya belgilari	Matematik modellar
Ob'ektning ifodalanadigan xususiyati xarakteri bo‘yicha	Strukturaviy – topomantiqiy, gometirik Funksional – fizik
Israrxik bosqichga tegishliligi bo‘yicha	Mikrobosqichdagi Makrobosqichidagi Metabosqichidagi
Bir bosqich ichida detallashganlik darajasi bo‘yicha	To‘liq Makromodellar
Ob'ekt xususiyatlariini ko‘rsatish	Analitik

usullari bo‘yicha	Algoritlik Imitatsion
Matematik modellarni olinish usuli bo‘yicha	Nazariy Emperik

Elementlarni matematik modellarni olish metodikasi.

Matematik modellarni universalligi, adekvatligi, aniqligi va iqtisodiy talablar quyiladi. Elemetlarni matematik modelini olish prosedurasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Ob'ektning matematik modelida o‘z aksini topishi kerak bo‘lgan xususiyatlarini tanlash. Matematik modelning universallik darajasini aniqlaydi.

2. Ob'ektning tanlangan xususiyatlari haqida informatsiyalar yig‘ish. Ma'lumot uchun asos bo‘lib modelni tuzuvchi injenerning tajribasi va bilimi, ilmiy texnik adabiyotlari tadqiqot qilinayotgan elementga xususiyati jihatidan yaqin bo‘lgan elementlarning mavjud bo‘lgan matematik modeli, element parametrlarini eksperimental o‘lchash natijalari va shu kabilar xizmat qilishi mumkin.

3. Matematik model strukturasi tarkibi sintezi.

Matematik model strukturasi bu modelda ko‘rilayotgan parametrlarning son qiymatlari konkretlashtirilmagan matematik munosabatlarning umumiy ko‘rinishi.

Modelning strukturasi grafik shaklda masalan ekvivalent sxemalar yoki grafik shaklida ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin. Model strukturasi sintezi matematik modelni tuzishda eng muhim va qiyin operasiya hisoblanadi.

Parametrlarning son qiymatlarini hisoblash bu operasiyada berilgan struktura modelidagi yuzaga keladigan xatoliklarni minimallashtirish masalasi quyiladi. Ya'ni

bu yerda X - model parametrlari vektori

X_D - parametrlarning o‘zgarish oblasti

- parametrlarning nisbiy xatoligi

X - parametr funksiyasi

Eksperimental yoki fizik natijalari bo‘yicha aniqlanadi yoki aniqroq matematik model yordamida aniqlanadi.

4. Matematik modelning aniqligi va adekvatligini aniqlash.

Matematik model aniqligini baholash uchun masaladagi U_i haqiqiy qiymatidan foydalaniladi.

Ko’rgazmali materiallar

9-mavzu. Loyihalashni avtomatlashtirishda matematik modellar va matematik modellashtirish.







Savollar

1. Matematik model nima.
2. Matematik modellarda loyiha ob'ektilarini qanday tavsiflash mumkin.
3. Matematik modellar klassifikatsiyasini keltiring.
4. Matematik modellarga quyiladigan talablarni tushintiring.
5. Matematik modellarni olish metodikasini tushintiring.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

«KOMPYUTERLI LOYIHALASH»
o’quv fanidan
laboratoriya ishlari

Navoiy-2025

LABORATORIYA ISHI № 1

SolidWorks, KOMPAS kabi tizimlarda mashina va mexanizmlari va detallarining chizmalarini tayyorlash

Ishning maqsadi: SolidWorks, KOMPAS dasturi bilan tanishish va o'rtacha murakkablikdagi detallarni SolidWorks va KOMPAS dasturlari yordamida loyihalash.

Ishni bajarish uchun kerak bo'ladigan asbob va jihozlar:

1. «Windows» operatsion sistemasi va SolidWorks va KOMPAS dasturi o'rnatilgan «Pentium IV» kompyuteri.
2. O'rtacha murakkablikdagi detallar namunalari.
3. Detallarni o'lchash uchun o'lchov asboblar.
4. Bajarilgan ishni chop etish uchun plotter yoki printer.

Nazariy ma'lumotlar

KOMPAS dasturi Rossiya Federatsiyasining ASKON kompaniyasida ishlab chiqilgan. KOMPAS dasturi detallar ishchi chizmlarini va shu chizma bo'yicha detalning tayyorlanish texnologik jarayonini tuzish imkonini beradi. Bundan tashqari KOMPAS dasturi tuzilgan texnologik jarayon asosida SDBli dastgohlar uchun dastur tuzish va ishlov berish vaqtida ularning ishini boshqarish imkonini beradi. KOMPAS dasturi OS «Windows» muhitida ishlaydi, KOMPAS dasturi loyihalanayotgan detallarning izometrik va dimetrik ko'rinishlarini yaratish imkoniyatiga ega.

Uch o'lchamli modellashtirish

Bir nechta qattiq jismlarni bitta detalda yaratish imkoniyati tug'ildi(.m3d faylida). Detaldagi jismlarning umumiy miqdori "Derevo postroeniya"da aks etadi. Tizimda ishida ko'p jismli modellashtirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi o'zgarishlar amalga oshgan

1.1. Detal asosini yaratish buyrug'I (***Operatsiya vidavlivaniya***, ***Operatsiya po secheniyam*** va boshqalar) va elementlarni yopishtirish(yelimlash) buyruq(komanda)lari(***Prikleit' vidavlivaniem***, ***Prikleit' po secheniyam*** va boshqalar) juft-juft bo'lib birlashtirilgan. Hosil bo'lgan buyruqlar asoslar yaratish buyrug'i nomini saqlab qolgan va detalga material qo'shish uchun xizmat qiladi. Ularning har birini bajarish vaqtida, hamda listli jism yaratishda yaratilayotgan element alohida yoki uni mavjud jismga yopishtirish kerakligini ko'rsatish mumkin. Detaldagi listli jism faqat bitta bo'lishi mumkin.

1.2. Elementlarni yopishtirish va qirqishda, hamda ***Otverstie***, ***Sechenie poverxnost'yu*** va ***Sechenie po eskizu*** buyruqlarini bajarishda operatsiyaning qo'llanilish sohasini ko'rsatish mumkin, bunda operatsiya - operatsiya ta'siri tarqalgan jismlar to'plami.

a. Jismlarni nusxasini detalga olish faqatgina ***Zerkal'no otrazit' vse*** buyrug'i yordamida amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga bu buyruq nomi ***Zerkal'no otrazit' telo*** ga o'zgartirilgan. Massivlar yaratishning qolgan buyruqlari avvalgidek elementlarni nusxasini olish uchun xizmat qiladi.

b. Detal ichidagi jismlar ustidan operatsiya bulevasini bajarish uchun ***Buleva operatsiya*** buyrug'i paydo bo'ldi. ***Buleva operatsiya*** buyrug'ini chaqirish tugmasi ***Redaktirovanie detali*** panelida joylashgan.

2. Listli detallarni modellashtirish.

2.3. Yopiq konturli ochiq va yopiq shtamplar tizilishi imkoniyati paydo bo'ldi. **Zamikanie uglov** buyrug'i qayta ishlandi. Tutashtirishning yangi usuli paydo bo'ldi - ***Plotnoe zamikanie*** va egiklarni tutashtirilgan egilgan joylarni ishlov berish variantini tanlash imkoniyati paydo bo'ldi:

- ***Bez obrabotki***,
- ***Stik po kromke***,
- ***Stik po xorde***.

3. ***Prostranstvennaya lomanaya*** buyrug'i qayta ishlandi:

3.1. Yangi tizilishlar usullari qo'shildi:

- ***Parallel'no ob'ektu***,
- ***Perpendikulyarno ob'ektu***.

Siniq chiziq xarakterli nuqtalari ko'chirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ikkita tipdagi nuqtalar mavjud: ***Xarakternie tochki vershin*** i ***Xarakternie tochki radiusov vershin.***

4. Bo'shliqda nuqta yaratish imkonini beruvchi ***Tochka*** buyrug'i paydo bo'ldi. Nuqta joylashuvi ixtiyoriy bo'ishi mumkin. ***Tochka*** burug'ini chaqiruvchi tugma avvalgidek ***Prostranstvennie krivie*** panelida joylashgan.

Grafik hujjatlar

3. Chizmalarni rasmiylashtirish bir qator obyektlari qayta ishlandi, bunda foydalanuvchiga har xil standartlar(ESKD, SPDS, ISO va boshqalar) bo'yicha hujatlarni rasmiylashtirish imkoniyati tug'ildi.

3.4. O'lchamlar strelkalarining yangi ko'rinishlari, yangi chiziqlar tizimi hamda filtrlar paydo bo'ldi.

3.5. Pozitsiyalar belgilanishi va vinoska-chiziqlar geometrik parametrlarini sozlash imkoniyati tug'ildi.

1.3. O'lchamlar qo'yib chiqishda endi dopusklar belgilanishi va o'lcham yozuvida chegaraviy chetlanishlar belgilanishi parametrlarini boshqarish mumkin.

1.4. Vinoska-chizig'ini qo'yishda polka ortida yozuv kiritish imkoniyati paydo bo'ldi.

1.5. Pozitsiyalar belgilanishini qo’yishda belgilash shaklini tanlash va qatorga(bir nechta nomerlardan iborat qatroni belgilash uchun). pozitsiya nomerlari joylashuvi imkoniyatlari paydo bo’ldi.

1.6. O’lchamlar, vinoska-chiziqlarini sozlash va pozitsiyalarni belgilash mos ravishda **Razmeri**, **Liniya-vinoska** i **Oboznachenie pozitsii** bo’limlarida amalga oshriladi, bunda **Novie dokumenti** — yangi grafik hujjatlar uchun vkladka, **Tekushiy dokument** — hozirgi hujjat uchun vkladka. **Sistema** vkladkasidan **Graficheskiy redaktor - Parametri novix razmerov** punkti olib tashlangan. Bu punktning boshqaruv elementlari **Razmeri** bo’limining turli xil punktlariga ko’chirilgan.

3.7. Chiziq filtrlarini sozlash sozlash dialogida paydo bo’lgan **Lin*ii*** bo’limining **Fil’tri liniy** punktida amalga oshiriladi. Avval sozlash dialogida mustaqil bo’lim hisoblangan ***Osevaya liniya*** bo’limi endi ***Linii*** bo’limining punktiga aylandi

4. ***Liniya*** buyrug’i paydo bo’ldi, bu buyruq kesma va aylana yoylaridan iborat chiziqlarni tezda tizilishi uchun mo’ljallangan. Kesma yoki yoy yaratish usuli tizim tomonidan foydalanuvchi qaysi bazaviy obyektlar ko’rsatganligiga qarab avtomatik ravishda aniqlanadi. ***Liniya*** buyrug’ini chaqirish uchun tugma ***Geometriya*** panelida joylashgan.
5. Chizmalarda ssilkalar bilan ishlashning yangi imkoniyatlari paydo bo’ldi.

5.8. Endi texnik talablarda ham ssilkalar yaratish mumkin.

5.9. Ssilkalar manablarining yangi tiplari: ***vid*** va ***texnicheskie trebovaniya***.

5.10. Ko’rinish(vid) va texnik talablardan tashqari barcha tipdagi manba(istochnik)lar uchun varaq nomeriga ssilka yaratish imkoniyati paydo bo’ldi.

- Agar ssilka manbasi - ko’rinish bo’sa, unda ko’rinish mashshtabiga ssilka bo’lishi mumkin, "razvernuto" belgisi, "povernuto" belgisi, burilish burchagi qiymati.
- Agar ssilka manbasi - texnik talablar bo’lsa, unda faqat punkt nomeriga ssilka bo’lishi mumkin.

5.11. Ssilka yaratish dialogida ssilka matnini ajratishda ushbu ssilka manbasi hujjat oynasi(texnik talablardan tashqari barcha turdagi manbalar uchun)da yoritiladi.

6. Chizma ko’rinishida yangi xususiyat paydo bo’ldi - belgilash. Ko’rinishni belgilash o’z ichiga quyidagilarni oladi: ushbu ko’rinish masshtabi va parametrlariga ssilkalar - nom, varaq nomeri va rasmiylashtirish obyektining ko’rinishi bilan bog’liq bo’lgan zona(kesishish chiziqlari yoki strelkalar). Ko’rinishni belgilashda ssilkalarning mavjudligi bu belgini tezda yangilash imkonini beradi. Kesishish chiziqlari yoki strelkalarni yaratish buyrug’i yakunlangandan so’ng yaratilgan obyekt bilan bog’liq ko’rinish avtomatik ravishda shakllanadi. Agar kesishish chiziqlari yoki strelkalar assotsiatsion ko’rinishda yaratilsa, unda assotsiatsion ko’rinish va uning belgilanishi mos ravishda avtomatik tarzda shakllanadi.
   Ko’rinish belgilanishi ko’rinish tarkibida tahrir qilinishi mumkin, buning

uchun svoystva panelidagi paydo bo'lgan **Oboznachenie vida** vkladkasi xizmat qiladi yoki matnli obyekt sifatida ham tahrir qilish mumkin.

7. ***Liniya razreza/secheniya*** buyrug'i qayta ishlandi.
   7.12. Endi oddiy kesimli chiziqlar qurish mumkin. Uni yaratish uchun ikkita nuqtani ko'rsatish yetarli. Murakkab kesim yaratish uchun maxsus boshqaruv panelidagi ***Slojniy razrez*** tugmasini bosish talab etiladi. Bundan keyin chiziqning sinish nuqtalarini ko'rsatish mumkin.
   7.13. Svoystva panelida joylashgan ***Strelki sprava/sleva*** pereklyuchatellari olib tashlangan. Endi strelkalar yo'nalishini ko'rsatish uchun sichqoncha bilan chiziqning kerakli tomonidan bosish kifoya.
   7.14. Maxsus boshqaruv panelida ***Avtosozdanie ob'ekta*** tugmasi qo'shilgan. Umolchaniye bo'yicha u bosilgan holatda bo'ladi, va kesishish chiziqlari ikki nuqta va sterlka yo'nalishi ko'rsatilgandan so'ng avtomatik tarzda yaratiladi.
8. Ko'rinishlar va qatlamlar holati endi ***Menedjera dokumenta*** chaqiruvisiz amalga oshirish mumkin, bunda ***Tekushee sostoyanie*** panelidagi ko'rinishlar va qatlamlar holati ro'yxati yordamida amalga oshirish mukin. Ko'rinish yoki qatlam nomeri/nomi oldidan bu ro'yxatlarni ochishda Aktivnost', Vidimost' va TSvet znachoklari tasvirlanadi, bu znachoklar ko'rinish yoki qatlamning hozirgi rangi holatini ko'rsatadi. Aktivnost' va Vidimost' znachoklari holatini o'zgartirish uchun ular ustidan sichqoncha bilan bosish kifoya. Ro'yxatda ko'rinish yoki qatlamni ajratishda u endi hujjat oynasida yoritilib turadi.
9. Yashirin va biblioteka komponentlarining yangi assotsiativ ko'rinishlarida tasvirni o'chirish imkoniyati paydoi bo'ldi. Bu ko'rinishlar tizilishini tezlashtiradi. Sozlash uchun ***Parametri dokumenta - Vid*** bo'limida paydo bo'lgan ***Peredavaemie komponenti*** optsiyalar guruhi xizmat qiladi.
Natijalar

Nazariy savollar:

1. Natijalarni kuzatish. Maksimal harakat qanday?
2. Simulation nima u ?
3. Egilishga sinash uchun qaysi etaplardan o’tish kerak?
4. Nega Simulation amali kerak?

Mustaqil ta’lim mashgulotlari
Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo'riqnoma

Yo’riqnoma, nizom va qoidalar
Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo'riqnoma

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni tug‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.
Ma’lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur’atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma’lumotlarni faqat dars mashg‘ulotlari paytida talabalarga yetkazish kiyin.
Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo‘ladi.
Shuning uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘llanma berish oliy ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.
Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashkarida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.
O‘qishning boshlang‘ich bosqichlarida TMIni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog‘liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta’limning navbatdagi turi - oliy ta’lim talablarga ko‘nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta’lim olish jarayonida o‘z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma’lumotlarni qaysi manbadan, kanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o‘z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o‘z vaqtlarini tug‘ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash ular uchun katta muammo bo‘ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta’lim olishga ruhan tayyor bo‘lishmaydi.
Shuning uchun xar bir professor-o‘qituvchi dastlab talabada o‘z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg‘otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to‘g‘ri tashkil qilishga o‘rgatib borishi lozim bo‘ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalariing kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko‘nika boshlagan talaba faqat o‘qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina

qolmay, o‘zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga karab, o‘zi zarur deb hisoblagan qo‘shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganib boradi.
Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:
- o‘qish bosqichi;
- muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.
Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. Ya’ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o‘rgatib borish kerak bo‘ladi.
TMIni tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:
• fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;
• amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish;
• ma’lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
• kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
• bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to‘plash;
• hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
• maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
• amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
• ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;
• amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
• uy vazifalarini bajarish va boshqalar.
Fan hususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o‘ylab ishlab chiqilgan va ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning auditoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga xizmat qilishi kerak.
Mavzuni mustaqil o‘zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga hizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat kiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.
Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda

(o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h-k.) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar.
Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.
Referat tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi.
Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.
Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h-k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma’lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo‘yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.
Talaba ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.
Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzish topshiriladi.
Bunda o‘qituvchi tomonidan talabaga testga qo‘yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, toshpiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo‘yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to‘ldirish taklif etilishi mumkin).
Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada eskpertlar ishtirokida himoya qilinadi.
Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash. Talabaga biron bir mavzu bo‘yicha (mavzuni talabaning o‘zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) harakterda maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o‘quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to‘playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo‘shimchalar, izohlar kiritadi, o‘z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.
Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma’ruza kafedrada himoya qilinadi.
Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash. Bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha nostandart, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy axamiyatga ega bo‘lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshrilishi

mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo‘lishi kerak.
Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o‘qituvchi bilan xamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.
Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:
tizimli yondoshish;
barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
bajarilishi ustidan qatiy nazorat o‘rnatish;
tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.
Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:
maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.) aniq asoslanishi;
vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo‘lishi;
maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g‘ri belgilanishi (yo‘llanma va ko‘rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari buyicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va h.k.);
hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma’ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko‘rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).
Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:
auditoriyada amalga oshiriladigan TMIlari: o‘tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;
auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMIlari: o‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laborotoriya ishlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.
Ikkinchi tur ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgalangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.
Talabalar mustaqil ishini baholash. TMI natijalari amaldagi "Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tug‘risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Talabalar mustaqil ishi bo‘yicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi:
1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo‘yicha konsultatsiyalar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo‘ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qildib borish maqsadida tashkil qilinadi.
2. TMI bo‘yicha konsultatsiya darsi fanning kalendar tematik rejasiga muvofiq o‘tkaziladi.
3. Konsultatsiya darsi tegishli fan o‘qituvchisi tomonidan o‘tkaziladi.
4. Fan o‘qituvchisi konsultatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:
• TMI topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanma beradi;
• topshiriq bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
• tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya etadi;
• TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.
5. TMI bo‘yicha konsultatsiyalar o‘quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.
6. TMI bo‘yicha konsultatsiya darslari o‘qituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

Mustaqil mashg’ulotlarning nomi va mazmuni.

Kompyuterli loyihalshning rivojlanish tarixi. KL paydo bo’lish tarixi.
KL qurilishining asosiy etaplari. KL ning mashinasozlikdagi o’rni.
«KOMPAS» dasturiy ta’minoti
Dasturning tayinlanishi va tarkibiy qismlari.
Dasturning imkoniyatlari va kamchiliklari. «KOMPAS» yordamida 3D modellashtirishning asoslari.
«AUTO CAD» dasturiy ta’minoti
Dasturning tayinlanishi va tarkibiy qismlari.
Dasturning imkoniyatlari va kamchiliklari.
Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan loyihalashning asosiy muammolari.
Texnologik jarayonlarni loyihalashning asosiy bosqichlari. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan loyihalashning dasturiy modullari.
Tizimli loyihalashning asoslari.Tizimli loyihalashning usullari. Tizimli loyihalashning muammolari. Tizimli loyihalashning dasturiy ta’minoti.
KL rivojlanish istiqbollari.
Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimlari uchun yangi dasturiy ta’minotlar.
Dasturiy ta’minotlarning yangi imkoniyatlari.

FAN BO'YICHA GLOSSARIY

Loyihalash – bu ob'yektning birlamchi bayoni va (yoki) uni mavjud qiladigan algoritm asosida berilgan sharoitda ham mavjud bo'lmagan ob'yektni yaratish uchun zarur bo'lgan bayonini tuzish jarayonidir. Loyihalash berilgan talablarga javob beradigan, yangi buyumni yaratish yoki yangi jarayonni amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo'lgan loyihalanadigan predmet bayonini olish maqsadidagi izlanish, tadqiqot, hisob va konstruktsiyalash bo'yicha ishlar majmuidir.

Loyihalashni avtomatlashtirish – loyihani ishlab chiqish jarayonini bajarishning shunday usuli tushuniladiki, bunda loyihalash protseduralari va operatsiyalari loyihalovchining EHM bilan chambarchas muloqotida amalga oshad.

Kompyuterli loyihalash tizimi (KL) – avtomatlashtirilgan loyihalashni bajaruvchi loyihalovchi tashkilot yoki mutaxassislar jamoasi bilan bog'langan avtomatlashtirilgan loyihalash vositalarining majmuidir.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) – ma'lumotlar strukturasi ko'rinishida tashkil qilingan informatsion baza bilan ishlashni ta'minlaydigan dasturaviy-metodik kompleksdir.

Mashina grafikasining dasturaviy-metodik komplekslari (DMK) foydalanuvchining EHM bilan muloqotida grafik informatsiya almashinuvini, geometrik masalalarni yechishni, tasvirlarni shakllantirishni va grafik informatsiyani avtomatik ravishda tayyorlashni ta'minlaydi.

KLning dasturiy ta'minoti avtomatlashtirilgan loyihalashni bajarish uchun zarur bo'lgan hamma dasturlar va ekspluatatsion hujjatlaridan iborat. Dasturaviy ta'minot umumtizimiy va maxsus (amaliy)larga bo'linadi.

KL matematik ta'minoti asosini algoritmlar tashkil qiladi; bu algoritmlar bo'yicha KLning dasturaviy ta'minoti ishlab chiqiladi. KLda matematik ta'minotning elementlari har xil bo'ladi. Ular ichida invariant elementlar – funktsional modellarni tuzish printsiplari, algebraik va differentsial tenglamalarning sonli yechimi metodlari, ekstremal masalalarni qo'yish, ekstrimumni qidirishlar mavjud.

KLning texnikaviy ta'minoti – avtomatlashtirilgan loyihalashni bajarish uchun mo'ljallangan o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi texnikaviy vositalar majmuidir.

KL lingvistik ta'minoti asosini maxsus til vositalari (loyihalash tillari) tashkil qiladi; ular avtomatlashtirilgan loyihalash protseduralarini va loyihaviy yechimlarni bayon qilish uchun mo'ljallangan. Lingvistik ta'minotning asosiy qismi – insonning EHM bilan muloqot qilish tillari. Loyihalashning muammoli-yo'nalgan tillari (MYT) loyihalashning algoritmik tillariga (Visual Basic, Visual C++, Delphi, Java, Visual Fox Pro va sh.k.) o'xshash.

AutoCAD - AQSh Autodesk kompaniyasining avtomatik loyihalash paketi bo'lib, kompyuterli modellashtirish va loyihalash ishlarini sifatli bajarishda, foydalanuvchiga texnikaviy chizmalarni tez va malakali, yuqori darajali aniqlikda ishlab chiqishda, hamda bir vaqtda qog'ozga chiqarish imkoniyatini beradigan tizimdir.

MathCAD paketi muxandislik hisob ishlarini bajarish uchun dasturiy vosita bo'lib, u professional matematiklar uchun mo'ljallangan. Uning yordamida o'zgaruvchi va o'zgarmas parametrli algebraik va differentsial tenglamalarni echish,

funktsiyalarni tahlil qilish va ularning ekstremumini izlash, topilgan echimlarni tahlil qilish uchun jadvallar va grafiklar qurish mumkin.

MATLAB sistemasi - kompyuterda turli yo'nalishdagi: mexanika, matematika, fizika, muxandislik va boshqaruv masalalarini yechish, turli xil mexanik, energetik va dinamik sistemalarni modellashtirish, loyihalash, tavsiflash va tahlil qilish masalalarining aniq, tez, samarali hal etish uchun mo'ljallangan sistema va turli xil sohali foydalanuvchilarga muljallangan dasturlash tilidir.

Massiv – bir turdagi ma'lumotlarning raqamlangan va tartiblangan to'plamidir.
Amaliy dasturlar paketi (ADP**)** – **bu muayyan (funksional tizimosti, biznes- ilova) sinf vazifalarini hal etish uchun mo'ljallangan dasturlar majmui.**

Axborot jamiyati – ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatidir.

Axborot zahiralari – aloxida hujjat va alohida hujjat to'plami, axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) dagi hujjatlar va hujjatlar to'plamidir.

Axborot texnologiyasi (AT) – ob'yekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig'ish, qayta ishlash va uzatish (boshlang'ich axborot) vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Videomonitor (displey)-ShK ga kiritiladigan va undan chiqadigan axborotni aks ettiruvchi moslamadir

Dasturiy interfeys – hisoblash tizimi doirasida qurilma va dasturlar o'zaro ta'sirini ta'minlovchi vositalar yig'indisi.

Duragay hisoblash mashinalari (DXM) – kombinatsiyalashgan holda amal qiluvchi hisoblash mashinalari bo'lib, hamda raqamli ham o'xshashli shaklda taqdim etilgan axborot bilan ishlaydi; ular UXM va RXMning afzalliklarini o'zida jo etgan.

Informatika – kompyuterlar yordami va ularni qo'llash muhiti vositasida axborotni yangilash jarayonlari bilan bog'liq inson faoliyati sohasidir.

Ishchi stantsiyalar – muayyan turdagi (grafik, muxandislik, nashriyot va boshqalar) ishlarni bajarishga ixtisoslashtirilgan bir kishi foydalanadigan qudratli mikro- EHM lardir.

Kibernetika – texnik , biologik, ijtimoiy va boshqa turli tizimlarda boshqaruvning umumiy tamoyillari haqidagi fandir.

Klaviatura – son bilan ko'rsatiladigan, matnli va boshqariluvchi axborotni ShKga qo'l yordamida kirishi uchun mo'ljallangan moslama.

Qobiq – biror bir dastur va foydalanuvchi o'rtasidagi katlam yoki boshqa dastur ustida uskurtma bo'lgan dastur.

Mijoz (klient) – vazifa, ishchi stansiya yoki kompyuter tarmog'idan foydalanuvchi.

Operatsion tizim (OT) – bu EHM zahiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir.

Printer – axborotni qog'ozga tushiruvchi moslama.

Raqamli hisoblash mashinalari (RXM) – diskretli ishlaydigan hisoblash mashinalari bo'lib, diskret, aniqrogi raqamli shaklda taqdim etilgan axborot bilan

ishlaydi.

Sensor ekranlar – tasvirlar, dastur yoki buyruqlar ayrim elementlarini displey ekranida ShK ga kiritish uchun mo'ljallangan.

Serverlar – barcha stansiya tarmoqlaridan olingan so'rovlarni qayta ishlash uchun ajratilgan ko'p kishi foydalanadigan qudratli mikroEHMlardir.

Skaner – qog'ozli tashuvchilardan avtomatik hisoblash va ShK ga mashinada yozilgan matnlar, grafiklar, rasmlar, chizmalarini kiritish uchun mo'ljallangan moslama.

Tezaurus – axborotdan foydalanuvchi yoki tizimga ega bo'lgan ma'lumotlar jamlanmasidir.

Telekommunikatsiya – kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Uzel – tarmoqning uzatish vositasiga ulangan har qanday qurilma.

O'xshashli hisoblash mashinalari (UXM) – uzluksiz ishlovchi hisoblash mashinalari bo'lib, uzluksiz (o'xshashli) shaklda, ya'ni biror bir fizik kattalik (hammadan ko'proq elektr kuchlanishi) qiymatlarining uzluksiz qatori ko'rinishida taqdim etilgan axborot bilan ishlaydi.

Fayl – axborot tashuvchi mashinaga taqdim etilgan ma'lumotlarning nomlangan yig'indisi.

Foydalanuvchi interfeys – foydalanuvchining dasturiy yoki EHM bilan o'zaro ta'siridagi dasturiy va apparat vositalaridir.

Shaxsiy kompyuterlar (ShK) – hammaboplik va qo'llashda universallik talablarini qoniqtiruvchi bir kishi foydalanadigan mikroEHMlardir.

Power Point - bu grafik dasturlar paketi bo'lib, elektron slaydlarni tayyorlash, ular bilan tanishishni uyushtirish va slayd-filmlarni namoyish etishga tayyorlaydi.

Prezentatsiya - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish, tarqatiladigan material, dokladni plani va konspekti shaklida bitta faylda saqlanadi.

Slayd - bu prezentatsiyaning alohida kadri bo'lib, o'z ichiga matnni, sarlavhalarni, grafik va diagrammalarni olishi mumkin.

Dizayn qolipi - professional tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan grafiklar, bo'yoqlar, jilolar, tovushlar namunasi bo'lib, ular slaydlarda ishlatish uchun mo'ljallangan.

Ranglar sxemasi - bu 8 xil ranglardan tashkil topgan to'plam bo'lib, prezentatsiyalar uchun asosiy ranglar sifatida ishlatiladi.

Animatsiya - bu slaydlarni namoyish qilish va ko'rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig'indisidan iborat.

Operatsion tizim (OT) – bu EHM zaxiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir

ГЛОССАРИЙ

Разработка - это процесс создания описания, которое необходимо для создания объекта, который не существует даже в контексте первичного объекта и / или его существующего алгоритма. Дизайн представляет собой набор исследований, дизайна, дизайна и строительных конструкций, предназначенных для удовлетворения конкретных потребностей проектируемого объекта, который необходим и достаточен для создания нового продукта или для осуществления нового процесса.

Автоматизация проектирования - реализуется метод реализации проекта, в котором проектирование и операции проектирования выполняются в тесном диалоге с проектором.

Компьютеризированная система проектирования (CL) - это набор автоматизированных средств проектирования, связанных с командой автоматизированного проектирования или командой дизайнеров.

Система управления базами данных (MBMS) - это программно-методический комплекс, обеспечивающий доступ к информационной базе, созданной в виде структур данных.

Программирование и методические комплексы машинной графики (DMK) обеспечивают графический обмен информацией пользователя с компьютером, решение геометрических задач, автоматическое создание изображений и графической информации.

Программное обеспечение CL включает все программное обеспечение и эксплуатационную документацию, необходимые для выполнения автоматизированного проектирования. Программное обеспечение разделено на общие и специальные приложения.

Основой математической поддержки KL являются алгоритмы; Эти алгоритмы будут разработаны программным обеспечением CL. В KL существуют различные математические элементы управления. Они включают в себя элементы инвариантных элементов - принципы функционального моделирования, решения алгебраических и дифференциальных уравнений, экстремальные проблемы, поиск экстремальных.

Техническая поддержка CL представляет собой набор взаимосвязанных и взаимосвязанных технических средств для автоматизированного проектирования.

Лингвистическая база CL основана на специальных инструментах языка (языки программирования); Они предназначены для описания автоматизированных процедур проектирования и проектных решений. Основная часть лингвистического питания - это язык общения с людьми. Программно-ориентированные языки программирования подобны алгоритмическим языкам программирования (Visual Basic, Visual C ++, Delphi, Java, Visual Fox Pro и т. Д.).

AutoCAD - это автоматизированный пакет дизайна для компании Autodesk, которая является мощной системой компьютерного моделирования и проектирования, предоставляя пользователям возможность быстро и

эффективно разрабатывать высокотехнологичные проекты и одновременно распечатывать технические чертежи.
MathCAD - программный инструмент для инженерных расчетов, предназначенный для профессиональных математиков. Его можно использовать для построения таблиц и графиков для решения алгебраических и дифференциальных уравнений с переменными и переменными параметрами, для анализа функций и поиска их крайностей, для анализа найденных решений.
Система MATLAB представляет собой систему, предназначенную для решения задач механики, математики, физики, инженерии и управления, моделирования, проектирования, описания и анализа различных механических, энергетических и динамических систем в компьютерной системе И язык программирования для разных пользователей отрасли.
Massive - это нумерованный и упорядоченный набор типов данных.
Практический программный пакет (ADP) представляет собой набор приложений, предназначенных для решения конкретных (функциональных, систематических, бизнес-задач) класса.
Информационное общество - это сообщество, в котором большинство сотрудников занимается производством, хранением, обработкой и реализацией информации, в частности формой информации.
Информационные ресурсы представляют собой набор документов и документов в отдельных документах и отдельной документации, информационных системах (библиотеках, архивах, запасах, банках данных и других информационных системах).
Информационные технологии (ИТ) - это процесс, который использует сбор, обработку и передачу информации (исходной информации) инструментов и стилей для получения новой качественной информации о статусе предмета, процесса или события.
Videomonitor - это устройство, которое отображает информацию, которая вставляется в SCS и выходит из нее
Программный интерфейс представляет собой набор инструментов, которые взаимодействуют с устройствами и программным обеспечением в вычислительной системе.
Частотные счетные машины (DXM) - это вычислительные машины, которые работают в комбинации и работают с информацией, предоставленной в аналогичном цифровом формате; Они имеют преимущества UHM и SRC.
Информатика – компьютер

GLOSSARY

Development is a process of generating a description that is needed to create an object that does not exist even in the context of a primary object and / or its existing algorithm. Design is a set of research, design, design and construction designs that are designed to meet the specific requirements of a projected item, which is necessary and sufficient for the creation of a new product or a new process.

Automation of design - a way of execution of project development is realized, in which projecting procedures and operations are carried out in a close dialogue with the projector.

Computerized Projection System (CL) is a set of automated design tools associated with an automated design team or a team of designers.

Database Management System (MBMS) is a software-methodical complex that provides access to the information base created in the form of data structures.

Programming and methodical complexes of the machine graphics (DMK) provide the user with automatic communication in the form of graphic information exchange, geometrical issues, automatic image processing and automatic graphic information.

The CL software includes all software and exploitative documentation required to perform automated design. Software is divided into general and special applications.

The basis of KL mathematical support is algorithms; These algorithms will be developed by the CL software. There are different mathematical controls in the KL. These include the elements of invariant elements - principles of functional modeling, solution of algebraic and differential equations, extreme issues, search for extreme.

Technical support of CL is a set of interconnected and interconnected technical means for automated design.

The CL curriculum is based on specific language tools (design languages); they are designed to describe automated designing procedures and project solutions. The main part of the linguistic supply is the language of communication with people. The problem-oriented programming languages are similar to algorithmic programming languages (Visual Basic, Visual C ++, Delphi, Java, Visual Fox Pro, etc.).

AutoCAD is an automated design package for the Autodesk company, which is a powerful system for computer modeling and design, providing users with the ability to quickly and efficiently develop high-tech designs and simultaneously print out technical drawings.

MathCAD is a software tool for engineering calculations, designed for professional mathematicians. It can be used to create tables and graphs to solve algebraic and differential equations with variable and variable parameters, to analyze functions and to search for their extremes, to analyze solutions.

MATLAB system is a system designed to solve the problems of mechanics, mathematics, physics, engineering and management, modeling, design, description and analysis of various mechanical, energetic and dynamic systems designed for accurate, And programming language for different industry users.

Massive is a numbered and ordered set of data types.

Application Package (ADP) is a set of applications designed to address specific (functional, systematic, business) class tasks.

The Information Society is a community where the majority of employees are engaged in the production, storage, processing and implementation of information, in particular the form of information.

Information resources are a set of documents and documents in separate documents and separate documentation, information systems (libraries, archives, stock, data banks, other information systems).

Information technology (IT) is a process that utilizes the collection, processing and transmission of information (starting information) tools and styles to get new quality information about the status of a subject, process, or event.

Videomonitor is a device that displays input and output information from the VCR

Software Interface - is the sum of tools that provide interaction between devices and software within the computing system.

Frequency Counting Machines (DXMs) - are computing machines that operate in a combination, and work with information provided in a similarly digital format; They have the advantages of UHM and SRC.

Informatics - a computer

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

«KOMPYUTERLI LOYIHALASH»

o’quv fanidan
tarqatma materiallar

Navoiy-2025





Вариант 1









Вариант 2


















Первая стадия
Пятая стадия
















qiq.ru






























Компьютерные технологии при освоении инженерных дисциплин




Вебинар
29.01.2015
Основы работы в Solid Edge
www.cad-expert.ru/plm_ural
PLM УРАЛ
SIEMENS


Deformation
Type: Deformation
Unit: mm
18.12.2007 11:27
1,1242 Max
0,99929
0,87438
0,74947
0,62456
0,49965
0,37473
0,24982
0,12491
0 Min


















MyShared






AUTODESK®
INVENTOR® 2015
AUTODESK.


Все
Точка на конце
Средняя точка
Точка центра
Точка сплайна
Точка правки
Нет
5,00 мм
Вершина (Корпус.par:1)


















Node Displacement
Load Case: 2 of 3














Название программы и имя файла
Главное меню
Объект проектирования
Дерево проектирования
Компас
Панели инструментов























Рис 3













O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
ENERGO-MEXANIKA FAKULTETI

«KOMPYUTERLI LOYIHALASH»
o’quv fanidan
testlar

Navoiy-2025

FAN BO’YICHA TEST SAVOLLARI

1.	AutoCAD da buyruqlarni qanday berish mumkin?	Menyular yordamida	Panellar orqali	Bevosita buyruqlar satrida	Barcha javoblar to’gri
2.	Foydalanuvchi interfeysi ……. imkonini beradi.	Ma’lumotlarni ko’rish, tahrirlash va hamda ma’lumotlarni boshqarish	ma’lumotlarni ko’rish	ma’lumotlarni ko’rish va tahrirlash	ma’lumotlarni boshqarish
3.	Ma’lumotlarni tasvirlashning vizual komponentalar sahifasi qaerda joylashgan?	Data Controls	BDE	Interbase	Database
4.	Ma’lumotlar yig’indisi bilan ma’lumotlarni tavirlashni vizual komponentalari quyida keltirilgan qaysi maxsus komponent yordamida ta’minlanadi?	TDataSource	TDBGrid	TDBEdit	TDBMemo
5.	TDataSource qaysi palitra komponentalar palitrasida joylashgan?	Data Access	Data Control	Dialog	Data Memo
6.	Ma’lumotlar to’plamini modulini yaratishda ob’ektlar repozitoriysidan yoki …. buyrug’ini tanlash kerak.	File→New→Data Module	Edit→Data Module	File→Data Module	File→Option→Properties
7.	Ma’lumotlar modulida joylashgan ma’lumotlarga murojaat qilish va undan foydalanishda quyidagi buyruqlardan foydalanamiz?	uses DataModule; DataModule.Tablel.Open;	Interface DataModule;	DataModule.Tablel.Open;	Data Memo
8.	Ma’lumotlarni jadval ko’rinishda tasvirlash uchun ishlatiladigan komponenta?	TDBGrid	TDBEdit	TDBMemo	TDBText
9.	Ma’lumotlar maydonini aniqlab berish uchun	DataField	DataSource	DataBase name	Data Memo

	ishlatiladigan svoystva(xususiyat) ?				
10.	Ma’lumotlarni bir maydonini tahrirlash uchun ishlatiladigan komponenta?	TDBEdit	TDBGrid	TDBMemo	TDBText
11.	Ma’lumotlarni Memo maydonini tahrirlash uchun ishlatiladigan komponenta?	TDBMemo	TDBGrid	TDBEdit	TDBText
12.	Ma’lumotlarni rasmli maydonini tahrirlash uchun ishlatiladigan komponenta?	TDBPicture	TDBGrid	TDBEdit	TDBText
13.	Bir yozuv oldinga, orqaga, boshiga, oxiriga borish uchun ishlatiladigan protseduralar?	Next, Prior, First, Last	Next, Prior, One, End	Next, Prior, append, close	DataModule.Tablel.Open
14.	Ma’lumotlar to’plamini umumiy sonini aniqlash uchun ishlatiladigan xususiyat?	property RecordCount: Integer;	property Bof: Boolean;	property Eof: Boolean;	property RecNo: Integer;
15.	Ma’lumotlar fayli yozuvi boshiga borganligini tekshirish uchun ishlatiladigan xususiyat?	property Bof: Boolean;	property RecordCount: Integer;	property Eof: Boolean;	property RecNo: Integer;
16.	Ma’lumotlar fayli yozuvi oxiriga borganligini tekshirish uchun ishlatiladigan xususiyat?	property Eof: Boolean;	property RecordCount: Integer;	property Bof: Boolean;	property RecNo: Integer;
17.	Ma’lumotlar fayli yozuvlari sonini aniqlashda ishlatiladigan xususiyat?	property RecNo: Integer;	property RecordCount: Integer;	property Bof: Boolean;	property Eof: Boolean;
18.	Ma’lumotlar fayli yozuvi o’lchamini aniqlash uchun ishlatiladigan xususiyat?	property RecordSize: Word;	property RecordCount: Integer;	property Bof: Boolean;	property Eof: Boolean;
19.	Ma’lumotlar fayli maydonlari sonini	property FieldCount:	property BlobField	procedure GetFieldN	property RecordCo

	aniqlashda ishlatiladigan svoystva?	Integer;	Count: Integer;	ames(List: TStrings);	unt: Intege
20.	Ma’lumotlar faylidan Blob toifali maydonlari sonini aniqlashda ishlatiladigan svoystva?	property BlobFieldCount: Integer;	property FieldCount: Integer;	procedure GetFieldNames(List: TStrings);	property Eof: Boolean
21.	Ma’lumotlar faylidagi maydonlar ro’yxatini chiqarish uchun ishlatiladigan svoystva?	procedure GetFieldNames(List: TStrings);	property FieldCount: Integer;	property BlobField Count: Integer;	property Eof: Boolean
22.	Ma’lumotlar to’plami yozuvini tahrirlashda ishlatiladigan protsedura?	procedure Edit;	procedure Post; virtual;	procedure Cancel; virtual;	procedure Append;
23.	Ma’lumotlar to’plami yozuvini tahrirlashdan so’ng o’zgarishlarni saqlash uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Post; virtual;	procedure Edit;	procedure Cancel; virtual;	procedure Append;
24.	Ma’lumotlar to’plami yozuvini tahrirlashdan so’ng oxirgi yozuvdagi o’zgarishlarni inkor etish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Cancel; virtual;	procedure Edit;	procedure Post; virtual;	procedure Append;
25.	Ma’lumotlar to’plamining oxiriga yozuv qo’shish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Append;	procedure Edit;	procedure Post; virtual;	procedure Cancel; virtual;
26.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuv o’rniga yozuv qo’shish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Insert;	procedure Edit;	procedure Post; virtual;	procedure Cancel; virtual;
27.	Ma’lumotlar to’plamining oxiriga qiymati bilan yozuv qo’shish uchun ishlatiladigan	procedure AppendRecord(c onst Values: array of const);	procedure InsertReco rd(const Values: array of	procedure Delete;	procedure ClearField s;

	protsedura?		const);		
28.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuv o’rniga ma’lumotlari bilan yozuv qo’shish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure InsertRecord(const Values: array of const);	procedure AppendRecord(const Values: array of const);	procedure Delete;	procedure ClearFields;
29.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuvni o’chirish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Delete;	procedure AppendRecord(const Values: array of const);	procedure InsertRecord(const Values: array of const);	procedure ClearFields;
30.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuvni ma’lumotlarini o’chirish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure ClearFields;	procedure AppendRecord(const Values: array of const);	procedure InsertRecord(const Values: array of const);	procedure Delete;
31.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuvni qayta yuklash uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Refresh;	procedure AppendRecord(const Values: array of const);	procedure InsertRecord(const Values: array of const);	procedure Delete; procedure ClearFields;
32.	Ma’lumotlar to’plamidagi joriy yozuvni tahrirlanganligi to’g’risidagi ma’lumotlarni chiqarish uchun ishlatiladigan protsedura?	property Modified: Boolean;	procedure AppendRecord(const Values: array of const);	procedure InsertRecord(const Values: array of const);	procedure Delete; procedure ClearFields;
33.	To’g’ridan-to’g’ri qo’yish yoki yozuv qo’shish uchun ishlatiladigan metod?	property OnNewRecord: TDataSetNotifyEvent;	property OnCalcFields: TDataSetNotifyEvent;	property AutoCalcFields: Boolean;	procedure Delete;
34.	Ma’lumotlar maydonlarini hisoblash uchun ishlatiladigan metod?	property OnCalcFields: TDataSetNotifyEvent;	property OnNewRecord: TDataSetNotifyEve	property AutoCalcFields: Boolean;	procedure Delete

			nt;		
35.	Orders nomli jadvaldan barcha yozuvlarni tanlash uchun ishlatiladigan SQL buyrug'i?	SELECT FROM Orders	hammasi	Update FROM Orders	property IndexField Names: String;
36.	Indeks nomini tanlash uchun svoystva?	property IndexName: String;	property IndexField s: [Index: Integer]: TField;	property TableNam e: String;	property IndexField Names: String;
37.	Indeks nomini tanlash uchun svoystva?	property IndexName: String; property IndexFieldNames : String;	property IndexField s: [Index: Integer]: TField;	property TableNam e: String;	property IndexField Names: String;
38.	Indeksli maydonlar sonini hisoblash uchun svoystva?	IndexFieldCount: Integer;	property IndexField s: TField;	property TableNam e: String;	property IndexField Names: String;
39.	Jadval yaratish uchun ishlatiladigan svoystva?	procedure CreateTable;	procedure EmptyTab le;	procedure DeleteTabl e;	procedure Deletelnde x(const Name: string);
40.	Jadvalni yozuvlarini o'chirish yoki bo'shatish uchun ishlatiladigan svoystva?	procedure EmptyTable;	procedure CreateTab le;	procedure DeleteTabl e;	procedure Deletelnde x(const Name: string);
41.	Jadvalni o'chirish uchun ishlatiladigan svoystva?	procedure DeleteTable;	procedure CreateTab le;	procedure EmptyTabl e;	procedure Deletelnde x(const Name: string);
42.	Jadvalni indeksini o'chirish uchun ishlatiladigan svoystva?	procedure Deletelndex(cons t Name: string);	procedure CreateTab le;	procedure EmptyTabl e;	procedure DeleteTabl e;
43.	Joriy so'rovni aktivlashtirish va ma'lumotlar to'plamini chiqarish uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure Open;	procedure Close;	procedure ExecSQL;	procedure Prepare;
44.	Joriy so'rovni yopish	procedure Close;	procedure	procedure	procedure

	uchun ishlatiladigan protsedura?		Open;	ExecSQL;	Prepare;
45.	So’rov INSERT, DELETE, UPDATE opreratorlaridan keyin aktivlashtirish uchun uchun ishlatiladigan protsedura?	procedure ExecSQL;	procedure Open;	procedure Close;	procedure Prepare;
46.	So’rov yaratish uchun mo’ljallangan usul (serverga va optimizatsiyalashni o’tkazishga kerakli resurslarni ta’minlab beruvchi) protsedura?	procedure Prepare;	procedure Open;	procedure Close;	procedure ExecSQL;
47.	So’rov yaratish uchun mo’ljallangan usul (serverga va optimizatsiyalashni o’tkazishga kerakli resurslarni ta’minlashni inkor etuvchi) protsedura?	procedure UnPrepare;	procedure Open;	procedure Close;	procedure ExecSQL;
48.	Ma’lumotlar to’plamini har indeksi parametri … klasida tasvirlanadi.	TindexDef	TDataBase	TDataSource	TTable
49.	Indeks mumkin bo’lgan parametrlari ro’yxati qaysi biri kirmaydi?	ixSensuality	ixunique	ixDescending	ixExpression
50.	TDBGrid komponetasi ma’lumotlarni … komponentasi orqali qabul qiladi.	TDataSource	TTable	TDBGrid	TSQL